

D.I Madaminova H.Y Azimov

XALQARO XAVFSIZLIK

Siyosatshunoslik bakalavriat ta'lim yo'naliishida tahlil olayotgan
talabalar uchun o'quv qo'llanma



0X0000044864

TOSHKENT 2021

ell-14


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

D.I.MADAMINOVA, H.Y.AZIMOV

XALQARO XAVFSIZLIK

5210300- Siyosatshunoslik bakalavriat ta'lif yo'nalishida
tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma



Toshkent
«EFFECT-D» – 2021

UO'K: 327(075.8)

BKB: 66.4ya73

M 14

Mualliflar:

Madaminova Durdona Iskandarovna
Azimov Habibulloxon Yakubovich

Taqrizchilar:

Durbek Sayfullayev
Muhammadolim Muhammadsidiqov
Suhrob Bo'ronov

M 14

Xalqaro xavfsizlik: O'quv qo'llanma. D.I.Madaminova,
H.Y.Azimov; – T.: “EFFECT-D”, 2021. – 152 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada xavfsizlik tushunchasiga oid qarashlar, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash borasidagi yondashuvlar va bu boradagi manfaatlar mutanosibligiga erishish yuzasidan tanqidiy, tahliliy fikrlar keltirilgan, shuningdek, muammoli-siyosiy vaziyatlarni amaliy tahlil qilishning asosiy uslubiy tamoyillari va usullari keltirilgan bo'lib, unda amaliy xalqaro xavfsizlik muammosi bilan bog'liq konseptual modellarni amalda qo'llash bo'yicha asosiy ko'rsatmalar o'rinn olgan. Mazkur o'quv qo'llanma 5210300 – Siyosatshunoslik bakalavriat ta'lif yo'nalishining “Xalqaro xavfsizlik” fanidan asosiy o'quv adabiyoti sifatida tavsiya etiladi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2021-yil 19-iyundagi 359-sonli buyrug'iga asosan nashrqa tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7430-4-5

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021
© “EFFECT-D”, 2021

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I MAVZU. XALQARO XAVFSIZLIK O'QUV KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI	6
1.1. Xavfsizlik tushunchasi va uning umumiy nazariyasining mohiyati va mazmuni	6
1.2. Realizm va liberalizm vakillarining xavfsizlikka oid yondashuvlar	15
1.3. Global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik: tushuncha va xususiyatlari	21
II MAVZU. "SOVUQ URUSH"NING VUJUDGA KELISHI VA XX ASRDA XALQARO XAVFSIZLIK	37
2.1. Ikkinchи Jahon urushining tugashi hamda Sovuq urushning boshlanishi	37
2.2. Truman doktrinasi va Marshall rejasи	44
2.3. Postdam, Yalta konfrensiyasi	47
III MAVZU: TERRORIZM XALQARO XAVFSIZLIKKA TAHDID SIFATIDA	55
3.1. Terror va terrorizm	55
3.2. Terrorizm turlari	60
IV MAVZU. "ARAB BAHORI" DAN KEYINGI DAVRDA YAQIN ShARQ MINTAQASIDA XAVFSIZLIK MASALALARI	68
4.1. Yaqin Sharq mintaqasiga umumiy sharh	68
4.2. Yaqin Sharqdagi etnik nizolarning asosiy o'choglari	74
4.3. "Arab bahori" va mintaqada xavfsizlikka tahdid soluvchi yangi muammolarning yuzaga chiqishi (Suriya misolida)	84
V MAVZU. JANUBIY OSIYO MINTAQASIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA KASHMIR MUAMMOSINING AHAMIYATI ...	93
VI MAVZU. OSIYO TINCH OKEANI MINTAQASIDA XAVFSIZLIK MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	108
6.1. Mintaqaviy xavfsizlik dialogini kengaytirishga urinishlar..	108
XULOSA	122
GLOSSARY	124
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	131

KIRISH

Xavfsizlik tushunchasi inson hayotining har bir daqiqasiga daxldor bo'lgani kabi moddiy farovonlik ham uning doimiy tashvishidir. Xuddi insonlar kabi davlatlar ham bиринчи navbatda тinchlik va farovonligini asrashga intiladi. Bu masalada farq shundaki, individual hodisa sifatida inson avvalo o'ziga diqqat qaratsa va buni turmush deb atasa, ijtimoiy tafakkur hosilasi sifatida davlat barcha e'tiborni jamiyat va mamlakatga qaratadi va buni siyosat, deb ataydi.

O'zida тinchlik va farovonlik kategoriyalari mazmun-mohiyatini ham umumlashtiruvchi xavfsizlik tushunchasi siyosiy harakatlar asosi sifatida jahon xalqlari va davlatchiligining turli davrlarida mavjud tahdidlarga ko'ra turlicha ifodalab kelindi va bugungi kun davlat siyosatini shakllantirishda o'ziga xos o'rinn tutmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Biz O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlangan keng ko'lamli ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o'yangan tashqi siyosat yo'lini davom ettiramiz!".

Lekin zamonaviy jamiyat xavfsizligining siyosiy asoslarini belgilab bergen fransuz inqilobi va Vestfaliya sulhi "xavfsizlik – tashqaridan bo'ladigan tahdidlarga qarshi davlatning milliy xavfsizligidir", degan tushunchani uning ustuvor ma'nosi darajasiga ko'tardi. Ya'ni muayyan jamiyat yoki davlat uchun eng asosiy xavf - bu harbiy tahdid, deb ta'riflandi. Buning sababi shundaki, mamlakat uchun boshqa, masalan, iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy, ma'naviy va boshqa turdag'i xavf-xatarlarni jamiyat va siyosatning o'zaro muvofiq harakat va intilishlari asosida yo'qotishlarsiz yengish mumkin. Lekin harbiy tahdidlar boshqa turdag'i intilishlarning barchasini yo'qqa chiqaruvchi hodisadir. Shunga ko'ra harbiy jihatdan qudratliroq bo'lish uzoq zamonlardan beri barcha davlatlar uchun тinchlik va farovonlik kafolati va ustuvor vazifa bo'lib keldi. Biroq, insoniyat tarixi minglab bora isbotlagani

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь. № 19 (7521).

kabi bir davlatning harbiy qudratliligi boshqasining xavfsizligiga tahdidni ham ifodalaydi.

Xavfsizlik tushunchasi inson paydo bo'lgandan boshlab eng elementar munosabatlardan hozirgi dunyodagi kabi eng murakkab tizimga qadar katta yo'lni bosib o'tdi. Bu jarayonda u ongga tinimsiz ta'sir ko'rsatishi sababli insoniyatni xavflar, ularning turlari, uslublari, mexanizmlari, unga qarshi turish yoki uni bartaraf etish va undan saqlanishning minglab ko'rinishlarini yaratishiga zamin hozirladi. Shu ma'noda xavfsizlikni ta'minlashga urinishlar inson ongi, tafakkuri va bilimining o'sishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi, deyish mumkin.

Lekin xavfsizlikni ta'minlashning kuchayib borishi ayni xavfxatarlar sonining ortib borishini ham ta'minlamoqda. Tarixiy zamонларда xavflarning eng kattasi urushlar sifatida aniq ko'rinishga ega bo'lган va xalqaro munosabatlarda ana shu urushlar oldini olish eng muhim va aniq xavfsizlikni ta'minlash vazifasi sifatida namoyon bo'lган bo'lsa, hozirgi xavf va xavfsizlik tushunchalari tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ko'p ko'rinishlar va vazifalarni qamrab oladiki, ularni hatto tizimli tushunishning ham imkonи tugab bormoqda. Bu xalqaro xavfsizlikni ta'minlash masalalari tarkibiga kirgan qator ijtimoiy kelishuvlarning qadrsizlanishiga olib kelayapti. O'z navbatida, bu qadrsizlanish yuksak mavqeli ko'plab tashkilotlarning obro'sizlanishiga zamin hozirlayapti.

Shunga ko'ra, hozirgi jahon siyosatida xavf va xavfsizlikning xalqaro amal qiluvchi qoidalari, kelishuvlari va boshqa hujjatlarini qaytadan ko'rib chiqish zaruriyati mavjud. Bu vaziyatda xavf tushunchasi va uning ko'rinishlari aniqlashtirilishi, uluraga nisbatan xalqaro hamjamiyatning munosabat tamoyillari tubdan yangilanishi kerak. Shundagina jahoning bunday rivojlanishida oxir-oqibatda xavf xavfsizlikni yengadimi yoki xavfsizlik xavfni yengadimi, degan savolga javob topish, dunyo kelajagini birmuncha oydinlashtirish va balki, kelajak insoniyat taraqqiyoti yo'naliшhlarini tartibga solish mumkin bo'lar edi.

I MAVZU. XALQARO XAVFSIZLIK O'QUV KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Xavfsizlik tushunchasi va uning umumiy nazariyasining mohiyati va mazmuni.
2. Realizm va liberalizm vakillarining xavfsizlikka oid yondashuvlari.
3. Global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik: tushuncha va xususiyatlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Xalqaro xavfsizlik tushunchasi va uning tarixini yoritish hamda fanning predmeti, obyekti va nazariyalar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Tayanch tushuncha va iboralar: xavfsizlik, xavf, tahdid, davlat, jamiyat, shaxs, millat xavfsizligi, ekologik, epidemiologik, biologik, xalqaro, davlatlararo xavf va xavfsizliklar, harbiy tahdidlar.

1.1. Xavfsizlik tushunchasi va uning umumiy nazariyasining mohiyati va mazmuni

Xavfsizlik tushunchasi inson tug'ilganidan boshlab, hayotining har bir nuqtasi va bosqichida foydalanadigan hodisadir. Odamlar xavfsizlik va huzur-halovat ichida yashash uchun o'zlariga turli yo'l qidiradilar. Xuddi insonlar kabi davlatlar ham birinchi navbatda hududiy yaxlitligini himoya qilish va mavjudligini saqlab qolishga intiladi. Davlatlar o'z yaxlitligini ichki va tashqi tahidlardan himoya qilish orqali o'z fuqarolarining xavfsiz yashashini ta'minlashga harakat qildi.

Xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati va xavfsizlikka tahdid soluvchi vaziyatlar haqidagi munozaralar har bir davrga qarab turli xususiyatlarga ega bo'lgan. Xavfsizlik masalasi zamonaviy davrgacha siyosiy ahamiyat kasb etmagan va o'rta asrlarda yirtqich hayvonlar yoki bosqinchilarga qarshi himoyalanish sifatida qabul qilingan. Zamonaviy jamiyatning siyosiy asoslarini belgilab bergen Vestfaliya sulhi asosida xavfsizlik – tashqaridan

bo‘ladigan tahdidlarga qarshi davlatning milliy xavfsizligi ekan, degan tushuncha shakllandi. Fransuz inqilobi bilan xavfsizlik tushunchasi siyosiy xarakterga ega bo‘ldi. Fransuz inqilobi bilan birga birinchi o‘ringa chiqqan tenglik va adolat kabi tushunchalardan tashqari davlatning milliy xavfsizligi ham shakllanib bordi. Davlatlar uchun milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi masalalar harbiy tahdid, deb ta’riflandi.

Xalqaro tizimda xavfsizlikni anglash har bir davlat va davrga qarab turlicha qabul qilingan. Shunga qaramay o‘tmishdan hozirga qadar xavfsizlik xavotiri har doim bo‘lgan va har qanday vaziyatda tahdid qayta shakllangan. Tarix davomida boshqa davlatlardan saqlanish, ular bilan raqobatda zarar ko‘rmaslik va aziyat chekmaslik, boshqalarga qaraganda qudratliroq bo‘lish hamma uchun ustuvor vazifa bo‘lib kelgan². Ikkita katta jahon urushida g‘olib chiqqan mamlakatlar dunyoni shakllantirish harakatiga tushgan. Ikkinci jahon urushidan keyin dunyo AQSh va SSSR tomonidan ikkiga bo‘lib olindi. Amerika va sobiq Ittifoq bloklaridan tashqaridagi davlatlar va xalqaro tashkilotlar ham ikki tomonidan tashqaridagi davlatlar va xalqaro tizim ikkiga bo‘linib ketdi. Sovuq urush davrida mafkuraviy o‘lchov xavfsizlikka tahdid va siyosiy harakatlarning oldingi qatoridan joy oldi.

Bloklar tomonidan ilgari surilgan mafkuralar Sovuq urush strategiyasini belgilab berish barobarida siyosiy va ijtimoiy hayotning shakllanishiga ta’sir o‘tkazdi.

Sovuq urush yakunlanishi bilan ikki qutbli dunyo tizimi barbob bo‘ldi va AQSh super qudratli kuchga aylangan davr boshlandi. AQSh tomonidan ilgari surilgan liberal siyosat SSSR targ‘ib qilgan siyosatdan ustun bo‘lgani sababli kommunistik bloklar quladi, temir pardalar yirtildi, g‘oyaviy va mafkuraviy kurash masalasi o‘rtadan ko‘tarildi. Aslida Sovuq urushdan keyingi davrda globallashuv jarayonining tezlashishi bilan xavfsizlik tushunchasi o‘zgara boshladi va u asosan harbiy tahdidlar atrofida shakllandi. Globallashuv ta’siri ostida xavfsizlik tushunchasi nafaqat harbiy tahdidlar, balki barqarorlik va tinchlikni saqlash masalasida xavfsizlikni yanada kengroq tushunish va yangicha talqin qilish lozimligini o‘rtaga chiqardi. Sovuq urush davrida yuzaga keltirilgan sun‘iy tahdidlar o‘rnini haqiqiy qo‘rquvni keltirib chiqargan

² Ravshanov, F. R., & Azimov, H. Y. (2021). Danger and Security: History and Present. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(4), 280-285

xavfsizlik masalasi egalladi. Xavfsizlik tushunchasidagi yangicha qarashlar texnologik taraqqiyot va globallashuv bilan bog'liq o'zgarishlarning natijasi ekani e'tirof etildi. Bu yangilanish va o'zgarishlar xavfsizlik masalalarida yangicha yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Sovuq urush tugashi va globallashuv jarayonining tezlashib ketishi natijasida xalqaro munosabatlarning samarali modeli hisoblangan realizm shubha ostida qoldi. Realizmning markaziy nuqtalari bo'lgan kuch-qudrat, hokimiyat, manfaatdorlik va davlat kabi asosiy tushunchalar tizimdagи o'zgarishlarni ochib berish uchun yetarli emas edi. Iqtisodiyot, informatika, individual va ekologik xavfsizlik kabi masalalar bu soha kengayishini ko'rsatish bilan birga realizmning kamchiliklarini yanada yaxshiroq namoyon qilib berdi.

Bu holat xavfsizlik masalalarida yangicha qarashlar va tushunchalar paydo bo'lishiga olib keldi. Bu jarayonda yuzaga kelgan global tizimda xavfsizlik masalasi faqat harbiy muammolarni emas, balki terrorizm, ekologiya, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi va texnologik rivojlanish natijasidagi vujudga kelidigan xatarlarni ham o'z ichiga olgan tushunchaga aylandi. Shuning uchun davlatlar xavfsizligiga tahdid nafaqat dushmanlar xuruji bilan, balki barqarorlik, tinchlik, tartib-intizomni buzishi mumkin bo'lganlar qanday harakat bilan ifodalananadi.

Globallashuv ta'sirida xavfsizlik tahdidlari tushunchasining o'zgarishi a'anaviy ta'rifiga muvofiq kelmay qolgani tufayli xavfsizlik tushunchasini boshqatdan belgilab olish va yangicha izohlashni talab etadi. An'anaviy xavfsizlikning asosi hisoblangan urush va dushman fenomeni bugungi kunda terorizmga qarshi kurashish, kiber urush kabi yangi shaklda namoyon bo'lmoqda. Sovuq urushan keyin global muhitga ta'sir qilgan hodisa 11-sentyabr voqealari bo'ldi. Terroristik xurujlar, ommaviy qirg'in qurollari kabi mavzular xalqaro xavfsizlik masalasida yana kun tartibining dolzarb masalalariga aylandi³.

Xavfsizlik deganda aytilishi lozim bo'lgani tushuncha shuki, har bir jonzot har yerda va har qanday sharoitda unga ehtiyoj sezadi. Shu bois xavfizlik doirasi muntazam kengayib va chuqurlashib boraveradi. Inson xavfsizligi, jamiyat xavfsizligi, davlat xavfsizligi,

³ Çağrı Erhan, Soğuk Savaş Sonrası ABD'nin Güvenlik Algılamları, Uluslararası Güvenlik Sorunları ve Türkiye, Hakan Taşdemir (Der.), Ankara: Seçkin Yayıncılık, 2002. s.58.

atrof-muhit va ekologiya xavfsizligi, xalqaro xavfsizlik kabi bir qancha ta’riflarni keltirish mumkin. “Nimaning xavfsizligi?”, “Kimning xavfsizligi?”, “Xavfsizlik qanday ta’milanadi?”, “Xalqaro maydondan doimiy xavfsizlik mavjudmi?” kabi savollar xavfsizlik nima ekani haqidagi savolni anglab yetishni murakkablashtiradi. Xalqaro munosabatlardagi xavfsizlik bu milliy va xalqaro institutlar, jarayonlarda uchraydigan voqe’likdir. Xavfsizlik va maqsad o’rtasida to‘g’ridan to‘g’ri bog‘liqlik bor va maqsadga qarab xavfsizlik tamoyillari aniqlanib boriladi. Xalqaro tizimning barcha ishtirokchilari buyukligi va qudratiga tayangan holda xavfsizlikni ta’minlash imkoniga ega.

Xavfsizlik konsepsiyasining ta’rifini inobatga olgan holda bu borada turli xil fikrlar borligini ham ta’kidlash lozim. Bu farqning ikkita asosiy sababi mavjud. Avvalo ushbu konsensiya tarixiy voqeя va jarayonlarga qarab o’zgaradi va turli tasavvurlarni uyg’otadi. Yana bir sabab shundaki, xavfsizlik tushunchasiga qay yo’sinda yondashish (mamlakatlarning farqi, ta’rif berayotgan shaxsnинг dunyoqarashi, mafkuraviy va shaxsiy g’oyalari va boshqalar) asosida shakllanadi. Shu sabablarga ko‘ra mamlakatlar va ishtirokchilar siyosati, bir xalqaro tizimdagи har bir davlatning tahlika va tahdidni turlicha izohlashi va qabul qilishiga qarab, xavfsizlik konsepsiysi borasida ta’riflar va nazariy qarashlar shakllanadi. Bir-biridan farq qiladigan konseptual va nazariy yondashuvlar ishtirokchilarning siyosiy va ijtimoiy tuzulmalariga ko‘ra turli xil qarashlarni ifodaydi va ularning tahdid haqidagi tasavvurlarini o’rtaga chiqaradi.

Devid Baldvinning fikricha xavfsizlikka turlicha ta’rif berilishi ikki jihatdan muhim. Birinchidan, bu bir xavfsizlik siyosatini boshqasi bilan taqqoslashni osonlashtirish orqali oqilona siyosat tahliliga hissa qo’shami. Ikkinchidan, turli qarashlarga ega bo‘lganlar orasida umumiylashtirish asos hosil qilib, ilmiy aloqalarni osonlashtiradi⁴.

Xalqaro munosabatlarda davlat, tashqi siyosat, kuch-qudrat va xavfsizlik asosiy tushunchalardir. Agar biz davlatlarning paydo bo‘lishining sababi sifatida shaxslar xavfsizligini birinchi o’ringa qo’ysak, uni davlatlarning vujudga kelishining asosiy sababi sifatida ko’rsatishimiz mumkin bo’lsa, xavfsizlik konsensiyasining ahamiyatini yaxshiroq anglay olamiz. Xalqaro munosabat tizimida

⁴ Baldwin, D. A. (1997). The concept of security. Review of international studies, 23(1), 5-26.

xavfsizlik konsepsiysi ishtirokchilarning xulq-atvori universal va mintaqaviy tushunchilar bilan birga ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Biroq xavfsizlik masalasi xalqaro munosabatlardan emas, balki insoniyat tarixidan boshlangan va shu sabab xavfsizlik masalasi muayyan jarayonda ko'rib chiqilishi kerak. Zamon va turli sharoitlar natijada yuzaga kelgan o'zgarishlarga qarab xavfsizlik konsepsiyasining mohiyati boyidi⁵.

Dunyodagi har bir jonzotning birinchi maqsadi mavjudligini saqlab qolish va davom ettirishdan iborat. Bu holat xalqaro tizimni tashkil qiluvchi davlatlar uchun ham amal qiladi. Mavjudligini himoya qila olish va davom ettirish imkoniga ega bo'lish ayni paytda xavfsizlik konsepsiyasining asosini tashkil qiladi va xavfsizlik asosiy qadriyat hisoblanadi. Xavfsizlik yo'qotilganda o'zi egalik qilayotgan hamma narsadan ayrilishini bilgani uchun insonlar o'z xavfsizliklariga tahdid solgan hamma narsani yo'q qilishga intiladi.

Xavfsizlik tushunchasi xalqaro munosabatlarda keng foydalanimayotganiga qaramay, unga umumiy ta'rif berilmagan va turli noaniq tushuntirish, izoh va talqinlar mavjud. Buning sababi shaxslar va jamiyatlarning siyosiy va mafkuraviy qarashlarining bir-biridan farq qilishi va xavfsizlikka ehtiyojning turlicha ekanligi bilan bog'liq. Asosiy ehtiyojlar hisoblangan oziq-ovqat, salomatlik va boshipana masalalari umumiyyidir. Biroq bu ehtiyojlardan tashqari urush, tinchlik, davlat, turli sinflar tuzilmasi kabi voqeliklar jarayon ishtirokchilarining shaxsiy, siyosiy va mafkuraviy qarashlariga bog'liqligi uchun ham umumiy bo'la olmaydi.

Shu sabablarga ko'ra xavfsilikka umumiy ta'rif berishning imkonи yo'q. Xavfsizlik tushunchasini belgilashda ko'p o'zgarishlarni hisobga olish va o'zgaruvchan sharoitga qarab, konsepsiyasini qayta aniqlash talab etiladi. Bu holat konsepsiyaning hamma tomonidan qabul etilishiga to'sqinlik qiladi. Biroq xavfsizlik to'g'risidagi ko'plab ta'riflarda "tahlikalar va qo'rquvlardan yiroq bo'lish, biron bir tahdiddan xoli", degan iboralarning ishlatalishi umumiy tushunchalar ham mavjudligini ko'rsatadi. Bu yerda ko'rinish turganidek, xavfsizlik va tahdid tushunchalarida o'zaro bog'liqlik bor.

Xavfsizlik tushunchasi asosan ishonchsizlik ehtimollarini yo'q qilishni ifoda etadi. Ishonchsizlik ehtimollari esa, zo'ravonlik, mahrumlik va qashshoqlikka duchor bo'lishni anglatadi.

⁵ Baldwin, D. A. (1995). Security studies and the end of the Cold War.

Ishonchszilik ehtimollari xavf tug'dirishida, xatar yuzaga kelishini bildirib, odamlarda xavotir va qo'rquv uyg'otishi bilan xavfli hisoblanadi, tahlikalarning yaqinligi va qamrovining kattaligi hissiyotlar yoki faktlarga tayanishidan qat'iy nazar xavfsizlikka tahdid sifatida qabul qilinadi.

Xalqaro munosabatlar intizomidagi birinchi va eng muhim nazariy tadqiqotlarni o'tkazgan Arnold Volfersning fikriga ko'ra xavfsizlik erishilgan qadriyatlarga tahdid solmasligi va subyektiv holatda qadriyatlarga hujum qilinishidan qo'rmaslikdir⁶.

Borliqni himoyalash va saqlash maqsadida xavfsizlik masalasidan so'z ochish uchun:

- bir yoki bir necha ichki tahdid;
- va/yoki bir necha yoki bita tashqi tahdid;
- va/yoki ana shunday tasavvur va taxminlar bo'lishi kerak.

Xalqaro munosabatlar sohasida xavfsizlik konsepsiysi kundalik ishlatalidigan tushunchadan boshqacha ma'noni anglatadi. Xavfsizlik tushunchasi jamiyatda ijtimoiy va shaxs xavfsizligini anglatса, xalqaro maydonda asosan kuch-qudrat siyosatiga tayanadi. Muammoning xalqaro xavfsizlik masalasiga bog'liqligini aniqlash uchun uning an'anaviy harbiy yoki siyosiy yondashuvga ega ekaniga e'tibor qaratish lozim. Ushbu tushunchada xavfsizlik davlatning omon qolishi bilan bog'liq va bunda hayotiy tahdid bor. Bundan xavfsizlik tushunchasi tahdidni bartaraf etish uchun favqulodda choralar ko'rishni qonuniy, deb biladi.

Qadim zamonlardan beri davlatlar xavfsizlik konsepsiyasiga asosiy maqsad sifatida e'tibor qaratmoqda va shunga muvofiq, ular kuch-qudrat masalasiga haddan ziyod ahamiyat bermoqda. Xalqaro munosabatlar tizimidagi barcha subyektlar turli va o'ziga xos xavfsizlik choralariga ega. Tizimdagи barcha ishtiokchilarning xavfsizlik masalasida tushunchalari va tasavvurlari har xil va shunga muvofiq ular xavfsizlikni turlicha baholaydilar. Ushbu tafovutlarning asosiy sababi xalqaro munosabatlar tizimidagi subyektlarning kuchiga, ularning ichki dinamikasiga, tashqi siyosatni qabul qilish darajasiga, ularning imkoniyatlari va mintaqaviy global jarayonlarga ta'siriga bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan xalqaro munosabatlarda xavfsizlik tushunchasini bir necha darajalarga ajratish mumkin:

⁶ Wolfers, A. (1952). "National security" as an ambiguous symbol. Political science quarterly, 67(4), 481-502.

- a) xalqaro tizimning to‘liq yoki to‘liqqa yaqin holda xavfsizligi;
- b) geografik yoki funksional quyi tizimlar va mintaqalar xavfsizligi;
- c) davlat xavfsizligi;
- d) jamiyat xavfsizligi;
- e) ijtimoiy kichik guruhlarning xavfsizligi;
- f) jismoniy shaxslarning xavfsizligi.

Xavfsizlik so‘zma-so‘z ma’noda o‘zini qo‘rquv va tahdidlardan xoli his qilish, tahlika va xatarlardan uzoq bo‘lish, deb ta’riflanadi. Unga ko‘ra xavfsizlik subyektiv va obyektiv ta’riflar bilan bir qatorda jismoniy va psixologik o‘lchamlarga ham ega, deyish mumkin. Tarix davomida xavfsizlikning jismoniy o‘lchovlari inobatga olingan va yurt chegaralarini boshqalar tahdidi, xuruji va hujumlaridan saqlash va himoya qilish davlat xavfsizligining eng muhim elementi sifatida tan olingan.

Arnold Volfersning xavfsizlikning subyektiv va obyektivligini ta’kidlab, ikkiga bo‘lgani adabiyotda odatiy qabul qilingan yondashuvdir. Arnold Volfersning fikricha, obyektiv xavfsizlik biror bir xatar mavjud bo‘lmagan holatdir. Subyektiv xavfsizlik esa, biror tahlika xavfi kutilmagan va qo‘rquv bo‘lmagan vaziyatdir. Bir so‘z bilan aytganda, obyektiv xavfsizlik bu xavf yo‘qligiga shubha qilmaslik, subyektiv xavfsizlik esa shubha qilish xavfi yo‘qligiga ishonish demaktir⁷.

Bu ta’riflarga ko‘ra subyektiv xavfsizlik obyektiv xavfsizlikka qaraganda ancha noaniq tushuncha. Barri Buzanning fikriga ko‘ra, xavfsizlikning eng katta muammosi bu noaniqlik, mavhumlik va qo‘rquv tufayli yuzaga kelgan ishonchszizlikdir.

Ijtimoiy fanlarda xavfsizlik tushunchalari bir-biriga zid va mavhumdir. Xavfsizlik sohasidagi tahlillarning asosiy nuqtasi shaxslar, jamiyatlar, davlatlar va jarayonning boshqa ishtirokchilarining o‘zini tahdidlardan xoli his etishidir. Xalqaro munosabatlarning anarxik tabiatи tufayli tirik qolish xavotiri xavfsizlik bilan shug‘ullanish majburiyatini paydo qiladi. Bir davlatning o‘zini xavfsiz his qilishi boshqa mamlakatlarning hujum qilishidan saqlanish yoki hujum bo‘lgan vaziyatda o‘zini muvaffaqiyatli himoya qila olishini talab qiladi. Tarixiy jihatdan asosan harbiy qudrat bilan izohlanadigan milliy xavfsizlik yozma

⁷ Wolfers, A. (2011). National security as an ambiguous symbol. Security Studies. A reader, Routledge, London–New York.

manbalarda ko‘p keltirilgan. Uning asosiy maqsadi boshqa davlatlarning hujumlariga qarshi turish uchun harbiy qobiliyat va imkoniyatlarni rivojlantirib borishga qaratilgan. Barri Buzan o‘z tahlilida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va harbiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan xavfsizlik konsepsiyasini ilgari surdi. Xavfsizlik tushunchasi nimaga qarshi va nima uchun kabi savollarga javob topishni talab qiladi. Xalqaro tizimning rivojlanib borishi bilan har bir ishtirokchining xavfsizlik masalasidagi tushunchalari o‘zgarib bordi va bu boshqa davlatlarga tahdid tug‘dirdi. Ushbu vaziyat xalqaro maydonda yanada xavfli muhitni hosil qildi.

Xavfsizlik – lotinchada “Securitas” ma’nosini beradi. “Se” va “cura” kalimalarining birikmasidan tarkib topgan bu so‘z “xavotirdan uzoq bo‘lish va osoyishtalik” degan ma’noni anglatadi⁸. Xavotirdan xoli bo‘lish qandaydir obyektiv asosga ega bo‘lishi shart emas. Bu asos bo‘lgan paytda qadimgi rimliklar “Securitas” so‘zini tahlikadan uzoq bo‘lish, omonlik va xavfsizlik, sifatida qabul qilgan. Agar bu asos topilmasa, e’tiborsizlik, g‘aflat va beparvolik tushunchasi yuzaga kelgan. “Securitas” miloddan keyingi birinchi asrdan e’tiboran imperatorni himoya qilish asosida shaxs va jamiyat xavfsizligini ta’minlaydi, deb qaralgan. “Rim tinchligi” – “Paks Romana” yaratish asosiy tushuncha bo‘lgan. “Paks Romana” ham mafkuraviy, ham siyosiy tushuncha konsepsiya sifatida qo‘llanildi.

Xavfsizlikning tarixiy rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asosiy g‘oyalardan biri dinga asoslangan urushlarning boshlanishiga borib taqaladi. Yakkaxudolik (Monoteistik) dinlarga bo‘lgan davrdagi xavfsizlik zabt etish, talon-taroj qilish harakatlariga bog‘liq bo‘lgan. Yakkaxudolik dinlari bilan birga jihod va salb yurishi kabi harakatlarning xavfsizlikka ta’siri birinchi o‘ringa ko‘tarila boshladi. Dunyoda, ayniqsa, Yevropada kuzatilgan bir tarafdan dinlararo urushlar, boshqa tomondan mazhablarning o‘zaro janglari dinni xalqaro xavfsizlikka ta’sir etuvchi elementga aylantirdi. Din bugungi kunda ham xavfsizlikning shakllanishi va ta’minlanishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Din nomidan amalga oshirilayotgan terroristik harakatlar dinlar o‘rtasidagi ziddiyatning muhim tahdidi sifatida xavfsizlik masalalariga kuchli ta’sir qiladi.

⁸ Bilal Karabulut, Küreselleşme Sürecinde Güvenliği Yeniden Düşünmek, Ankara: Barış Kitabevi, 2015, s.10.

Tarixiy jarayonda xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish ikki bosqichda amalga oshirilgan. Bu birinchi marta rimliklar tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u ziddiyt va diniy ta'sirga ega bo'lgan tushuncha sifatida birinchi bosqichni tashkil etdi. Keyinroq, o'rta asrlarning oxirida o'z o'rnnini ikkinchi bosqichga bo'shatdi.

Konsepsiyaning ikkinchi bosqichini Tomas Gobbs boshladi. Bu zamonaliv mamlakatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan super davlatning (Gobbs falsafasiga ko'ra "Leviafan") paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Qadimgi davrlarda xavfsizlik tushunchasini aniqlash ikki jihatdan qiyin bo'lgan. Avvalo, qadimgi davrlarda davlatlarning bir-biri bilan o'zaro aloqada ushlab turgan xalqaro tizim bo'lman. Yana bir sabab shuki, davlatlar xalqaro siyosiy maydonda ishtirokchi bo'lman. O'sha davrlarda faqat qo'shni imperiyalar va yunon shahar-davlatlari o'zaro aloqa qilgan xolos. Ushbu munosabatlarning eng muhim nuqtasi xavfsizlik masalasi edi.

Milliy xavfsizlikning munosib tarzda qanday ta'minlash kerakligi haqidagi tarixiy munozaralarda Gobbs, Makivelli va Russa kabi yozuvchilar davlat suvereniteti ta'sirining ancha pessimistik manzarasini tasvirlashga moyil edilar. Xalqaro tizim davlatlar undan o'z xavfsizligini qo'shnilar hisobidan ta'minlashga harakat qiladigan maydon hisoblanardi va davlatlararo munosabatlarga davlatlar doim bir-biridan foyda olishga intiladigan hokimiyat uchun kurash sifatida qaralgan.

Xalqaro munosabatlarda muhim o'rin tutadigan milliy kuch an'anaviy xavfsizlik tushunchasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Xavfsizlikning an'anaviy tushunchasiga ko'ra, milliy kuch va milliy xavfsizlik bir-biri bilan chambarchars bog'liq va ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. An'anaviy xavfsizlik yondashuvi realistlarning g'oyalari atrofida shakllandi va milliy xavfsizlik tushunchasi birinchi marta Makiavelli tomonidan ishlataldi. Umumiy ma'noda milliy xavfsizlik davlatlarning zararli tahdidlardan uzoq turish erkinligidir, deb ta'riflanishi mumkin. Milliy xavfsizlik tushunchasi bu davlatlarning xavfsizligini ta'minlash uchun ishlataladigan bir atama. Shunga ko'ra, davlat manfaatlariga xizmat qiladigan har qanday elementni ushbu davlat uchun foydali, deb ta'riflash mumkin va o'z navbatida, uning xavfsizligiga tahdid qiladigan har qanday vosita salbiy hisoblanadi. Xavfsizlik ta'riflarining asosiy nuqtasi kuch va harbiy tahdid

atrofida shakllanadi. Milliy xavfsizlik tushunchasi uning iqtisodiy, harbiy, siyosiy, texnologik unsurlarining barchasini qamrab oladi. Garchi milliy xavfsizlik elementlari alohida tahdid sifatida qaralsa ham, ular bir-biridan mustaqil bo'lmagan masalalardir⁹.

An'anaviy xavfsizlik tushunchasiga ko'ra, milliy xavfsizlik "bir davlatning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish", deb ta'riflanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlatlarning hududi xavfsiz ekanligi milliy xavfsizlik ta'minlanganini anglatadi. Davlatlar mamlakatning hududiy yaxlitligi va milliy xavfsizligini saqlash va himoya qilish uchun bir qator strategiyalarни ishlab chiqadi. Bu strategiyalarни quyida ko'rishimiz mumkin:

1. Yasha va yashat: Bu qo'shnilar bilan yaxshi munosabat o'rnatish va tinch-totuv yashash strategiyasidir.
2. Kuchlilarga qo'shilish: Zaif davlatning kuchli davlatlar yetakchiligidagi xavfsizlikni saqlashiga qaratilgan strategiya.
3. Mas'uliyatni olish: Davlatlarning kuchli gegemon tizimni tanlab, xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi.
4. Betaraflik: Doim va muntazam ravishda betaraf ekanini bildirib, turli mojaro, urush va turli tuzulmalardan uzoq turish strategiyasi
5. Kuchlar balansi: Davlatlarning kuchlar muvozanatini yaratishi va tajovuzkor siyosatning oldini olish maqsadida birlashish strategiyasi.

Sovuq urush tugashi bilan davlatlarning milliy xavfsizlik borasidagi tasavvurlari ham bir-biridan farq qila boshladi va o'zgardi. Shu sababli, davlatlar xavfsizlik siyosatini belgilayotganda globallashuv jarayonlari ta'sirida o'zgargan muvozanat va barcha boshqa elementlarni ham hisobga olishi kerak.

1.2. Realizm va liberalizm vakillarining xavfsizlikka oid yondashuvlar

Bugungi kunda xavfsizlik masalasi borasidagi munozaralar ikki tomoniga bo'lingan. Birinchisi, xalqaro tizimning tuzilishini anarxik va kengayishga qarshi ekanligini ta'kidlaydigan an'anaviy-realistik tomon. Ikkinchisi esa, xavfsizlik sohasi dunyodagi globallashuv jarayoni ta'sirida o'zgarayotganini ta'kidlab, xavfsizlik masalasida

⁹ Buzan, Barry, Is International Security Possible? New Thinking About Strategy and International Security, Ken Booth (Ed.), London, HarperCollins Academic, 1991.

yangicha yondashuvni yoqlayotgan tarafdir. Garchi ular bir-biridan farqliday ko'rinsa-da, yangi xavfsizlik sohasi an'anaviy xavfsizlik tushunchasidan ayri tarzda bo'la olmaydi.

Vestfaliya tizimi milliy davlatchilik jarayonining boshlanishi sifatida qabul qilingan va u an'anaviy xavfsizlikning asosi hisoblanadi. "Davlat - muayyan bir hududda barpo etilgan va daxlsiz chegaralarga ega hududiy yaxlitlikka ega", degan ta'rif olgan. Davlatlarning chegaralarini, hududiy yaxlitligi va suverenitetini himoya qilish, ularni saqlash uchun harbiy-siyosiy ustunlikni eng yuqori darajada ushlab turishda Vestfaliya tinchligi davlat xavfsizligi tushunchasini aks ettiradi.

An'anaviy xavfsizlikka ko'ra, davlat va xavfsizlik bir-biriga bog'liq tushunschalaridir. Xavfsizlikning an'anaviy konsepsiysi davlatga qaratilgan va harbiy xavfsizlik atrofida shakllanadi. Davlatga yo'naltirilgan an'anaviy xavfsizlikka ko'ra, xavfsizlikning asosiy maqsadi uning hududi, suvereniteti va siyosiy mustaqilligini himoya qilishdir. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy xavfsizlik davlatlar o'rtaisdagi ziddiyat va raqobatga ham bog'liq.

Umuman olganda an'anaviy xavfsizlikning beshta o'lchovi bor. Bular: tahdidlarning sababi, mohiyati, tahdidlarga qanday javob berish kerak, xavfsilikni kim va qanday ta'minlaydi, nimalarning xavfsizligi ta'minlanadi, deb tasniflanadi.

An'anaviy xavfsizlikka ko'ra, mamlakatning milliy xavfsizligiga tahdid soladigan eng katta omil bu boshqa davatlardir. Xavf tug'diradigan boshqa davlatlar odatda, mavjud vaziyatdan qoniqmaydigan revisionist ishtirokchi sifatida o'rtaqa chiqadi. Katta manfaatlarga ega bo'lgan qudratli davlatlar, millatchilik kabi muammolarga ega bo'lgan qo'shni davlatlar odatda tahdidlarning aksariyatini tashkil etadigan davatlardir. An'anaviy xavfsizlik yondashuviga ko'ra, tahdidlar asosida boshqa davlatlarning harbiy kuch salohiyati yotadi. Vujudga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat puxta o'rganilib, himoya va qarshi kurash imkoniyatlaridan foydalanishni to'g'ri baholay olish kerak. Mersxaymer tomonidan himoya qilingan tajovuzkor realizm va Jervisning qarashlarini aks ettiruvchi mudofaa realizmi an'anaviy xavfsizlik nazariyalarida muhim o'rinn tutadi.

Jervisning mudofaa yondashuviga ko'ra, hujum-mudofaa muvozanatida himoya siyosati afzal ko'rulganda, urush ehtimoli kamroq bo'ladi. Hujum siyosati qo'llaniladigan pallada urush ochilishi ehtimoli oshadi.

Jervisning optimistik mudofaa realizmiga ko'ra, mudofaa maqsadi urushni so'nggi imkoniyat sifatida ko'rish va xavfsizlik muammosini minimallashtirishdir. Xalqaro institutlar orqali hamkorlikni takomillashtirish ziddiyatlarning oldini olish usuli sifatida qaralishi mumkin. O'zaro hamkorlik bilan tomonlarning harbiy kuch ishlatish ehtimoli kamayadi va urushning oldi olinadi.

Xalqaro tizim tuzilishining anarxiyaga ega bo'lishi turli ittifoqlar vujudga kelish ehtimolidan tashqaridagi holatdir. Davlatlarning manfaatlarini yuksaltirish usuli boshqa davlatlarning kamsitilishi va cheklanishi evaziga amalga oshiriladi.

Xalqaro munosabatlar tizimida har bir davlat doimo o'z xavfsizligini ta'minlash harakatida bo'ladi.

Xavfsizlik poygasi va xavfsizlik masalasi birinchi o'rinda turishiga xalqaro tizimning anarxik tuzilishi va davlatlarni nazorat qilish uchun yuqori turuvchi organning yo'qligi sabab bo'ladi. Yana bir sabab, davlatlar boshqa davlatlarning maqsadlari to'g'risida ishonch hosil qila olmaydigan va niyatlar o'zgarishi mumkinligi sababli noaniqlik holati mavjudligidadir.

Xalqaro tizimning tuzilishi va noaniqlik muhiti tufayli har bir davlat o'zining milliy manfaatlariga mos ravishda mudofaa siyosatini yaratadi. Davlat oldida har doim urush chiqish ehtimoli xavf solib turadi va shuning uchun ular o'zlarining harbiy qudratlarini maksimal darajada ushlab turishga harakat qiladi. An'anaviy xavfsizlik tushunchasiga ko'ra, o'zaro xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim usuli ittifoq tuzishdir.

An'anaviy xavfsizlik tushunchasiga ko'ra, davlatlarning o'z mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilishga qaratilgan barcha sa'y-harakatari milliy xavfsizlik bilan bog'liq.

Buzan bu tahdidlarni davlatlarning g'oyalari, tuzilmalari va institutsiyonal aktivlariga tahdid sifatida tushuntiradi. Shuning uchun davlatlar qadriyatlariga bo'lgan ushbu tahdidlarga milliy siyosat sohasida ustuvor ahamiyat beriladi. Davlatlarning ushbu tahdidlarga javob berish yoki ularning oldini olish kuchi davlatlarning harbiy siyosatini tashkil etadi. An'anaviy xavfsizlikni tashkil etuvchi harbiy-siyosiy xavfsizlik masalalari davlatning yuqori siyosatini tashkil qiladi¹⁰.

¹⁰ Buzan, Barry, Is International Security Possible?, New Thinking About Strategy and International Security, Ken Booth (Ed.), London, HarperCollins Academic, 1991.

Realistlarning fikriga ko‘ra, davlatlar xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchilari bo‘lib, harbiy xavfsizlik masalalari iyerarxik tuzilishning eng muhim masalalarini tashkil etadi. Shu nuqtiga nazardan, “kuch” xalqaro munosabatlarni tushuntirishda eng asosiy tamoyil hisoblanadi. Xalqaro maydonda davlatlarning barqarorligi va xavfsizligini ta‘minlash nizolarni hal qilish uchun kuchdan foydalanish bilan bog‘liq masaladir. Davlatlarning qudratini oshirishga harakat qilishi barqarorlikka xizmat qilish barobarida mojarolarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli, xavfsizlik davlatlarning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Realistlarning fikriga ko‘ra, xavfsizlikni davlatlar o‘z resurslarini himoya qilishga va yangilariga ega bo‘lishga urinish sifatida umumlashtirish mumkin. Davlatlar ham shaxslar singari kuch-qudrat va manfaat izlaydi. Xalqaro munosabatlarla markaziy hokimiyat yo‘qligi sababli har bir davlat o‘z xavfsizligi o‘zi ta‘minlaydigan anarxik tizimga ega. Shunga ko‘ra, har bir davlat o‘z xavfsizldigini o‘zi ta‘minlashi uchun bir-biriga o‘xshash usullardan foydalanadi va bir xil manfaatlarni ko‘zlaydi. Shu sababli realizm xavfsizlik hodisasini tushuntirar ekan, ishonchsiz va ishonchga daxli yo‘q sifatida izohlaydi.

Realizmning Ikkinci jahon urushidan keyin o‘z ustunligini oshirgani aytilsa-da, Makiavelli, Fukidid va Gobbs tarixiy fonda realistik yondashuvlarning rivojlanishiga hissa qo‘shgan mutafakkirlardir. Ikki jahon urushi orasidagi o‘zgarishlar va qoidalar muvaffaqiyatsiz va yetarli emas, degan fikr hukmron edi. Urushdan oldin qabul qilingan idealizmning urush bilan birga qulashi realizm samarali qarashga aylanishiga muhim ta’sir ko‘rsatdi.

Birinchi jahon urushi paytida va undan keyin xavfsizlik tadqiqotlarida samarali hisoblangan idealizm Ikkinci jahon urushiga to‘sinqilik qila olmadi. Idealizm tomonidan taklif qilingan hamkorlik va umumiylar xavfsizlik masalalari o‘rniga davlatlar xavfsizligini o‘z manfaatlariga mos holda boshqara boshladи. Birinchi jahon urushidan so‘ng, Millatlar Ligasining xalqaro tizimdagи o‘zgarishlarga va umuman, tinchlikni saqlashga qaratilgan idealizm samarasini shubha ostida qoldi va bu realizmning rivojlanishiga hissa qo‘shdi.

Xavfsizlik konsepsiyasining realistik nuqtayi nazari uchta fikrga asoslanadi. Realizm nuqtayi nazaridan davlat xavfsizligi ustuvordir va davlatga yo‘naltirilgan xavfsizlik o‘z o‘rnida shaxsning xavfsizligi

davlat xavfsizligiga bog'liqligidan dalolat beradi. Realizmning xavfsizlikni anglashdagi yana bir jihat shundan iboratki, xalqaro maydondag'i ishtirokchilarning harakatlarini yo'naltiruvchi yuqori hokimiyatning yo'qligi bu tizimni anarxik ko'rinishga olib keladi. Realizmga asoslangan uchinchi nuqta bu xavfsizlikni ta'minlash va ziddiyatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kuch tushunchasidir¹¹.

Xalqaro tizimninga anarxik xususiyatiga urg'u berish xalqaro munosabatlarda xavfsizlikni belgilashda asosiy dalillardan biri bo'ldi. Neorealistlar inson omilidan ko'ra, xalqaro tizimning tuzilishiga urg'u beradi va shunga ko'ra, davlatlar o'z xavfsizligini hamma narsadan ustun qo'yadi. Valsning ta'kidlashicha, xalqaro tizimning anarxik tuzilishida asosiy va eng muhim maqsadi o'z xavfsizligidir. Valsning fikriga ko'ra, xafsizlik anarxiya muhitida birlamchi maqsad bo'lib, uni saqlab turish davlatlarga kuch va manfaat kabi boshqa elementlarga ega bo'lish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, davlatlarning omon qolishini ta'minlash boshqa barcha maqsadlarga erishishning zaruriy sharti bo'lib xizmat qiladi.

1970-yillarda realizmga qarshi tanqidlardan kelib chiqib, neorealistlar tanqidlarning haqligini qabul qilish bilan birga ularni rad etishga ham urindi.

Neorealistlar kuchning xalqaro tizimdagi ta'siriga tayanib, ushbu kuch taqsimotining xalqaro siyosatga qanday ta'sir qilishini o'rganish orqali klassik realizmning chegaralarini ochib tashlashga intildi.

Xalqaro tizimda hokimiyat har doim ham teng taqsim qilinmaydi, qudratli davlatlar har doim o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib keladi va davlatlarning o'zaro bog'liqligi ularning xalqaro tizimdagi munosabatlarini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro munosabatlarda kuch taqsimoti tizimni shakllantiradi.

Xalqaro munosabatlardagi eng muhim va qudratli davlat tizimdagi o'ziga xos siyosiyo yo'naliislarni belgilaydi va o'z ta'sir kuchini saqlab qolishga intilish orqali gegemonlikka erishish payida bo'ladi. "Hokimiyat uchun kurash har doim yakuniy ko'rinishda kuchli muvozanatni (Balance of power) keltirib chiqaradi. Chunki har qanday sharoitda ham hokimiyatni anglash mutlaq ustunlikka

¹¹ Freedman, L. (1998). International security: changing targets. Foreign Policy, 48-63.

ega bo'lmaydi va bu tabiiy ravishda mavjud kuchlar orasida muvozanat paydo bo'lishiga olib keladi."

Neorealistik nazariya nizolarni xavfsizlikning universal ta'rifi bilan tushuntirishga urindi va xalqaro maydondagi ziddiyatlarning asosiy sababi tizimning anarxik tuzilishi ekanini ta'kidladi.

Neorealizm xavfsizlik va tizimning anarxik mohiyatini quyidagicha ko'radi:

- Davlatlar xavfsizlikning asosiy qiymati hisoblanadi.
- Davlatlar xavfsizlikning asosiy obyekti bo'lgani uchun xalqaro miqyosdagi xavfsizlik juda muhim.
- Milliy xavfsizlik tushunchasi ichki xavfsizlikka qaraganda tashqi xavfsizlikka qo'proq aloqador.
- Xalqaro tizimning anarxik tuzilishga ega ekanining tabiiy natijasi o'laroq, xavfsizlik nisbiy ekanini aytish mumkin. Mutlaq xavfsizlikdan gap ochish to'g'ri bo'lmaydi.

Idealistik qarash. XVIII asrda xalqaro xavfsizlik va tinchlikning ta'minlanishiga to'qnashuvlarning oldini olishga qaratilgan qarashlar natijasida erishildi. Ushbu qarash asosida xalqaro tizimning anarxik tuzilishi qabul qilinib, urush va to'qnashuvlarga to'sqinlik qiladigan yechim takliflari o'rtaga tashlana boshlashi va hamkorlikka to'sqinlik qilmaydigan qarashlar vujudga keldi. O'zaro hamkorlik va markaziy boshqaruv tizimini tashkil etish xalqaro tartibni ta'minlash va to'qnashuvlarning sabablarini yo'q qilish imkonini beradi. Mana shu mafkuraga ko'ra, umumiy tinchlikni saqlaydigan xalqaro xavfsizlik kuchlari tashkil etilishi mumkin.

Urushning sabablari davlatlar hamkorligi bilan yo'q bo'lib ketadi, degan mavzuga asoslangan idealizm liberalizm tomonidan oziglandi. Kantning qarashlari AQSh prezidenti Vudro Vilson ta'sirida qayta shakllandi.

Vilson demokratiya, Millatlar Ligasi va ochiq diplomatiyaning kashshofи bo'lgan. O'zlarini idealistlar deb biladigan biron bir guruh yo'q. Bu aslida realistlarning o'zlariga qarshi bo'lganlarni tavsiflash uchun paydo bo'lgan tushuncha. Idealizmga ko'ra, urushlar sodir bo'lmasligi uchun yangi qoidalarga ehtiyoj bor.

Xalqaro munosabatlar liberalizmni nazariya sifatida ko'rib chiqish tinchlik va xafsizlikni ta'minlash va Birinchi jahon urushidan keyingi urushlar oqibatlarini oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida paydo bo'ldi. Realizm skeptitsizmi va liberalizm optimizmi o'rtasida ana'naviy farqlar mavjud. Liberalizm

nizo va urushlarga emas, asosan xalqaro tizimdagi tinchlik va hamkorlik masalalariga e'tibor beradi.

Liberallarning fikriga ko'ra, tashqi siyosatni nafaqat xavfsizlik, balki sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, ekologiya kabi muhim sohalar ham belgilaydi.

Idealizmga ko'ra, inson tabiatini yaxshi. Shuning uchun u o'zaro hamkorlikka moyil. Insonlar o'zini yomon tutishi sababi ularning aslida yomon bo'lganidan emas, balki institutsional qoidalarning salbiy jihatni borligidan va bu odamlarni xudbinlik qilishiga yo'l ochadi. Institutsional tuzilmalardagi noto'g'ri qonun-qoidalalar tufayli odamlar ularga qarama-qarshi xatti-harakatlarni namoyish etadi. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning eng yaxshi usuli bu xalqaro huquqni institutsionalizatsiya qilish va xalqaro tashkilotlarni tashkil etishdir. Huquqiy me'yorlarga asoslangan xalqaro tashkilotlar xavfsizlik kafolati bo'ladi.

Liberal qarashning muhim vakillaridan biri Vudro Wilson so'zlariga ko'ra, demokratiya orqali mamlakatlar urushining oldini olishi mumkin. Uning fikricha, demokratik hukumatlar va demokratiyanı kuchaytirish dunyoda tinchlik o'rnatilishiga olib keladi. Liberal nazariyalarga ko'ra, hamkorlik realizmnинг mudofaa nazariyalaridan ham muhimroq. Liberallarning fikri bo'yicha davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi. Shu sababli ular xalqaro tizimning anarxik tuzilishi kuchsizlanishini ta'kidlaydilar.

1.3. Global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik: tushuncha va xususiyatlari

Har qanday tadqiqot ishi bayon etilayotgan masalaning mohiyatiga mos keluvchi, o'zaro uyg'un tushunchalar majmuyiga ehtiyoj sezadi. O'rtayer dengizi hamda mazkur mintaqaning Misr kabi yirik davlatlari tomonidan yuritilayotgan xavfsizlik siyosati ham bundan mustasno emas. Vaholanki, MAR xavfsizlik muammosini hal etishda, avvalo, o'zining milliy manfaatlarini ta'minlash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Bugungi kunga kelib global, mintaqaviy va milliy xavfsizlikni ta'minlash muammolari yangicha mazmun kasb etmoqda. Davlatlar, mintaqqa va qit'alar tobora umumjahon jarayonlarga hamda jadallahish borayotgan ilmiy-teknika taraqqiyotiga jalb etilmoqda, ammo buning zamirida keskinlashib borayotgan

ijtimoiy, iqtisodiy va xomashyo resurslariga doir muammolar tobora global tus olmoqda¹².

Milliy xavfsizlikning umumiy nazariysi “xavfsizlik”, “global xavfsizlik”, “mintaqaviy xavfsizlik”, “milliy xavfsizlik, “manfaat”, “tahdid”, “geosiyosat”, “geostrategik mintaqa” va “geosiyosiy mintaqa” kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Xavfsizlik makon va zamон kabi chegara bilmas umumqamrovli qadriyat sifatida e’tirof etilmoqda.

Obyektiv va subyektiv omillar zamirida yaratilgan qator tadqiqot ishlarida xavfsizlik muammosiga alohida e’tibor qaratilgan. XX asr oxiridagi hodisalar va 2001-yilgi AQSh fojiasi xalqaro geosiyosiy vaziyatning tadrijiy rivojida, xalqaro munosabatlar tizimi hamda xalqaro iqtisodiy, siyosiy va harbiy kuch markazlarining joylashuvida tub burilish yasadi. Ikki qutbli olamning barham topishi, insoniyatni global bo’shliq va boshboshoqlik hukmron bo’lgan xavfli chegara tomon yetakladi.

Siyosiy adabiyotlardagi “milliy xavfsizlik” tushunchasining ko‘plab ta’riflari mazkur holatni aniq vogeliklar tahlili asosida ochib berishga bo’lgan urinishlarni umumlashtiradi. Xususan, manbalardan birida milliy xavfsizlik – “xavfsizlik obyektining xavfdan, ya’ni xususiyatlarining yomonlashuvidan xoli bo’lgan holatidir”¹³; E.Sakunov maqolasida xavfsizlik – “millatning boshqa davlatdan bo’lgani kabi, o’z davlatidan kelib chiquvchi hamda jamiyat ravnaqiga xavf soluvchi ichki tahdidlarga qarshilik ko’rsatishda kerakli iqtisodiy va harbiy qudrat bilan ta’minlanganlik holatidir”¹⁴; N.Ushakov ta’kidlashicha, u –“tashqi xavfdan xoli real imkoniyat”¹⁵; yana bir manbada –“har qanday ko’rinishdagi erkin dunyo normalarining buzilishi yoki xalqlar xavfsizligiga rahna soluvchi tahidlardan xoli bo’lgan xalqaro munosabatlardir”¹⁶;

¹² Хозирги замон сиёсий фанларда глобаллашув нуқтаи назаридан «хавфсизлик» тушунчасига мос келувчи, миллий, мінтақавий ва глобал хавфсизликнинг у ёки бу кирраларини очиб беришга бағишилган катта ҳажмда адабиётлар мавжуд. Матнга каранг., м-н.: Beyond the earth summit: Developing an energy-efficient world. Hearing before the Comm. on gov. affairs, US Senate, 102d Congr., 2d sess., May 21,1992.- Wash.: Gov. print. off., 1993.-Р. 37-39; Хозин Г. Глобализация международных отношений: Объективная тенденция или стратегия США // США-Канада: Экономика, политика, культура.- М., 2000.- № 1.- С. 65-79.

¹³ Периодический обзор ООН.- 1991.- Т. XIV.- С. 96-97.

¹⁴ Скакунов Э. Всеобъемлющая безопасность: Модель перестройки международных отношений // Советское государство и право.- М., 1987.- № 5.- С. 104.

¹⁵ Ушаков Н. Проблемы теории международного права.- М.: Наука, 1988. - С. 15.

¹⁶ Дипломатический словарь.- М.: Наука, 1985.- Т. 2.- С. 190.

A.Buryak asarida “milliy xavfsizlik-millatning turmush darajasini pasaytirish hamda uning muhim hayotiy manfaatlari putur yetkazishga qaratilgan ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashdagi holati ko‘rsatkichlaridir”¹⁷ deyiladi. Ta‘riflar ko‘p va ularning har biriga u yoki bu jihatdan qo‘shilish mumkin.

“Milliy xavfsizlik” tushunchasiga nisbatan to‘laqonli sanalgan ta‘riflardan yana biri A.Vozjenikov monografiyasida aks etgan: “Milliy xavfsizlik deganda, milliy qadriyatlar, manfaatlari va turmush tarziga real xavf soluvchi ichki va tashqi tahdidlar mavjud bo‘limgan yoki bartaraf etilgan, ya’ni shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlari ta‘minlangan davlat holati tushuniladi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy xavfsizlik-alohida shaxs, ijtimoiy guruh, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlari, shuningdek, milliy qadriyatlar va turmush darajasining siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ekologik, texnik va h.k. ko‘rinishlardagi real ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlidir”¹⁸.

Milliy xavfsizlik “milliy manfaat” tushunchasiga bog‘liq bo‘lib, uning zamirida shakllanadi. Millatning xalqaro muhitga moslashuvini ta‘minlash, milliy o‘zligini saqlash, qadriyatlarini himoya qilish, umuman, milliy xavfsizlikni ta‘minlashda davlatning o‘rni benihoya katta¹⁹.

Xalqaro institutsiyal tizimlar doirasidan tashqari davlatlar ittifoqining shakllantirilishi mintaqaviy va global miqyosdag‘i muayyan muammolarni tezkorlik bilan hal etish imkonini beradi. Ayni paytda, kollektiv va muvofiqlashtirilgan ko‘p tomonlama mexanizmlar doirasida global va mintaqaviy xavfsizlik muammolarini hal etish hamda zamonaviy tahdid va chaqiriqlarga qarshi kurash samaradorligiga erishish mumkin²⁰.

Bularning barchasi, O‘rtayer dengizi mintaqasiga ham tegishli. Makromintaqaviy, subkontinental, kontinental va global xavfsizlik darjasasi O‘rtayer dengizi mintaqaviy jarayonlarining ishtirokchilarini va mazkur mintaqqa bilan chegaradosh hududlar o‘rtasidagi o‘zarо siyosiy hamjihatlik darjasasi, shuningdek, ularning mintaqaviy

¹⁷Буряк А. Национальная безопасность // <http://national-secur.narod.ru/#2.1>.

¹⁸Возженников А. Национальная безопасность: Теория, политика, стратегия.- М., 2000.- С. 55.

¹⁹Мадаминова Д. Глобал ва миллий хавфсизлик тушунчалари диалектикаси. “Замонавий халқаро муносабатларда хавфсизлик ва барқарорлик масалалари” мавzuидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами.-Тошкент, ЖИДУ., 2007.-Б.27.

²⁰Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов – Т.: Шарк, 2005.-С.127-128.

jarayonlardagi kabi jamoatchilik munosabatlarining ham kechishiga bog'liq.

Tajriba mintaqaviy miqyosga olib chiqilayotgan ko'plab davlatlararo ziddiyatlarni kuch ishlatish yo'li bilan hal etish xavfi tug'ilayotganligini ko'rsatmoqda. Yashirin xavf real xavfga, so'ngra, muayyan davlat yoki mintaqaga hayotiga xavf soluvchi tahdidiga aylanishi mumkin. Zero, tahdidlar davlatlar guruhi, alohida davlat va mintaqalar yoki ularning turli xildagi ichki siyosiy kuchlari o'rtaсидаги real munosabatlari xususiyatidan kelib chiqadi.

"Mintaqaviy xavfsizlik" deganda, bu - dunyoning u yoki bu mintaqasidagi davlatlararo munosabatlar tizimi bo'lib, bunda davlatlar o'z iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot shakli va yo'llarini kollektiv tarzda belgilash hamda umumiy xavf-xatarlarga hamkorlikda ta'sir ko'rsatish imkonini ekanligi tushuniladi. Mintaqaviy xavfsizlik xalqaro xavfsizlikning tarkibiy va ajralmas qismi, shuningdek, milliy xavfsizlikni ta'minlash shakli hamdir. Davlatlarning mintaqaviy guruhlarga birlashuvni, odatda, ixtiyoriy ravishda hamda tinchliksevarlik maqsadlarida amalga oshiriladi.

Hozirgi zamон xalqaro amaliyotida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Afrika Ittifoqi (AI), Arab davlatlari Ligasi (ADL) va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari Uyushmasi (ASEAN) kabi an'anaviy mintaqaviy xavfsizlik tizimlari bilan bir qatorda, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) va Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT) kabi yangi mintaqaviy institutlar ham shakllanmoqda.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari, tizimi va mexanizmlari haqida so'z yuritishdan avval, muayyan mintaqaga doirasiga kiruvchi hududlarni aniqlab olish lozim²¹. Bunda hududlarni belgilangan nuqta, ya'ni mintaqaga "markazi"ga yaqinligiga ko'ra guruhlarga ajratishning an'anaviy geografik hamda ularning "iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashganlik" uslubidan²² foydalanish maqsadga muvofiq.

Shu jihatdan O'rtayer dengizi mintaqasi maydoni mazkur dengiz akvatoriysi chegaralaridan chiqib, Qora dengiz bo'yliari,

²¹Колосов В., Мироненко Н. Геополитика и политическая география.- М.: Аспект-пресс, 2001.-438с; Jay P. Critical Theory, American Literature and Border Studies // <http://enteract.com/~pjay/border1.html>; World Wide Geography // <http://wwg.far.ru>; Проблемы фрагментации геопространства.-М., 2001.

²²Стародубов В. Супердержавы XX века: Страгетическое противоборство.- М.: Олма-Пресс, 2001.-С.103; Уткин А. Мировой порядок XXI века.- М., 2001.-С. 501-503.

Afrika va Bolqon hududlarini "qamrab" olganligini, bunda mintaqasi davlatlarining turli darajada jalb etilganligi sabab, mintaqaviy siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning turlicha kechayotganligini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, A.Kuzmicheva kabi olimlar O'rtayer dengizining Yaqin Sharq va Yevropa kabi ikki asosiy tarkibiy o'zagini mintaqaviy xavfsizlikning o'zaro bog'liq bo'lgan mustaqil tizim osti birliklari sifatida tilga oladilar²³.

V.Manilov va YA.Volkovlar u yoki bu mintaqani tadqiq etishda, uni muhim hayotiy manfaatlari mujassamlashgan makon sifatida e'tirof etuvchi davlat siyosati nuqtayi nazaridan o'rganganlar²⁴. Ammo, mazkur yondashuv ahamiyatga molik ayrim muhim jihatlar e'tibordan chetda qolgan biryoqlama xususiyatga ega. Mintaqaviy xavfsizlikni xalqaro va ichki aktorlarsiz, ya'ni yagona aktor sifatidagi davlat misolidagina ko'rib bo'lmaydi²⁵.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muayyan mintaqasi doirasidagi chigal muammolarga to'liq va keng miqyosda quyidagicha urg'u berish mumkin:

(1) mintaqasi davlatlari va butun mintaqaviy hamjamiyatni tashqi tahdidlardan himoyalovchi milliy xavfsizlikni ta'minlash;

(2) mintaqasi davlatlari o'rtasida ba'zida yuzaga keluvchi ikki va ko'p tomonlama ziddiyatlarni hal etish;

(3) o'z mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda harbiy vosita, iqtisodiy kuch va boshqa shaklda bosim o'tkazish imkoniga ega bo'lgan mintaqanining "birinchi darajali" yetakchilaridan himoyalanish;

(4) mintaqaning iqtisodiy jihatdan nisbatan taraqqiy etgan davlatlari tomonidan narx-navoga ta'sir o'tkazish borasidagi tahdidni bartaraf etishga qaratilgan moliyaviy-iqtisodiy va xomashyo xavfsizligi;

(5) mintaqaviy transport va kommunikatsiya xavfsizligi (quruqlik marshrutlari, xalqaro kema qatnovi va gaz quvurlari kabilar)²⁶.

²³Кузьмичева А. «Внешнее измерение» сотрудничества Европейского союза по вопросам безопасности и обороны // МЭМО.- М., 2007.- № 3.- С. 44-49; Katz Y. IDF modifying Arrow deployment in the North // The Jerusalem Post.- 2007.- August, 23.

²⁴Манилов В. Безопасность в эпоху партнерства.- М.:Терра, 1999; Волков Я.Геополитика и безопасность в современном мире.- М, 2000.-491с.

²⁵Меллиндер Й. ООН и ее участие в вопросах региональной безопасности – Стокгольм, 2002. –С.30.

²⁶Миростроительство после окончания холодной войны // США-Канада.- М., 2000.- № 8.- С. 12-18; Пефтиев В. Развивающийся мир: Глобализация или регионализация // МЭМО.- М., 2000.- № 7.- С. 31-35.

Shu o'rinda, ayrim tadqiqotchilar davlatning o'z qadriyatlarini tashqi tahdidlardan (mavjud holatda xavfsizlik deganda, davlatning o'z raqibiga nisbatan qudratli bo'lish imkonini tushuniladi) himoyalash maqsadida asosiy e'tiborni milliy xavfsizlik masalasiga qaratsalar²⁷, boshqalar iqtisodiy qudratga erishish masalasiga alohida urg'u beradilar (bunda davlat iqtisodiyotiga tahdid soluvchi har qanday manba, bir vaqtning o'zida davlat xavfsizligiga ham putur yetkazishi tushuniladi)²⁸. Shunday qilib, mintaqaviy xavfsizlik jarayonining har bir vakili xavfsizlikni shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib hamda boshqalardan farqli ravishda tasavvur etgani bois, xavfsizlikni yagona tushunchaga ega, deb bo'lmaydi.

Mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi tahdidlarga ajratish mumkin. Bunda ichki omillar qatoriga:

- mafakura va ma'naviyatda yuzaga kelgan bo'shliq hamda uning turli diniy va ekstremistik g'oyalar bilan to'ldirilishi;

- aholi orasida ishsizlik va qashshoqlikning avj olishi natijasida turli xil radikal va agressiv g'oyalarning tarqalishi;

- mintaqaning ayrim davlatlari o'z hududini to'liq himoya qila olmasligi oqibatida bir davlatdan ikkinchi davlat hududiga uyushgan jinoyatchilik va separatizmning tarqalishi;

- korrupsiya va poraxo'rlikning avj olishi;

- mintaqadagi hududiy, toza ichimlik suvi muammolari kiradi²⁹.

Biron mintaqqa va uning davlatlari xavfsizligiga rahna soluvchi tahdidlarni o'rganishda geosiyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatlar tahlili bilangina cheklanmay, demografik va siyosiy omillarni ham e'tiborga olish zarur. Shu o'rinda, nisbatan kuchsiz qutbning o'z harbiy salohiyatini oshirish yo'li bilan mintaqadagi kuchlar muvozanatini tenglashtirishga bo'lgan intilishini ham nazarda tutish lozim. Ammo, kuchlarning mazkur shakldagi muvozanatlashuvi mintaqaviy xavfsizlikning zaiflashuvi va oshkora tahdidning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Xavfsizlik tushunchasining bu kabi keng ma'noda qo'llanilishiha sabab, XX asrning 90-yillaridan hozirga qadar xavfsizlik

²⁷ Бельков О. О военной безопасности // Власть.- М., 2003.- № 10.- С. 41-51.

²⁸ Кувалдин В. Глобализация, национальное государство и новый миропорядок//Фонд «Российский общественно-политический центр». – М., 2002.- № 2.- С.12-19; Капто А. Глобализация.- М.:ИСПИ РАН, 2002.

²⁹ Сайдолимов С.Т. Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлашнинг айрим жиҳатлари // Халқаро муносабатлар, №1, 2004, Б. 21.

borasida tadqiqot olib borayotgan olimlar o'rtasidagi ko'p yillik nazariy babs va munozaralar natijasidir³⁰. Hozirgi zamon xalqaro-siyosiy tendensiyalarini hamda global xavfsizlikka tahdidlarni e'tiborga olib, sayyoramizning deyarli barcha mintaqalariga daxldor bo'lgan omillarni mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solayotgan asosiy xavflar yig'indisi ko'rinishida shakllantirish mumkin.

Harbiy tahdidlar. Harbiy sohadagi tahdidlar keskin qisqarayot-ganiga qaramay ularning ayrimlari saqlanibgina qolmay, balki yanada takomillashmoqda. Qurolli kuchlar ustidan yetarli davlat va jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi, harbiy kontingentning milliy hukumatga bo'ysunmasligi, shuningdek, harbiy-siyosiy xavfsizlik to'g'risidagi harbiy tamoyil va gumanitar huquq normalariga amal qilmaslik holatlari fundamental tahdidlarning birinchi guruhini, mintaqaviy va submintaqaviy miqyosda qurollarni muvozanatlashmagan va me'yорidan ortiq takomillashtirish kabi holatlars esa ikkinchi guruhini tashkil etadi.

Siyosiy tahdidlar odatda, gegemonlikka da'vegarlik, agressiv millatchilik, davlatlararo va ichki ziddiyatlarni kuch ishlatish yo'li bilan hal etishga bo'lgan urinishlar oqibatida kelib chiqadi. Davlat va demokratik institutlar faoliyatidagi sustkashlik, davlat qonunchiligining to'liq shakllantirilmaganligi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda.

Mintaqa va xalqaro jamoatchilikning ularga qarshi tezkor ta'sir ko'rsata olmasligi hamda alohida davlat yoki davlatlar guruhi (mintaqa) tomonidan BMT doirasida hamda xalqaro shartnoma va bitimlar asosidagi majburiyatlarini buzish holatlari ham tahdidlarni avj oldirmoqda.

Hududiy yaxlitlikka tahdid solayotgan separatistik harakatlar hamda milliy hokimiyat va mintaqaviy kollektiv xavfsizlik strukturalarini kuch ishlatish yo'li bilan o'z taqdirini o'zi belgilash da'vosi natijasida kelib chiqayotgan etnik mojaro va ziddiyatlar mintaqqa va mintaqqa davlatlarini ikki tomonlama jadal kurash olib borishga majbur etmoqda. Alohida davlatlarning mintaqaviy yetakchilikni qo'lga kiritishga qaratilgan urinishlari ham muayyan xavf tug'dirmoqda.

³⁰Назарий баҳсларнинг фаол иштирокчилари каторида неореалистик ёндашув тарафдорлари Б.Бузан, Н.Кроуфорд, Х.Хафтендорн, Э.Колоджей, Д.Болдвин, Ч.Купчен, А.Картер, У.Перри, Д.Штейнбрунер, шунингдек, халқаро муносабатлар назариясининг бошқа оқим намоёндалари Р.Уилман, Д.Тачман Мэтьюс, Т.Моран, Б.Робертс, М.Вайнер ва Б.Кроуфорд кабилар иштирок этганлар.

Davlat va fuqarolik jamiyatiga qarshi tahdidlar. Bu sohadagi me'yorlarning buzilishi mintaqada ekstremizm hamda ichki va davlatlararo nizolarni avj oldirmoqda. Natijada “zo'ravonlik separatizmi”, ommaviy emigratsiya/deportatsiya, ba'zida esa, etnik tozalikka olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy sohadagi tahdidlar. Muayyan mintaqada davlatlaridagi iqtisodiy muammolar tezkor ravishda populistik va millatchilik kayfiyati bilan yo'g'rilgan o'zgarishlarga sabab bo'lувчи ijtimoiy tanglik va ommaviy tartibsizliklar manbayiga aylanishi mumkin. Mintaqada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanglik esa, o'z navbatida makromintaqaviy va global miqyosdagi hayotiy tizimning yemirilishiga olib kelishi tabiiy.

Muayyan davlatda ishsizlik va inflyatsiya darajasining oshishi mintaqaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, mintaqada va davlatlar o'rtaida iqtisodiy nomutanosiblik aniqlanib, o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish yo'lida bir davlat tomonidan ikkinchisiga nisbatan iqtisodiy bosimning o'tkazilishi (masalan, suv va elektr energiyasi ta'minotini to'xtatish, transport vositalaridan foydalanishni rad etish) mintaqaviy barqarorlik hamda mintaqada yetakchilar o'rtaida siyosiy ishonchning izdan chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ekologik tahdidlar davlat va umuman mintaqada xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazib, ular orasida: ekologik fojialar; yadroviy va kemyoviy chiqindilar bilan ifloslanish; tabiiy resurslardan besamar foydalanish; demontaj va qurollarni tajribadan o'tkazishda zaharli moddalarni noo'rin qo'llash; tuproqning yemirilishi va ifloslanishi kabilar alohida e'tiborga molik.

Jahon tajribasiga asoslangan holda quyidagi elementlarni mintaqaviy xavfsizlik mexanizmlariga kiritish mumkin:

1. Mazkur sohadagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asosini yaratishga xizmat qiluvchi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi Kollektiv shartnoma (bitim, pakt). Odatda, unga davlatlararo faoliyat, shuningdek, davlat tuzilmalari (hukumat, TIV, MV, IIV) va jamoatchilik (NHT) tashkilotlarining hamkorlik prinsiplari kiritiladi.

2. Mintaqada davlatlarining turli tashkilotlari o'rtaida bitimlar. Mintaqaning harbiy xavfsizlikka oid mudofaa masalalarini hal etishda, odatda, mudofaa vazirliklarining hamkorlikdagi faoliyatiga doir davlatlararo shartnomaviy akt imzolanadi. Bunga transmilliy xavf-xatarlarga qarshi kurashda TIV (hamkorlikning siyosiy-

diplomatik qirralari), maxsus xizmat vakillari (maxsus axborot almashinuvi, hamkorlik operatsiyalari) va huquqni muhofaza qilish organlari (milliy politsiya, prokuratura va Interpol doirasidagi hamkorlik) rahbarlari darajasidagi davlatlararo hamkorlik faoliyati misol bo‘ladi.

3. Mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hukumat va idoralalararo kollektiv hamkorlik doirasida quyidagilardan keng foydalaniladi:

-mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini belgilashga doir siyosiy maslahatlar;

-mudofaa vazirliklari darajasidagi hamkorlik operatsiyalari;

-harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik kabi sohalardagi xavfsizlikni ta’minalashda mas’ul boshqarma rahbarlari uchrashuvi;

-hamkorlikdagi axborot-tashviqot, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-xavfsizlik muammolarini kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan ilmiy-amaliy va ekspert faoliyati (xalqaro hamkorlik elementlari asosida) hamda milliy hokimiyat va mintaqaviy xavfsizlikning kollektiv tizimlariga beriladigan tavsiyalarni bir xilda ifodalash.

-moliyaviy, iqtisodiy, energetik va transport-kommunikatsiyasi kabi sohalardagi xavfsizlikni ta’minalashda milliy banklar, iqtisodiyot vazirliklari va boshqa milliy institutlar miqyosidagi hamkorlik³¹.

4. Hamkorlikni institutsionallashtirish hamda mintaqaviy xavfsizlikning tashkiliy strukturasi, huquqiy bazasi, moliyaviy, harbiy, siyosiy-diplomatik va iqtisodiy resurslariga ega bo‘lgan jamoatchilik tuzilmalarini yaratish.

5. Umuman, regional institutlar, xususan mintaqqa davlatlari ning xalqaro va mintaqalararo tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligiga asoslangan mazkur yo‘nalish globallashuv sharoitidagi o‘zaro bog‘liqlikning muhim elementlaridan biri sanaladi.

6. Muayyan mintaqqa va uning xavfsizlik institutlari xavfsizligiga tahdid solayotgan omillarga ta’sir ko‘rsatuvchi tarkibiy-tashkiliy tizimlarga ega chegaradosh mintaqqa va davlatlar bilan hamkorlik qilish.

Darhaqiqat, mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish borasidagi hamkorlikning mazkur mexanizm va shakkiali absolyut emasligi bois, ular muayyan mintaqqa va uning tarkibidagi davlatlar

³¹Mazkur yo‘nalish 2008 yilgi xalqaro moliyaviy inqirozning yuzaga kelishi natijasida milliy va mintaqaviy bozorlarni global inqirozlar tahlikasi va oqibatlaridan himoyalash maqsadida faollashdi.

guruhining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zgarishi mumkin.

Umuman olganda mintaqaviy xavfsizlik muammolari mintaqada davlatlarining kollektiv qarorlari asosida hal etilmog‘i lozim. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mintaqalarida, xususan O‘rtayer dengizida xavfsizlikni ta’minlashning ko‘p bosqichli arxitekturasi shakllangan³².

Ayni paytda, uning mexanizmlari samaradorligi ko‘zlangan maqsaddan yiroqligiga qaramay, ushbu tizimlarning amalda faoliyat yuritayotganligini tan olish kerak. Geosiyosi, harbiy va energetik sohalardagi surf-xarajatlar, mavjud xavfsizlik tuzilmalari o‘rtasidagi raqobat va ularning faoliyatidagi o‘xshashlikka qaramay, mintaqaviy birlashmalar murakkab xalqaro muammolar yuzasidan yagona to‘xtanga kelibgina qolmay, balki amalda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash imkoniga ham ega.

Shu o‘rinda xalqaro xavfsizlikning ko‘plab mintaqaviy tizimlari faoliyati tahlili, global va mintaqaviy rivojlanish muammolari, shuningdek, amaliy faoliyatga doir siyosiy qarashlarda yetarli kelishuvlarga erishilmaganligini ko‘rsatmoqda. Zero, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning amaliy mexanizmlarini yaratishda, mazkur “mintaqaviy makon”ga kiruvchi davlatlarning kollektiv xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarga qarshi kurashga qaratilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan siyosat haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish talab etiladi.

Xalqaro xavfsizlik milliy xavfsizlikdan farqli ravishda, davlat xavfsizligining boshqa davlatlar va umumjahon xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini e’tirof etadi³³.

Xalqaro tajriba va yangicha siyosiy tadqiqotlarga asoslanib, mazkur kategoriya tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin: global xavfsizlik - bu umumjahon tinchligining buzilishini istisno etuvchi, jahon hamjamiyatining ijtimoiy-siyosiy, moliyaviy-iqtisodiy va ma’naviy-gumanitar sohalardagi barqaror va mustahkam rivojini kafolatlovchi hamda davlatlar va davlatlar

³²Хусусан мазкур миңтакада - НАТО, ЕИ, ЕХХТ, АДЛ ва АИ каби катор субмиңтакавий, миңтакаларро ва макромиңтакавий хавфсизлик тизимлари, шунингдек, Европа, Африка ва Яқин Шарқининг тегишли, у ёки бу масала юзасидан ўзаро ҳамкорлик килувчи тизимлари (Шимолий Африкага хос) фаолият юритмоқда.

³³Манилов В. Угрозы национальной безопасности // Военная мысль.- М., 1996.- № 1; Прохоров А. Национальная безопасность.- М.: РАГС, 1998; Возжеников А.Национальная безопасность: теория, политика, стратегия.-М.: РАН. ИИОН, 2000.- С. 302-314.

guruhi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, harbiy mojaro va urush harakatlarini cheklovchi shart-sharoitlar yaratilgan xalqaro munosabatlар holatidir.

So'nggi yillarda geosiyosiy tarkibning xalqaro global jarayonlardagi roli sezilarli ortdi. Mazkur holat ko'p jihatdan ikki dunyo va dunyoqarash o'rtasida murosasiz kechgan kurash va g'oyaviylikka asoslangan "ikki qutbli" olamning barham topishi bilan xarakterlanadi. Mazkur tizimning yakun topishi natijasida xalqaro miqyosda g'oyaviy qadriyatlar o'rnini davlat va xalqlarning tashqi siyosiy ustunligi, hamkorlik mazmuni, ittifoq va koalitsiyalar tuzishni belgilovchi pragmatik geosiyosiy omillar egalladi.

XXI asr boshlariga kelib, geosiyosiy jarayonlar axborot texnologiyalari ta'siri ostida yangicha mazmun kasb etdi. Geosiyosiy makonning axborot oqimlari bilan "to'yinishi" kuzatilmoxda: yuz millionlab kishilar bir vaqtning o'zida turli xildagi geosiyosiy va informatsion makonning turli xildagi nuqtayi nazar va yondashuvlarini qabul qilish orqali xalqaro miqyosdagi voqeliklarga daxldor bo'lmoqdalar. Natijada, siyosiy va global xavfsizlik masalasiga bag'ishlangan qarorlar qabul qilishda xalqaro jamoatchilik fikri va dunyoqarashi shakllanmoqda.

Global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik tizimida harbiy omil muhim rol o'ynaydi. Harbiy kuch uyg'unligi xalqaro geosiyosiy maydonda sezilarli siljishlarni boshdan kechirib, milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikning iqtisodiy, moliaviy va ekologik omillari o'rtasidagi o'zaro mutanosibligida o'zgarishlar kuzatildi. Bular xalqaro tajribaning harbiy-siyosiy xususiyatiga muayyan o'zgarishlar kiritib, harbiy xavfsizlik muammosini yangidan tashkil etishga ehtiyoj sezayotganligini anglatadi.

Shu bois, milliy xavfsizlik masalasiga kompleks yondashuv talab etiladi. Jahonda o'zaro bog'liqlikning avj olishi, mazkur vazifaning mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik doirasidagi mantiqiy rivojiga zamin yaratadi. Uning boshlang'ich nuqtasini milliy manfaatlarni amalga oshirish va xalqaro jarayonlarga ta'sir ko'rsatishda davlat qudratini nafaqat harbiy kuch, balki siyosiy, iqtisodiy va ekologik kabi tarkibiy tuzilmalar tashkil etishi haqidagi g'oya tashkil etadi.

Ammo, bu bilan xavfsizlikka tahdidlarning tasnif va ko'rinishlari nihoyasiga yetmaydi. Odatda, tahdidlarning daraja va xususiyatlari konkret voqelik asosida aniqlanadi (1-ilova). Masalan, 2008-2009 yillarda jiddiy tus olgan xalqaro iqtisodiy inqiroz davrida milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy

omillar ortidan moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy masalalar zamirida yuzaga keluvchi siyosiy, geosiyosiy va geoijtisodiy vaziyatning tahlika ostida qolganligi kuzatildi.

II-jahon urushidan keyingi yillarda, jahonda davlat xavfsizligining xalqaro xavfsizlik bilan nomutanosib ekanligi borasidagi fikrlar shakllandi. U “siyosiy realizm” (Makiavelli, Gobbs, Nibur, so’ngra - Morgentau, Kissindjer va Bjezinskiy) nomi bilan yuritiluvchi Amerika mакtabida ham yetakchilik qilar edi. Unga ko’ra, davlat ham shaxs kabi xavfsizlikni ta’minalash borasidagi ehtiyojlari hamda milliy maqsad va manfaatlarini aniqlashga qaratilgan oqilonma maqsadlarni ko’zlaydi.

Neorealistlarning nuqtayi nazariga ko’ra, milliy xavfsizlik va milliy manfaatlar xalqaro tizimning tarkibiy tuzilmalari bilan chambarchas bog’liq holda rivojlanadi. Ammo milliy xavfsizlikni ta’minalashning bosh omili sifatida kuchlar nisbati alohida o’rin tutadi.

Jumladan, siyosiy realizm namoyandalardan biri AQShlik olim Kolin Greyning fikricha, dunyo miqyosidagi harbiy salohiyatni yuksaltirish va yadroviy urushga hozir bo’lishlik AQSh milliy xavfsizlik siyosatining asosini tashkil etmog’i lozim³⁴. 1997 yilda AQSh Prezidenti tomonidan ushbu davlatning kelgusidagi strategik yadroviy salohiyatini baholovchi maxfiy hujjatning imzolanganligi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Unga ko’ra, yadroviy urush davrida hech bir davlat AQShga bas kela olmasligi hamda ularga qarshi qaratilgan har qanday kimyoviy va bakteriologik quroqla javoban yadroviy qurol ishga tushirilishi lozimligi uqtiriladi³⁵.

Ta’kidlash joizki, siyosiy realistlar xavfsizlikni ta’minalashda kuch ishlatish deganda, harbiy kuch omilinigina tushunmaydilar. Ular harbiy kuchdan tashqari, siyosiy, iqtisodiy va axborot kabi boshqa omillarni ham milliy maqsadlarga erishish vositasi sifatida e’tirof etadilar.

G.Morgentau “xalqaro siyosat – bu hokimiyat uchun kurashdir” deydi. Uning fikricha, “oxir-oqibatda erkinlik, xavfsizlik, taraqqiyot va shaxsiy kuchga ega bo’lishga intilayotgan davlat arboblari va xalqlar o’z maqsadlarini diniy, falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy timsollar ko’rinishida tasavvur etadilar. Ammo har safar ular o’z maqsadlariga erishish yo’lida xalqaro siyosiy usullardan

³⁴ Gray C. The Geopolitics of Super Power. Lexington. The University of Kentucky. Press 1988/

³⁵ Благие начинания и реальное дело//Независимое военное обозрение.-1997.-№47.

foydalanadilar va bunda hokimiyat uchun kurash olib boradilar. Hokimiyat uchun kurash zamon va makonda universal, tarixiy tajribaning mahsuli bo'lmish mazkur haqiqatni esa inkor etib bo'lmaydi”³⁶.

Shu asosda, davlat xavfsizligi uning shaxsiy kuchi va xalqaro maydonda kuch uchun olib boriladigan kurashga bog'liq bo'lib, u davlat ichida hokimiyat uchun kechuvchi kurash ko'rinishida namoyon bo'ladi, deyish mumkin. Mazkur fikrni AQShlik “realistlar”ning yana bir mashhur ta'rifi bilan to'ldirish mumkin: tashqi siyosiy maqsadlar milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda muayyan kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim³⁷.

Shunga qaramay, xavfsizlikning quyidagi ikki xil o'lchami mavjud:

“Vertikal funksiyalar”ga shaxs va ijtimoiy guruh (konfessional, etnik, demografik kabi belgilariiga ko'ra) xavfsizligi, davlatning ichki mintaqaviy va jamoatchilik xavfsizligini, shuningdek, davlat xavfsizligi, milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni kiritish mumkin.

Shaxs, ijtimoiy guruh, mintaqqa, jamiyat va davlatning yaxlit holdagi xavfsizligi, milliy xavfsizlikning yadrosini tashkil etadi. Shunga ko'ra, milliy xavfsizlik-shaxs va jamiyat ravnaqi, davlat rivoji uchun qulay sharoitlar yaratuvchi, uning hududiy yaxlitligi va suverenitetini himoya qiluvchi omillar yig'indisi hamda tashqi tahdidlar e'tiborga olingen va milliy manfaatlarga tayangan holda samarali ta'sir ko'rsatish imkonidir.

Mintaqaviy komponentlar guruhi yig'indisi (I.A. Karimov tomonidan shakllantirilgan “mintaqaviy xavfsizlikdan yalpi xavfsizlik sari” tezisida) xavfsizlikning global xususiyatini shakllantiradi. Boshqacha aytganda alohida davlatlar milliy xavfsizligi va mintaqaviy xavfsizlik ham global xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismi sanaladi.

“Gorizontal o'lcham” xavfsizlik sohasining shaxs, jamiyat va davlat faoliyatining asosini tashkil etuvchi ma'naviy, etnomadaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, informatsion va harbiy sohalardan iborat.

³⁶ Алексеева Т. Контуры насильственного мира // Принципы ненасилия.- М., 1991.- С. 205-206.

³⁷ Xavfsizlikni ta'minlashning kuch mezoni xususidagi tezisga MARning O'rta Yer dengizi va Yaqin Sharq mintaqaviy xavfsizligini ta'minlash siyosati nuqtai nazaridan dissertatsiyada maxsus to'xtalib o'tiladi.

Xavfsizlikning umumlashgan tushunchasini ijtimoiy subyektlar manfaatlarini himoyalash hamda davlat suvereniteti va hududiy daxlsizligini muhofaza qilishga qaratilgan jamoatchilik munosabatlarini boshqaruvchi tizim sifatida e'tirof etish mumkin.

Xalqaro maydonda davlatlar bilan bir qatorda, "nosuveren aktorlar"ning faoliyat yuritayotganligi globallashuvning ta'siri natijasi bo'lib, u xalqaro siyosiy jarayonlarning liberallahuvidan dalolat beradi. Ammo shu o'rinda yangi global sharoitda davlat suvereniteti va uning mavqeyi tobora qisqarib borishi xususidagi fikrga qo'shib bo'lmaydi.

Xavfsizlikning nazariy jihatlarini tadqiq etuvchi amerikalik siyosatchi olim M.Intriligator, global beqarorlik va o'zaro bog'liqlik oqibatida xavfsizlikni ta'minlashning an'anaviy uslublari o'z ahamiyatini tobora yo'qotib borayotgani bois, jahon jamoatchiligi tomonidan xavfsizlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi, deya ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy sharoitlarda xavfsizlikka ta'rif berishda na milliy va na xalqaro, balki global istiqbollardan kelib chiqish lozim. M.Intriligator milliy va xalqaro xavfsizlikning an'anaviy konsepsiyalarini, sayyoramizning hayotiy manfaatlariga qarshi qaratilgan tahdidlardan himoyalanganlikni anglatuvchi "global xavfsizlikning yangi konsepsiysi"ga almashtirishni taklif etadi. Olim bugungi kunda xavfsizlikka boshqa davlatlar hisobiga emas, balki mazkur jarayonga daxldor davlatlarning xavfsizligi evaziga erishilishiga, ya'ni boshqa davlatlar xavfsizligining kuchaytirilishi, qolganlari shaxsiy xavfsizligining kuchsizlanishiga olib kelmasligiga qat'iy ishonch bildiradi. Shu o'rinda, M.Intriligatorning e'tirofiga ko'ra, xavfsizlikning globallashuv jarayonidagi tarkibi va mazmuni an'anaviy harbiy o'Ichamlardan ancha yiroqlashadi; harbiy xarakterga ega bo'lмаган tahdidlarning roli ortib borayotgani bois, global xavfsizlik sayyoramizning hayotiy manfaatlariga tahdid soluvchi hamda o'zaro bog'liqlikka ega bo'lgan harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik xavfsizlikning qamrab olmog'i darkor. U suveren davlat yoki birlashgan davlatlar guruhining hayotiy manfaatlariga tahdid soluvchi harbiy tahdidlarni bartaraf etishni nazarda tutuvchi an'anaviy, ya'ni nisbatan tor ma'noga ega bo'lgan xavfsizlik

tushunchasi doirasida ham global xavfsizlikning keng ko‘lamdagi muammolari mavjud deb hisoblaydi³⁸.

Mazkur mulohaza har qancha “sog‘lom fikrga” ega bo‘lmasin, unga to‘la qo‘silib bo‘lmaydi. Davlat xalqaro munosabatlarning boshqa aktorlaridan farqli ravishda, inson huquqlarini ta’minlashda hanuzgacha kafillik qilib kelayotgani bois, mavjud hodisalarни milliy va davlat xavfsizligi ahamiyatini kamsitish yo‘li bilan real baholab bo‘lmaydi. Siyosiy-realizm tomonidan ilgari surilgan mazkur g‘oya ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi: “Davlat milliy va global xavfsizlikning asosini tashkil etadi, shuningdek, u bir vaqtning o‘zida tahdidlar manbayining asosiy sababchisi va tahdidlardan himoyalovchi yagona tayanch vazifasini o‘taydi”³⁹.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, xavfsizlik muammosining nazariyi jihatlarini ko‘p qatlamlı va kompleks ravishdagi muammolite matematik “areal”ga qiyoslash mumkin. Milliy, mintaqaviy va global xavfsizlik muammolarining kompleksliligi ularning o‘zaro chambarchas ekanlidigadir. Jahonning tarkibiy qismlari – milliy davlatlarni xavf-xatarlardanxonoli tarzda mustahkam va barqaror rivojlantirish borasidagi vazifalarning murakkablashuvi, o‘z navbatida, ularni nazariy-metodologik jihatdan yangicha talablar asosida o‘rganishni talab etmoqda.

MARning mintaqaviy va global xavfsizlik siyosatiga mos keluvchi milliy xavfsizlik siyosatini umumlashtirgan holda, Misrning mazkur sohadagi strategik maqsadlarini jadval shaklida ifodalash maqsadga muvofiq (2-Ilova). Shunga ko‘ra, MARning xavfsizlik sohasidagi siyosati xalqaro miqyosdagi milliy manfaatlar, mintaqaviy va global vaziyat, shuningdek, zamonaviy xalqaro-siyosiy, geosiyosiy, geoiqtsodiy va madaniylashgan kabi global tendensiyalarning taxminiy istiqbollarini hisobga olgan holda yo‘naltirilganligini ko‘rish mumkin.

Misr xavfsizlik siyosati o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishdan iborat:

-davlatchilik hamda davlatning turg‘un va barqaror rivoji asoslarini mustahkamlashga qaratilgan ichki siyosiy strategiya;

³⁸ Интрилигатор М. Определение «глобальной безопасности» // Разоружение. – М., 1991. – Т. XIV. № 4.-С. 73-89.

³⁹ Цыганков П.А. Теория международных отношений: Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2003. – С.321.

-MARning davlat ichki va tashqi siyosiy faoliyatiga doir muhim yo‘nalishlari (ichki va tashqi vazifalar o‘rtasidagi o‘tish bosqichi sifatida);

-Misrning milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan tashqi siyosiy yo‘nalishi.

Mazkur bog‘liqlik, MAR milliy xavfsizligining o‘ziga xos tarkibiy va funksional qismlaridan iborat bo‘lgan ko‘ptarmoqli murakkab tizimli mexanizm ekanligidan dalolat beradi. Bunda eng asosiysi milliy qadriyat, maqsad, manfaatlar va shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash siyosatidan iborat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Xavfsizlik tushunchachiga ta’rif bering.
2. Xalqaro xavfsizlik va milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omilar haqida bayon qiling.
3. 21-asrdagi asosiy global tahidlarni bayon qiling.
4. Xavf va xavfsizlikning zamонавиyo ко‘ринishlarini sanab bering.

II MAVZU. “SOVUQ URUSH”NING VUJUDGA KELISHI VA XX ASRDA XALQARO XAVFSIZLIK

Reja:

- 2.1. Ikkinci Jahon urushining tugashi hamda Sovuq urushning boshlanishi.
- 2.2. Truman doktorinasi va Marshall rejasi.
- 2.3. Postdam, Yalta konfrensiyasi.
- 2.4. Koreyaning bo‘linib ketishi sabab va oqibatlari.

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Mavzu doirasida talabalarga “Sovuq urush” va uning vujudga kelishi va XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro xavfsizlikka oid muhim ma’lumotlar beriladi.

Tayanch tushuncha va iboralar: “Sovuq urush”, Truman doktorinasi, Marshall rejasi, NATO, Varshava shartnomasi, “Temir parda”.

2.1. Ikkinci Jahon urushining tugashi hamda Sovuq urushning boshlanishi

Ikkinci Jahon urushi Buyuk Urushdan omon qolgan har qanday odam tasavvur qilganidan ham shafqatsiz va qonli edi. Ikkinci Jahon urushi 60 millionga yaqin askar va tinch aholining o‘limiga sabab bo‘ldi. Ikkinci jahon urushi askarlardan ko‘ra ko‘proq tinch aholining hayotiga zomin bo‘lgan va zamonaviy tarixdagi birinchi muntazam genotsid dahshatiga guvoh bo‘lgan birinchi urush edi. Bundan tashqari Yevropaning ko‘plab shaharlari, qishloqlari havo bombardimonlari va og‘ir artilleriya tomonidan butunlay vayron qilingan. Uylarning bexosdan vayron qilinishi minglab insonlarni qochoqlar va ko‘chmanchiga aylantirdi. Ikkinci jahon urushining tugashi odatiy holatga qaytganligidan darak bermadi; aksincha, bu yangi mojaroni keltirib chiqardi. 30-yillarda xalqaro sahnada birinchi o‘rinda turgan yirik Yevropa qudratli kuchlari charchagan va urush natijasida vayron bo‘lgan, bu esa ikkita yangi global super kuchlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan edi. Sovet Ittifoqi va Qo‘shma Shtatlar atrofida ikkita blok

rivojlanib, boshqa mamlakatlar ikkala lager orasidan birini tanlashga majbur bo'ldilar. SSSR urushdan hududiy jihatdan kattalashgan va Gitler Germaniyasiga qarshi kurashdan obro'li aura bilan chiqqan. Stalingraddagi g'alaba misolida dushmanqa qarshi qahramonona qarshilik ko'rsatish orqali mamlakatga yangi hayot berildi. Shuningdek, SSSR mafkuraviy, iqtisodiy va ijtimoiy modelni Yevropaning qolgan qismida ilgari bo'limgan darajada taklif qildi. Bundan tashqari Qizil Armiya, AQSh armiyasidan farqli o'laroq urush oxirida safdan chiqarilmagan edi.

Sovet Ittifoqi harbiylar va og'ir qurollar bo'yicha haqiqiy son ustunligiga ega edi. Qo'shma Shtatlар Ikkinchи Jahon urushining buyuk g'olibи edi. Uning insoniy va moddiy yo'qotishlari nisbatan past edi, garchi AQSh armiyasi jangovar harakatlar tugaganidan bir necha oy o'tgach deyarli to'liq demobilizatsiya qilingan bo'lsa ham, Qo'shma Shtatlар dunyodagi yetakchi harbiy kuch bo'lib qoldi. Uning dengiz floti va havo kuchlari tengsiz edi, 1949-yilgacha u yadro qurollarini ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yagona mamlakat edi. Shuningdek, u savdo hajmi va sanoat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyodagi yetakchi iqtisodiy kuch maqomini tasdiqladi. Hozir AQSh dunyodagi oltin zaxiralarning uchdan ikki qismidan ko'pros'iga egalik qildi va dollar asosiy xalqaro valyutaga aylandi. Yangi dunyo kuchlari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi asta-sekin ko'payib bordi, qo'rquv va shubha muhiti hukm surdi. Har bir mamlakat bir-birining yangi kuchidan qo'rqardi. Sovetlar G'arb tomonidan o'rab olingan va tahdid ostida bo'lganlarini his qildilar va Qo'shma Shtatlarni "*imperialistik ekspansiya*"ga boshchilik qilganlikda aybladilar. Amerikaliklar o'z navbatida kommunistik ekspansiyadan xavotirda edilar va Stalinni erkin xalqlarning o'zini-o'zi belgilash huquqi to'g'risidagi Yaltadagi shartnomani buzganlikda aybladilar. Natijada dramatik inqirozlar bilan kechgan xalqaro keskinlikning uzoq davri bo'lib, vaqt-i-vaqt bilan AQSh va SSSR o'rtasida keng miqyosli urushga olib kelmasdan mahalliy qurolli to'qnashuvlarga olib keldi. 1947-yildan boshlab ikki blokga bo'lingan Yevropa ikki super kuchlar o'rtasidagi kurashning markazida bo'ldi. Sovuq urush Berlinning Sovet blokadasi bilan birinchi cho'qqisiga chiqdi⁴⁰.

40

Source: CVCE. The Cold War (1945–1989).
http://www.cvce.eu/obj/the_cold_war_1945_1989_full_text-en-6dfe06ed-4790-48a4-8968-855e90593185.html

Ikkinchchi jahon urushi dunyo qiyofasini butunlay o'zgartirdi. Ham insoniy, ham moddiy nuqtayi nazardan tovon insoniyat ilgari bilmagan eng og'ir bo'ldi. Yevropa tiz cho'kdi va xarobaga aylanadi. Fabrikalar va transport aloqalari vayron bo'ldi, an'anaviy savdo aloqalari uzildi, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarida yetishmovchilik keng tarqaldi. Mamlakatlar taslim bo'lishidan oldin ham uchta buyuk davlat - AQSh, inglizlar va ruslar urushdan keyin dunyoni qanday tashkil qilish masalasini hal qilish uchun muhokama qilishgan edi.

1943-yil 28-noyabrdan 2-dekabrgacha davom etgan Tehron konferensiysi Uinston Cherchill, Iosif Stalin va Franklin D. Ruzvelt o'rtasidagi birinchi sammit uchrashuvi edi. Sammit urushdan keyingi xalqaro siyosatning asosiy ko'rsatmalarini belgilab berdi. Rahbarlar o'sha paytda 1944-yil 1-mayda bo'lib o'tishi kerak bo'lgan Normandiya bosqini, shuningdek, Germaniya taqdiri va uning bo'linishi va dunyodagi nizolardan keyin qanday tashkil qilinishi kerakligi haqida gaplashdilar. Ular Germaniya masalasini o'rganishni Yevropa maslahat komissiyasiga topshirishga qaror qilishdi.

Keyinchalik yana ikkita Ittifoq konferensiyalari bo'lib o'tdi, biri Yaltada (1945-yil 4-dan 11-fevralgacha), ikkinchisi Potsdamda (1945-yil 17-iyuldan 2-avgustgacha). Biroq urush davridagi yaqin ittifoq ko'p o'tmay ishonchszlik muhitiga yo'l qo'ydi. Tinchlik konferensiyalarida uchta Buyuk Davlat G'arbiy va Sovet sohalari tobora farqli qarashlar bilan bo'linib ketganligini tezda angladilar. Urush paytida ko'milgan azaliy qarama-qarshiliklar qayta tiklandi va ittifoqdosh davlatlar tinchlik shartnomasi bo'yicha kelisha olmadilar⁴¹.

1945-yil 6 va 9-avgustda AQSh harbiy havo kuchlari bombardimonchilari Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariiga atom bombasi tashladi. Bu bemisil qudratli yangi ommaviy qirg'in quroli edi. Xirosimada 90 ming, Nagasakida esa 75 ming tinch aholi halok bo'ldi. Ikkala shahar to'liq vayron etildi, yuz minglab kishilar radioaktiv nurlanishsga duchor bo'ldi, nurlanish kasalligi ularni sekin va azobli o'limga olib keldi. Bu AQShning urushdan so'nggi dunyoga yakka hokimlikka da'vosi edi. Mazkur voqeа «Sovuq urush» boshlanishiga turtki bo'ldi.

⁴¹ Source: CVCE. The Cold War (1945–1989). http://www.cvce.eu/obj/the_cold_war_1945_1989_full_text-en-6dfc06ed-855e90593185.htmlfx 4790-48a4-8968-

Sovuq urushning boshlanishiga sabablardan biri Atom bombasining loyihasi Amerika tomonidan ishlab chiqilyotgani, ammo bu faoliyat sir saqlanayotgan edi. Lekin Xirosima va Nagasakiga Amerika tomonidan tashlangan atom bombasi Amerika va Ingilizlar amalga oshirayotgan “maxfiy faoliyat” natijasini oshkor qildi. Chunki o’sha paytlarda Amerikaliklar va inglizlar Germaniyaga qarshi foydalanish uchun atom qurolini yashirinchalik ishlab chiqqan edi, ammo fashistlar u tayyor bo‘lmasdan taslim bo‘lib qoldilar. Ammo Manxetten loyihasi Sovet razvedkasi josuslik yo‘li bilan bu haqida ko‘plab narsalarni bilib olishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun yetarlicha maxfiy emas edi. Natijada bomba tayyorlanayotgan Los-Alamosda Sovetlar tomonidan uch marotaba muvafaqqiyatli razvedka harakati amalga oshirildi⁴².

Stalin urush o‘rtalarida ittifoqchilariga qarshi katta maxfiy operatsiya uyushtirganligi, bu ularga ishonmaslikning yana bir kuchli isboti bo‘ldi - garchi buni anglash kerak bo‘lsa ham, Amerika-Ingiliz tomoni Yangi Meksiko cho‘lidagi birinchi muvaffaqiyatlari atom bomba sinovidan so‘ng Stalinga bomba haqida ma’lumot berishni xohlamadilar. Ammo Sovet rahbari Potsdam konferensiyasida bomba haqida xabar topganida unchalik ajablanmadi - u Amerika yangi prezidenti buni amalga oshirishidan ancha oldin bomba haqida bilgan edi. Ammo Amerika Qo‘shma Shtatlari uch haftadan so‘ng yaponlarga qarshi quroq ishlatganda Stalin keskin munosabat bildirdi. Yaponiyadagi bomba portlashi Yangi Meksika cho‘lidagi bomba sinovi bilan bir xil edi. Haqiqiy quroq yana yangi qo‘srimchalar bilan kuchaytirilgan edi. Stalin Xirosimaning qanday yo‘q qilinganligini bilib, “Urush vahshiyona, ammo Atom bombasini ishlatish - bu eng zo‘r bombardimon qilishdir”, deb shikoyat qildi⁴³. Yadro quroli «sovuq urush» vositasi bo‘ldi. AQSh uni ishlab chiqarish va bu sohadagi tadqiqotlar ustidan xalqaro nazorat o‘rnatish rejasini ishlab chiqdi. Bu reja 1946-yilda BMTga taqdim etildi va u istalgan mamlakatda bunday tadqiqotlarni tekshirish huquqini ko‘zda tutdi. SSSR bu rejani inkor qildi va 1949-yilda o‘z atom bombasini ilk bor sinovdan

⁴² For a detailed account of the David Greenglass-Julius Rosenberg and Klaus Fuchs operations, Richard Rhodes, Dark Sun: The Making of the Hydrogen Bomb (New York: Simon and Schuster, 1995), p. 27–198.

⁴³ John Lewis Gaddis. The Cold War a new History, The Penguin Press, New York 2005. P. 25

o'tkazdi. Shundan boshlab «sovuz urush» yadroviy qurollanish poygasi darajasiga ko'tarildi.

Rasman «sovuz urush»ning boshlanishi 1946-yil 5-martda sobiq Angliya bosh vaziri U. Cherchillning Fultondagi Amerika universitetida so'zlagan nutqida e'lon qilindi. "So'nggi paytlarda Ittifoqchilar g'alabasi bilan yoritilgan sahnalarga soya tushdi. Boltiq bo'yidagi Stettindan Adriatikadagi Triestgacha temir parda materik bo'ylab tushdi. Ushbu chiziq orqasida qadimgi Markaziy va Sharqiy Yevropaning barcha poytaxtlari joylashgan. Bu mashhur shaharlarning barchasi va ularning atrofidagi aholi sovet hududida joylashgan bo'lib, ularning barchasi u yoki bu shaklda, nafaqat Sovet ta'siriga, balki Moskvaning juda yuqori va tobora kuchayib borayotgan nazoratiga bo'ysunadi"⁴⁴. U. Cherchill «sharqiy kommunizm» bilan kurash uchun ingliz-amerika harbiy ittifoqini tashkil etishga chaqirdi. U urushdan so'ng totalitarizm ta'siriga G'arbdan ajratib turuvchi «temir parda» haqida so'zladi. SSSR bilan natsizmga qarshi birlashgan Yevropa endi SSSRning o'ziga qarshi birlashdi.

1948-yilga kelib Sovetlar Sharqiy Yevropada Qizil Armiya tomonidan ozod qilingan chap qanot hukumatlarini o'rnatdilar. Amerikaliklar va inglizlar Sharqiy Yevropada Sovet Ittifoqining doimiy hukmronligidan va g'arbiy Yevropa demokratik davlatlarida Sovet ta'sirida bo'lgan kommunistik partiyalarning hokimiyat tepasiga kelish xavfidan qo'rqishgan. Sovetlar aksincha, Germaniyadan kelib chiqadigan har qanday yangi tahdiddan himoya qilish uchun Sharqiy Yevropani nazorat qilishni davom ettirishga qat'iy qaror qildilar va asosan mafkuraviy sabablarga ko'ra butun dunyoga kommunizmni tarqatish niyatida edilar. Sovuz Urush 1947-48-yillarda, AQShning Marshall rejasi bo'yicha g'arbiy Yevropaga ko'rsatgan yordami bu mamlakatlarni Amerika ta'siriga olib kelganida va Sovetlar Sharqiy Yevropada ochiq kommunistik rejimlarni o'rnatganlarida qattiqlashdi⁴⁵.

Jahon urushi tugagach, Yevropa vayronaga aylandi: uning shaharlari vayron bo'ldi; uning iqtisodiyoti vayron bo'ldi; uning aholisi ocharchilikka duch keldi. Sovet Ittifoqining Sharqiy Yevropani boshqarishi va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining Sovet ekspressionizmiga nisbatan zaifligi inqiroz tuyg'usini kuchaytirdi.

⁴⁴ Internet manba. Classzone.com. origins of the cold war.

⁴⁵ Event cold war. Written by the editors of Encyclopaedia Britannica.

<https://www.britannica.com>

Ushbu favqulodda vaziyatni kutib olish uchun Davlat kotibi Jorj Marshall 1947-yil 5-iyun kuni Garvard universitetida nutq so‘zlab, innovatsion taklif bilan chiqdi. Marshall Yevropadagi halokatli sharoitlarni qayd etib, Yevropani tiklash rejasini tuzish uchun Yevropa davlatlari “birgalikdagи sa‘y-harakatlarga” chaqirdi. Amerika Qo‘shma Shtatlari reja tuzishda “do’stona yordam” ko‘rsatishi mumkin edi, ammo bu haqiqatan ham “Yevropaliklarning ishi” edi. Marshall reja amalga oshirilgandan so‘ng, Amerika Qo‘shma Shtatlari uni amalga oshirish uchun zarur mablag‘ ajratishini va’da qildi. “Bizning siyosatimiz, - deya ta’kidladi Marshall, - hech qanday mamlakat yoki doktrinaga emas, balki ochlik, qashshoqlik, umidsizlik va betartiblikka qarshi qaratilgan. 1947-yil 19-dekabrda Prezident Garri Truman Kongressga Marshallning Yevropaga iqtisodiy yordam ko‘rsatish g‘oyalariga amal qilgan xabarni yubordi. Kongress 1948-yildagi Iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi qonunni ko‘pchilik qabul qildi va 1948-yil 3-aprelda Prezident Truman Marshall rejasini deb nom olgan qonunni imzoladi. Marshall rejasining g‘oyasi quydagicha edi: “1946-yilda Davlat departamentining rus mutaxassis Jorj Kennan Moskvadan Sovet Ittifoqining Yevropadagi niyatlarini tahlil qilib uzoq telegramma yozdi. Keyingi yili Foreign Affairs jurnali telegrammani “X.” ning maqolasi sifatida e’lon qildi. Maqola shov-shuvga sabab bo‘ldi va keng muhokama qilindi. Kennan kapitalistik mamlakatlar bilan o‘ralgan Sovetlar o‘zlariga nisbatan ishonchhsiz va o‘z kuchlarini kengaytirishni istashgan degan xulosaga keldi. Kennan “Rossiyaning kengayish intilishlarini uzoq muddatli, sabrli ekanligi, ammo qat’iy va hushyor tutishga chaqirdi”. Davlat kotibi Marshall Kennanni Yevropa davlatlari Sovet ekspansiyasiga qarshi tura oladimi yoki yo‘qligini baholash uchun rejalashtirish guruhining boshlig‘i etib tayinladi. Kennan tezda urush Yevropani dahshatli iqtisodiy shaklda qoldirganligi haqida xabar berdi. U Yevropadagi dahshatli voqealar to‘g‘risida xabar berdi:

- Urushdan omon qolganlarning aksariyati uysiz, och va ishsiz edi.
- Inflyatsiya ish bilan band bo‘lganlarning ish haqini talon-taroj qildi.
- Zavodlar, temir yo‘llar, ko‘priklar, elektr stansiyalari va suv tizimlari shikastlangan yoki yo‘q qilingan.

▪ Fermerlar qurg‘oqchilikdan aziyat chekishdi va o‘z mahsulotlarini bozorga olib chiqishda shahar aholisi ularni sotib ololmadi.

▪ Qayta qurishni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan savdo va kapital oqimi to‘xtatildi.

Kennan Qo‘shma Shtatlarga “Yevropa jamiyatining iqtisodiy salomatligi va kuchini” tiklashga yordam berishni tavsiya qildi. U buni nafaqat gumanitar yordam sifatida, balki Yevropada kommunizmga qarshi kurashning eng yaxshi usuli, deb bildi. U AQSh yordamini olayotgan Yevropa davlatlari Amerika inqilobidan keyin 13 ta koloniya singari, iqtisodiy birlik sifatida faoliyat yuritishi kerak, deb hisoblagan. Oxir-oqibat, uning ta’kidlashicha, qayta tiklangan Yevropa Qo‘shma Shtatlarga yana bir bor Amerika fabrikasi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Eng muhimmi, iqtisodiy jihatdan kuchli Yevropa kommunizmning tarqalishini to‘xtatadi. Prezident Truman Gretsiya va Turkiyaga yordam so‘raganidan bir necha hafta o‘tgach, Kennan va davlat kotibi Marshallning boshqa eng yaxshi maslahatchilari uni butun Yevropa uchun katta yordam dasturi zarurligiga ishon-tirdilar⁴⁶.

AQShning Gretsiyadagi fuqarolar urushiga aralashish to‘g‘risidagi qarori rasmiy ravishda Sovuq urushni boshlagan, deb hisoblanishi mumkin. Prezident Truman Kongressdan Gretsiya hukumatiga harbiy va iqtisodiy yordam sifatida 400 million dollar so‘rab, Truman doktrinasi, deb nomlangan siyosiy bayonot berdi. U o‘z nutqida: “Menimcha, qurolli ozchiliklar yoki tashqi bosim ostida bo‘ysundirishga urinishda qarshilik ko‘rsatayotgan erkin xalqlarni qo‘llab-quvvatlash AQShning siyosati bo‘lishi kerak”. Truman doktrinasi kommunizmni “Erkin dunyo”ga tahdid, deb e‘lon qildi, bu Qo‘shma Shtatlari “Erkin Dunyo”ning boshlig‘i sifatida dunyoning hech bir joyida muvaffaqiyatga erishishga yo‘l qo‘ymaydi⁴⁷.

Keyingi 4 yil ichida Kongress Yevropani tiklash uchun 13,3 milliard dollar ajratdi. Ushbu yordam Yevropaliklarga qit’aning

⁴⁶ The Marshall Plan for Rebuilding Western Europe. Constitutional Rights Foundation (www.crf-usa.org). p. 4.

⁴⁷ Mamta Aggrawal. Truman Doctrine: A Policy Statement Made by US during the Cold War <https://www.historydiscussion.net/wars/condition-of-the-world-after-the-second-world-war/816>

iqtisodiyotini tiklashga imkon beradigan juda zarur kapital va materiallar bilan ta'minlandi. Marshall rejası Amerika Qo'shma Shtatlari uchun Amerika mollari bozorlarini ta'minladi, ishonchli savdo sheriklarini yaratdi va G'arbiy Yevropada barqaror demokratik hukumatlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatladı. Marshall rejasini Kongress tomonidan ma'qullah Ikkinchı Jahon urushidagi ikki partiyaviylikning urushdan keyingi yillarda kengaytirilganligidan dalolat berdi⁴⁸.

Stalin Marshall rejasiga xuddi Kennan bashorat qilganidek javob berdi. 1947-yil sentabr oyida u xalqaro kommunistik harakat ichida pravoslavlikni amalga oshirish vazifasi bo'lgan eski urushgacha bo'lgan Kominternning so'nggi kun versiyasi bo'lgan Kominform tashkil etilganligini e'lon qildi. "O'z vazningizni uloqtirishni boshlamang", dedi yangi tashkilot tarkibidagi Stalining vakili Andrey Jdanov norozilik bildirgan qutbga. "Moskvada biz marksizm-leninizmni qanday tatbiq etishni yaxshi bilamiz"⁴⁹.

Amerika Qo'shma Shtatlari va G'arbiy blok

1947-yildan boshlab G'arb davlatlari kommunizmning rivojlanishidan tobora ko'proq xavotirda edilar: Yevropaning bir qator mamlakatlarida kommunistik partiyalar koalitsiya hukumatlarida faol rol o'ynadilar (masalan, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Polsha, Fransiya, Belgiya va Italiyada hatto boshqa partiyalarni hokimiyatdan chetlatish). 1946-yilning kuzidan beri Gretsiya fuqarolar urushi avjida edi va Turkiya o'z navbatida tahdid ostida edi.

2.2. Truman doktrinası va Marshall rejası

Ushbu keskin xalqaro muhitda AQSh prezidenti Garri S. Truman o'zidan avvalgi Franklin D. Ruzvelt siyosatidan voz kechdi va mamlakatning tashqi siyosiy yo'nalişlarini yangitdan belgilab oldi. 1947-yil 12-martda Prezident AQSh Kongressida so'zlagan nutqida Sovet ekspansiyasi tahdidi ostida bo'lgan mamlakatlarga moliyaviy va harbiy yordam ko'rsatishni maqsad qilgan tiyib turish doktrinasini taqdim etdi. Kommunizmning tarqalishini to'xtatishga qaratilgan aniq Truman doktrinası Qo'shma Shtatlarni Sovet

⁴⁸Internet

https://www.archives.gov/exhibits/treasures_of_congress/text/page22_text.htmlBipartisan manba.

⁴⁹Simon Sebag Montefiore. Stalin the court of the red tsar. p. 569.

tajovuziga qarshi erkin dunyoning himoyachisi sifatida joylashtirdi. Gretsiya va Turkiyaga qariyb 400 million dollarlik yordam paketi berildi. Ushbu yangi ta'limot Sovuq urush davrida Qo'shma Shtatlarning faolligi uchun qonuniy asos yaratdi. Hibsga olish doktrinasini qo'llagan amerikaliklar Turkiyani Sovet Ittifoqining Bosfordagi dengiz bazalari huquqlariga bo'lган da'volariga qarshi turishga undashdi. Shuningdek, ular Rossiya qo'shinlarining Erondan chiqarilishini ta'minladilar. Ayni paytda 1947-yil martidan boshlab Sovet josusligini yo'q qilish bo'yicha harakatlar muvofigqlashtirildi va Qo'shma Shtatlar o'zining Markaziy razvedka boshqarmasini (CIA) tashkil etdi. Tashqi siyosatdagi ushbu o'zgarishlar AQSh tarixida ilgari Yevropa nizolari chekkasida qolgan haqiqiy burilishni belgiladi. AQSh uchun izolyatsiya endi boshqa imkoniyat emas edi⁵⁰.

Ikkinci Jahon urushi tugaganidan beri taxminan 45 yil davomida, 1990-yilga kelib sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar gacha dunyodagi ikkita asosiy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizim kapitalistik va sotsialistik, deb ta'riflandi. Ularning har biri juda ko'p muhim o'zgarishlarni boshidan o'tkazdi. Rivojlangan kapitalistik tizimga ega mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarning umumiy e'tirofi mavjud edi. Bu ishchilar kasaba uyushmalarini, ishchi va sotsialistik harakatlar kurashlari natijasida yuzaga keldi.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning aksariyati Ikkinci Jahon Urushigacha kapitalizm bilan bog'liq bo'lган eng yomon baxtsizliklarni yengillashtirgan ijtimoiy siyosatiga rioya qilishdi. Sovet Ittifoqida va Ikkinci Jahon Urushidan keyin Sharqiy Yevropada qurilgan sotsialistik tizim bir necha yillar davomida kapitalistik tizimga alternativa sifatida qaraldi.

Ikkinci Jahon urushidan keyin dunyoning o'ziga xos xususiyatlaridan biri Osiyo va Afrikada mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bo'ldi. Osiyo va Afrikaning mustaqil mamlakatlari, shuningdek, Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlari dunyo ishlarida mustaqil rol o'ynashga intildilar. Sovuq urush davrida ularning har qanday harbiy bloklarga qo'shilishni rad etishlari tinchlik muhitini yaratishga yordam berdi. Ushbu mamlakatlarning birlashishi qo'shilmaslik harakatining kuchayishiga olib keldi, bu dunyoda taranglikni pasaytirishda, mustamlakachilik, imperializm

⁵⁰ Source: CVCE. The Cold War (1945–1989).

http://www.cvce.eu/obj/the_cold_war_1945_1989_full_text-en-6dfe06ed-4790-48a4-8968-855e90593185.html

va irqchilikni tugatishda va rivojlanish masalasini xalqaro muammo sifatida birinchi o'ringa olib chiqishda muhim rol o'ynadi⁵¹.

Ikkinci jahon urushidan so'ng

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi: Ikkinci jahon urushidan so'ng, Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyo tinchligini saqlash uchun tuzilgan. Bu tashkilot dunyoning turli mamlakatlari o'rtasida tinchlikni saqlashga harakat qildi.

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Yaqin Sharq mintaqasiga umumiy sharh va “Arab bahori”dan keyingi davrda mintaqada yizaga kelgan xavfsizlikka tahdid soluvchu omillar haqida ma’lumot berishdan iborat.

Tayanch tushuncha va iboralar: Yaqin Sharq, etnik nizolar, diniy qarama-qarshiliklar, “Arab bahori”, Suriya inqirozi, kurdlar muammosi, terrorizm va ekstremizm

4.1. Yaqin Sharq mintaqasiga umumiy sharh

Yaqin Sharq tarixda turli tamaddunlar kesishgan, to‘qnashgan, turli xalqlarning urf-odatlari va shular qatori har xil din va madaniyatlar qorishib ketgan mintaqadir. Yaqin Sharq (Ba’zi manbalarda O‘rta Sharq) hududi G‘arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikada joylashgan mintaqaning tarixiy nomi bo‘lib, bu nom XVII asrda yevropaliklar tomonidan berilgan. Yirik guruhlarni tashkil etuvchi hozirgi asosiy aholisi arablar, ossuriyaliklar, forslar, yahudiylar, misrliklar, kurdlar va turklar hisoblanadi. Bu hududda qisman ozarbayjon, arman, gruzin va yunonlar ham bor. Yaqin Sharqda 350-360 million musulmonlar (turklar, forslar, kurdlar, arablar va boshqalar), 60-70 million nasroniyalar (armanlar, anadolu yunonlari, gruzinlar, ossuriylar, koptlar, maronitlar va boshqalar), 9 million yahudiy yashaydi. 3 million druz, 2 million yazidiy va boshqalar istiqomat qiladilar. Yevropa va Afrikadan Osiyoga boradigan asosiy yo‘l Yaqin Sharq orqali o‘tadi. Iqlimi asosan qurg‘oqchil bo‘lib, sug‘orishda ishlatiladigan bir necha yirik daryolar mavjud va suv tanqisligi doimiy muammolardan biridir. Yaqin Sharq sayyoramizning muhim neft ishlab chiqaruvchi

mintaqasi sifatida doimo jahon diqqat-e'tiborida bo'lib keladi. Etnik, madaniy va e'tiqodiy rang-baranglik, suv tanqisligi, neft-gaz va boshqa iqtisodiy resurslar, savdo yo'llari va cheksiz bozor hududlariga hukmronlik qilish intilishlari mazkur mintaqaning juda qadimdan davom etib kelayotgan mojarolari asoslari hisoblanadi. Shunga ko'ra "Yaqin Sharq" mamlakatlari siyosiy va iqtisodiy jihatdan, shu jumladan, turli tashkilotlarga a'zoliklariga ko'ra bir-birlari bilan muhim bog'lanishga ega.

Yaqin Sharqning etnik tuzilishiga qarasak, tub uchta etnik guruh borligi namoyon bo'ladi. Bular Somiy xalqlari guruhlari, Hind-yevropa guruhiga mansublar va turkiy xalqlar vakillaridir. Ularning orasida eng ko'p nufusga ega bo'lgan etnik guruh Somiyalar hisoblanadi.

"Somiy" (yevropaliklar tilida "semit") atamasi 1780-yillarda nemis olimlari A.L.Shlyoser va I.G.Eyfgorn tomonidan maxsus tillar oilasiga mansubligi, umumi yashash joyi, xususiyatlari, moddiy madaniyat, turmush tarzi va hayotning o'xshashligi bilan ajralib turadigan O'rta Sharqning bir qator xalqlariga nisbatan qo'llanilib ilmiy muomalaga kiritilgan⁶⁶. Atama aslida "Som (arab, fors, turkiyda, Sem – Yevropa tillarida, Shem – yahudiylar tilida) farzandlari" umumi nomi ostida qadimdan mavjud bo'lgan. Xuddi shunday ibora shaklida "Qadimgi ahd" kitobida ham uchraydi.

Zamonaviy fanlarda "semit" atamasi Old (G'arbiy) Osiyoda qadimda yashagan va shu hududlarda bir qator davlatlarga asos solgan, bugungi kunda ko'plab guruhlarga bo'linib ketgan xalqlar (prasemitlar va protosemitlar) tarixiy madaniyatiga hamda semit elementlarini qamrab oluvchi tillar oilasiga mansub tillarda so'zlashadigan qadimgi va zamonaviy xalqlarga nisbatan ishlatiladi.

Zamonaviy semit xalqlariga arablar, yahudiylar, malta, livanliklar, ossuriyaliklar, Janubiy Arabistonagi semitlarning kichik guruhi avlodlari (mahrilar, shahrilar, Sokotra oroli xalqlari va boshqalar), amxara, tigre, tigray (arabcha - xosiyah) va Efiopiyaning boshqa etnik guruhlari kiradi⁶⁷.

Hozirgi vaqtida Somiyarning eng katta guruhlari ikki xalqda namoyon bo'ladi – arablar va ibroniylar (yahudiylar). Yuqorida tilga olingan kichik xalqlarga qo'shimcha tarzda xaldeylar, suryo-

⁶⁶Шлецер, Август-Людовик // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). -СПб., 1890-1907.

⁶⁷Каранг: Большая советская энциклопедия. 3-изд. 30 т. -М.: Советская энциклопедия, 1990.

niylar, akkadlar, bobilliklar va assuriylar ham Somiyalar etnik guruhni vakillaridir. Arablar Yaqin Sharqdagi eng katta etnik guruhni tashkil qiladi.

Yahudiylar Somiyarning ikkinchi eng katta tarmog'i bo'lib, ular hozirgi vaqtida Isroilda yashaydi. 1948-yilda Isroil davlati barpo etilganidan keyin dunyoning turli burchaklaridan yahudiylar ko'chib kelib joylashganlar. Yahudiylar nufuz jihatidan katta bo'lmasada, mintaqasi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarda muhim rol o'ynab kelmoqdalar. Ularning bu roliga nisbatan turli qarashlar mavjud. Hatto O'rta Sharq mamlakatlarining o'zida Isroilga salbiy va ijobjiy yondashuvlarga ko'ra katta bo'linishlarni ko'rish mumkin.

Mintaqada arablardan keyingi eng katta etnik guruh Hind-Yevropa guruhidir. Bu guruhga eronliklar, armanilar, kurdlar va rumliklar kiradi. Turkiy guruh vakillari asosini turklar, ozarbayjonlar, Suriya, Iroq, Eron va Misr turkiylari tashkil qiladi.

Arablar esa ajdodlariga ko'ra Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning eng qadimgi xalqlari va qabilalariga borib taqaladi. Arablar tarixi umuman, semit tilida so'zlashuvchi xalqlar tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Mesopotamiya arxiologik tarixiy dalillariga ko'ra arablar boshqa semit xalqlaridan miloddan avvalgi mingyillikdan oldinroq mustaqil xalq sifatida ajralib chiqqanlar. Tarixda mazkur davrlarda janubiy Arabiston arablari allaqachon Saba va boshqalar kabi obod shahar va davlatlarni yaratganlari tadqiq etilgan. O'sha vaqtarda arablarning katta qismi Arabiston yarim orolinling shimoliy hududlarida asosan ko'chmanchilikda hayot kechirganlar. Miloddan avvalgi I ming yillikdan milodiy I ming yillikka qadar shimoliy arablar hududlarida Palmira (Tadmor), Nabotiya (evropacha - Nabatiya), Lahyon, Hasson (Gassan) va Lahm (Laxm) kabi davlatlar mavjud edi⁶⁸. Shimoliy va janubiy arablar g'arbiy Arabiston (Hijoz) orqali savdo yo'llari bilan bog'langan. Ushbu mintaqasi aholisi arab tilida gaplashgan va o'zlarining kelib chiqishlarini Ibrohim payg'ambar o'g'li Ismoil orqali Nuh alayhisalomdan, deb hisoblashgan. Ko'rinish turibdiki o'sha vaqtlardanoq arablar hudud boshqaruvini qo'lga kiritganlar va unda mavjud etnik, diniy va madaniy, maishiy hayot tarzini idora qilganlar. Ayni vaqtida ularning ta'sirida hududda butparastlik keng rivojlangan va ularni umumlashtirishda ham arablar yetakchi rol o'yaganlar. Makka Ibrohim alayhissalom

⁶⁸ Энциклопедия Кругосвет. <https://www.krugosvet.ru/>

tomonidan qurilgan Ka'baga egalik qilgan arablar amalda hududdagi kuplab xalqlarning ham madaniy ham diniy qarashlariga ta'sir ko'rsatib kelganlar⁶⁹. Ta'kidlash lozimki, arablar bilan hududning etnik nufuz jihatidan kichik bo'lgan boshqa xalqlari o'rtasida etnik, diniy va hududiy nizolarning asl sabablari o'sha vaqtlargacha ham borib taqaladi⁷⁰.

Keyingi davrda Arabiston Yarim Orolida vujudga kelgan islam e'tiqodi butun O'rta Sharq va undan boshqa hududlarga ham tarqalib, diniy nuqtayi nazardan ko'plab kichik etnik guruhlarni birlashtirgan, uzoq asrlardan beri davom etib kelayotgan mojarolarga juda katta barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, etnik, hududiy, iqtisodiy va hukmronlik asoslaridagi nizolar butunlay barham topmadи.

Ushbu mintaqaga somiyalar oilasiga mansub bo'Imagan Eronva Turkiya davlatlari ham mansubdir. Eron O'rta Sharqqa mansub xalq va davlat sifatida mazkur hududga juda qadim zamonlardan beri o'z ta'sirini ko'rsatib keladi. Katta xalq va davlat sifatida XI-XII bu hududlarga kirib borgan turkiylar esa keyinchalik Saljuqiylar va Usmonli turklari timsolida uzoq vaqtlar O'rta Sharqni boshqarib keldilar. Hudud Eron, Turkiya va G'arb mamlakatlari o'rtasida hamisha tranzit maydon vazifasini bajargan. Tarixda Eron bu hududni bir necha bor istilo qilgan. Shu kabi, hududni G'arb mamlakatlari, xususan Bobil (Vavilon), Rim, Vizantiya imperiyalari, zamonaviy Yevropa davlatlari kabilar ham bir necha bor bosib olgan va o'z tasarrufida saqlab qolishga harakat qilgan. Hududga egalik qilish uchun kurash XX asrning o'rtalariga qadar davom etgani barchamizga ma'lum va hozirda ham uning iqtisodiy resurslari ustidan talashlar davom etmoqda.

Siyosiy nuqtayi nazardan, bugungi kunda Yaqin Sharqni Eronsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Eron Islom Respublikasi mintaqaning eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lib, o'zining geografik joylashuvi, ulkan uglevodorod resurslari va jozibali diniy va demokratik masfurasi bilan mintaqada muhim rol o'ynaydi⁷¹. Turkiya esa "Yaqin Sharq"ning eng kuchli davlatidir. Chunki, bu

⁶⁹ Крымский А. Е. История арабов и арабской литературы светской и духовной: В 2 т. — М., 1918.

⁷⁰ Алан Миллард. Колыбель цивилизации: древний ближний восток.
https://greechhist.ru/kolybel_civilizacii_drevniy_blijniy_vostok.html

⁷¹ Мамедова Н.М. Исламская экономика и глобализация (на примере Ирана).
<http://middleeast.org.ua/islam/2.htm>

mamlakat o'zining tarixiy imperiyasi ta'siri va bugungi kunda NATO a'zoligi bilan Yaqin Sharqdagi siyosiy jarayonlarning eng muhim ishtirokchilaridan biri hisoblanadi⁷².

Shuni ham aytish kerakki, dunyoda bo'lib o'tayotgan iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning globallashuvi jarayonida allaqachon shartli ravishda "mintaqa" tushunchasi o'zgarib bormoqda. Transport va axborot uzatish vositalarining rivojlanishi, iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari tufayli masofalarning qisqarishi kuzatilmoqda. Bularning barchasi mintaqaga alohida joy ajratish, mintaqaviy izolyasiyani saqlab qolish masalasini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, zamonaviy siyosiy va iqtisodiy davlatlararo munosabatlar maxsus geosiyosi va geoiqtisodiy tizimlarni yaratmoqdaki, bunday tizimlarda mamlakatlar klassik va umume'tirof etilgan doiradan boshqa asoslarda birlashadilar⁷³. Mustaqil asoslarga ega bo'lgan sivilizatsiya, madaniy va lingvistik farqlar borgan sari yemirilmoqda. Bugungi "globallashuv" dunyosidagi siyosiy va iqtisodiy omillar "mintaqa" tushunchasini belgilashda asosiy omildir.

Agar Yaqin Sharqdagi mamlakatlarning siyosiy xususiyatlariga nazar tashlasak, ularning siyosiy tuzilmalari bir-biridan farq qilsa ham, asosan respublika va monarxiya rejimiga ko'ra ikki guruhga oiddir.

Bugungi zamonaviy davlat tizimining eng muhim xususiyati – ko'pchilikka ega etnik guruuhlar qatorida milliy ozchilik bo'lgan xalqlarning huquqi bir xil darajada himoya qilinishi va rivojlantirilishini ta'minlaydigan siyosiy mexanizmlarining yetishmasligi etnik ziddiyatlarning markazida turgan eng muhim sababdir. Boshqacha qilib aytganda, mintaqada vakillik fenomeni juda tor doirada belgilangan va boshqaruvga kelgan hukumat siyosiy dilemmalarga duch keladi. Bu ushbu hududdagi mamlakatlarda mazhablararo ichki ziddiyat va tartibsizliklarni keltirib chiqarmoqda. Yaqin Sharqda xorijiy kuchlarning borligi ham mintaqada xavfsizlik masalasini o'rganishda muhim omil hisoblanadi.

AQSh boshchiligidagi G'arb davlatlarning o'lkadagi siyosiy va iqtisodiy masalalarga aralashuvi mintaqaning siyosiy va diniy

⁷²Ближний Восток – подробное описание. <http://www.onetoueast.ru/blizhniy-vostok/8-blizhniy-vostok-podrobnoe-opisanie.html>

⁷³Мухиэддин Али. Расширенный Ближний Восток, регионоведческий подход. <http://www.geopolitics.ru/common/publics/110.htm>

jihatdan keskinlashuviga olib keldi. Shuningdek, AQSh boshliq G'arb mamlakatlarining Isroiilni to'g'ridan to'g'ri siyosiy va iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlashi mintaqadagi diniy guruhlarning radikallashuvida muhim rol o'yayapti⁷⁴. Mintaqaning neft zaxirasi bo'yicha dunyoda yetakchi ekani ham ushbu hudud xavfsizligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilmoqda. Bu yo'nalishda kuchli siyosiy infratuzilma va iqtisodiy tizimga ega bo'limgan mintaqqa davlatlari o'z xavfsizligini ta'minlash uchun G'arb bilan birdamlik yordamida siyosiy balanslarni ushlab turishga harakat qilmoqda.

Mintaqadagi barcha diniy jamoalar o'z ichida ham turli mazhablar, guruhlar va oqimlarga bo'linib ketgan⁷⁵. Musulmonlar orasida ham ahvol shunday. Umumiy holatda sunniylar ko'pchilikni tashkil qilsada, Eron va Iroqda shialar son jihatidan ko'p. Shialar orasida ja'fariylar, alaviylar, ismoiliylar, o'n ikki imomchilar kabi turli ichki bo'linishlar ham bor. Sunniylar orasida hanafiylik, shofe'iylik, hanbaliylik va molikiylik kabi yo'nalishlar vujudga kelgan.

Turkiyada hanafiylik, arab yarimorolida hanbaliylik, Misrda shofe'iylik ustun mavqega ega. Faqat Eronda shialik rasmiy e'tiqod darajasida qabul qilingan. Ba'zilar "eronliklarning shialikni qabul qilishi sunniy bo'lgan arablar, turklar, Markaziy Osiyoliklar va hind qo'shnilaridan o'zlarini o'ziga xosliklarini singdirishning bir usuli" ekanini iddao qiladilar.

Shu bilan birga Suriya, Iraq, Livan, Saudiya Arabistonining sharqiy viloyatlari va Fors ko'rfazining ba'zi davlatlarida shialar istiqomat qilib kelmoqda. Xususan, Livan siyosatida shialarning juda faol rol o'yayotgani kuzatilmoqda. Iroqda esa shia e'tiqodiga mansub aholi son jihatidan ustunligiga qaramay, yaqin vaqtlargacha sunniy bo'lgan Saddam Husayn hukmronlik qilgan edi. Suriya aholisining sakson foizi sunniy, qolgan qismi esa alaviy, shia va ismoiliy oqimlariga mansub. Bu o'lkada 1966-yilda Hafiz Asad, Saloh Jadiid va Muhammad Umron tomonidan o'tkazilgan harbiy to'ntarishlar oqibatida boshqaruv ozchilik hisoblangan alaviylar qo'liga o'tgan⁷⁶.

⁷⁴ Каранг: Арабо-Израильский конфликт. <http://middleeast.org.ua/palestina/1.htm>

⁷⁵ Алиев С.М. Современное исламское возрождение и его особенности (на примере Афганистана, Ирана и Турции). <http://middleeast.org.ua/islam/1.htm>

⁷⁶ Дружиловский С.Б. О теории и практике исламского правления в странах Среднего Востока. <http://middleeast.org.ua/islam/4.htm>

4.2. Yaqin Sharqdagi etnik nizolarning asosiy o‘choqlari

4.2.1. Sun’iy chegaralar

Tarixiy jarayonlarga nazar solsak, 1900-yillarning boshida Afrikaning eng shimoliy hududlaridan Yamangacha bo‘lgan muqaddas yerlar, Bolqondan Kavkaz va Qoradengizning shimoliga qadar yastangan zamin Usmonli imperiyasining hukmronligi ostida edi. Uzoq yillar davomida bargaror turgan jo‘g‘rofiy xaritaning chegaralari Birinchi jahon urushi oxirlarida o‘zgara boshladi.

Dunyo siyosiy tarixida yuz bergan eng qonli mojarolardan biri hisoblangan Birinchi jahon urushidan keyin o‘sha davrning eng qudratli kuchlari bo‘lgan Angliya va Fransiya Yaqin Sharqda Usmonli imperiyasi merosi bo‘lgan erlarni bo‘lib oldi⁷⁷. 1920-yilda San-Remo Konferensiyasida ular arab dunyosini “Sayks- Piko kelishuvi” asosida bo‘lib olish jarayonini amalga oshirdi⁷⁸.

Usmonli imperiyasiga qarshi qo‘zg‘olon qilishi uchun Makka sharifi (amiri) Husaynga arab imperiyasini qurib berishni va’da qilgan Angliya (MakMaxon ahDSLashuvi) urushdan keyin bu va’dasidan voz kechib, Fransiya bilan birga alohida to‘rtta davlat tashkil etishga kirishdi⁷⁹.

Stol ustida oddiy chizg‘ich bilan chizilgan bu xaritaga ko‘ra Suriya va Livan Fransiyaning, neft zaxiralariga boy bo‘lgan Iroq va Falastin Angliyaning qaramog‘iga tashlandi⁸⁰. Biroq bu davlatlar vaqt o‘tishi bilan o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, G‘arb davlatlarining neftga yo‘naltirilgan siyosati tufayli uzoq vaqt davomida mintaqqa etnik, siyosiy va mazhablararo ziddiyatlarga maydon bo‘lib qolaveradi.

Ana shu mustamlakachilikning oqibatlari bugun Yaqin Sharq mintaqasidagi chegara borasidagi kelishmovchiliklarda ko‘rinmoqda. Usmonli imperiyasi qulaganidan keyin mintaqada paydo bo‘lgan davlatlarning chegaralari asl holatdan tashqari, ya’ni o‘sha

⁷⁷Каранг: Конференция в Сан-Ремо(1920). <https://guide-israel.ru/history/26556-konferenciya-v-san-remo-1920/>

⁷⁸ Сан-Ремо конференция 1920. <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/099/481.htm>; Соглашение Сайкса-Пико (1916). <https://guide-israel.ru/history/22469-soglashenie-sajksa-piko-1916/>

⁷⁹Gingeras, R. V. (DE-588)1054317097, (DE-576)304137731, aut. (2016). Fall of the sultanate: the great war and the end of the Ottoman empire, 1908-1922 / Ryan Gingeras. Retrieved from <http://search.ebscohost.com/login.aspx?direct=true&site=eds-live&db=edswao&AN=edswao.454939590>

⁸⁰Сан-Ремо конференция 1920. <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/099/481.htm>

paytlarda ushbu mintaqada hukmron qudratga ega bo'lgan Angliyaning manfaatlari ko'zlangan holda chizilgan.

Bu mintaqo o'sha paytda Angliya uchun juda muhim bo'lgan Hindiston savdo yo'lining xavfsizligini ta'minlash uchun bufer zona vazifasini o'tar edi. Boshqacha qilib aytganda, mintaqadagi davlatlarning chegaralari shakllantirilishida ularning etnik, jo'g'rofiy, madaniy va iqtisodiy omillar umuman hisobga olinmaygan va natijada bu hudud xavfsizlik parametrlari bo'yicha dunyoning eng nozik nuqtasiga aylandi.

Ahmet Davuto'g'lu o'z ta'biri bilan Yaqin Sharqdagi xavfsizlik muammosiga quyidagicha izoh bergen edi: "Yaqin Sharqdagi chegaralar juda yomon qurilgan devorga o'xshaydi. Bu omonat turgan devordan birorta toshni ko'chirish devorni qulashga olib kelishini bilgan holda uning tagida qolishni istamayotgan xalqaro kuchlar devordagi har xil toshlarni harakatga keltirib, devorni qulatmasdan unga yangi shakl berishga intilmoqda".

Ikkinchi jahon urushi esa unda ishtirok etgan qator mamlakatlar diqqat-e'tiborini kelajakda o'z mavqelarini saqlab qolish va yuksaltirishning asosiy omili bosib olib egalik qilish emas, ta'sir doirasida saqlab qolish masalasida va eng muhimi boy energetik resurslarga egalik qilishda ekanligiga yo'naltirdi. Bu mushkul ish doirasida energetik resurslarga egalik qiluvchi mamlakatlarni munosabatlarni buzmasdan, ularning oralarida ziddiyatlarni rivojlantirgan holda o'z maqsadlariga boshqarish vazifasi ham yotardi. Shunday tarzda boshqaruv o'tgan asrning oxiriga qadar davom ettirildi. Ammo O'rta Sharq xalqlari dunyoqarashining o'zgarib borishi, endi bunday egalik tamoyillarini rad eta boshlagach, Yevropa va Amerika davlatlarining mazkur hududga nisbatan yangi yondashuvlari shakllanishiga zamin hozirladi. Bu go'yo "demokratik tamoyillar va institutlarni rivojlantirish vositasida bu hududlarni sivilizatsiyalashtirish" maqsadlarini nazarda tutgan, aslida iqtisodiy resurslarga egalik qilishning yangi konsepsiyalardan biri edi.

Shuni ham aytish kerakki, Jorj Bush 2004-yilgi "Katta sakkizlik" sammitida "Buyuk Yaqin Sharqni demokratlashtirish" bo'yicha yangi Amerika doktrinasini e'lom qildi va shu tariqa "Greater Middle East", degan ma'noni anglatuvchi yangi "Katta O'rta Sharq" tushunchasini taqdim etdi. Yangi konsepsiya arab davlatlarini ham, Janubiy Kavkaz, Markaziy Osiyo, Eron, Af'oniston, Turkiya va Pokiston davlatlarini ham qamrab olgan

edi. Shunday qilib, musulmon davlatlarining aksariyati, janubisharqiylar mamlakatlar bundan mustasno, "bitta guruh"ga kiritildi. "Katta O'rta Sharq" tufayli Bush so'nggi paytlarda Xantington tomonidan aytilgan "sivilizatsion nazariyalar g'oyalarini buzmasdan vaziyatni soddalashtirish" taklifini ilgari suradi⁸¹. Aslida AQSh ma'muriyati xuddi shu konsepsiya asosida yevrotsentristlar nazarda tutgan "Islomsivilizatsiyasi" nomli tubdan vayron qilishga qaratilgan konsepsiyasini siyosiy-strategik nom bilan almashtirib, uni "Katta Yaqin Sharq" deb atagan. Mazkur konsepsiyaning amalga tatbiq etilishi esa O'rta Sharq deb ataladigan mintaqadagi hanuzga qadar davom etayotgan qurolli to'qnashuvlarning asosi bo'lib kelmoqda.

4.2.2. Hukumatdagi ozchilik vakolatlari

Yaqin Sharqdagi davlatlarning aksariyatida qaror qabul qilish jarayonlari hukmronlik qilayotgan yetakchilarning monopoliyasi ostida bo'lib kelmoqda. Ularning bir qanchasi Respublika tipidagi yoki demokratik rejimdagи davlatlar deb e'lon qilingan bo'lsada, mamlakatda hukmronlik qilayotgan korrupsiyon hukumatlar xokimiyatga egalik qilishda davom etmoqdalar. Shuningdek, ushbu mamlakatlarning yana bir umumiy xususiyati shundaki, ichki iqtisodiy tarmoqlarga egalik qilish, ayni paytda tashqi siyosatni belgilash yetakchi shaxslarning siyosiy salohiyati va mafkurasi ta'sirida shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, hukumat tepasiga kelgan rahbarlarning shaxsiy xususiyatlari va mafkuralari ichki va tashqi siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'limoqda. Bu o'rinda jamiyatning ishtiropi istisno etiladi va rivojlanish jarayonlari xoh u iqtisodiy, xoh siyosiy aspektida bo'lsin shaxslar qarorlariga ko'ra yechim topadi.

Shu sababli, bu mintaqadagi davlatlarning tashqi siyosatidagi natijalarini tahlil qilishda qaror qabul qilish mexanizmiga aloqador shaxslarning dunyoqarashi, har qanday masalaga munosabati, madaniy qadriyatları, siyosiy pozitsiyasi, mafkurasi va madaniyatiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Bu mafkura va madaniyat esa iqtisodiy asoslarda shakllanganligi bilan xorijiy rivojlangan mamlakatlarning e'tiborini tortib keladi.

⁸¹Ближний Восток – подробное описание. <http://www.onetoueast.ru/blizhniy-vostok/8-blizhniy-vostok-podrobnoe-opisanie.html>

Yaqin Sharqda shaxs, jamiyat, davlat, suverenitet va dunyoviylik kabi tushunchalar G'arb jamiyatidagi kabi tushunilmaydi, xalqlarning va boshqaruvni qo'lga olgan yetakchilarning ushbu tushunchalarga taalluqli tafakkuri nihoyatda o'zgaruvchandir⁸².

Uzoq tarixiy zamonlar davomida strategik fikrlash va jo'g'rofiy afzalliklari bilan bir qancha qadimiy sivilizatsiyalarga mezbon bo'lgan bu mintaqada tuzilgan davlatlarning boshqaruv shakllarini din, hokimiyat, kuch-qudrat va zabt etish kabi omillar belgilab kelgan. Bu esa istiqbolli umumijtimoiy loyihalash tafakkurining bir tomonlama rivojlanishiga zamin hozirlagan. Aslida bunda ham butun O'rta Sharq jamiyatini shu tafakkurga yo'naltirgan Yevropa xalqaro tashqi iqtisodiy siyosatining katta ta'sirini ko'rish mumkin.

Davlat daxlsiz, inkor etilmaydigan va oddiy jamiyat vakillari erisha olmaydigan tizim sifatida muayyan sulola va shaxslar vakolati sifatida qabul qilinishi hali-hanuz davom etmoqda. Eski zamonlarda shakllantirilgan davlat boshqaruvidagilarga ilohiy inoyat berilgan, degan e'tiqod aytish mumkinki zamonaviy qonunlar bilan muntazam mustahkamlab boriladi. Hokimiyatga yoki davlatga qarshi chiqish ba'zi erlarda vatan xoinligiga tenglashtirilgan. Bu yo'nalishda bugungi kunda demokratik tizimlarning muhim funksiyasini bajaradigan o'ziga xos oppozitsiya tizimi va turli g'oyalar to'qnashuvida vujudga keladigan boshqaruv uslublari shakllanmagan. Bu esa jamiyatda tub darajadagi islohotlarni amalga oshirish imkoniyatlarini keskin darajada pasaytiradi.

Davlatning yashovchanligini ta'minlash jarayonida daxlsiz o'suvchi shaxs xavfsizligini kafolatlash yoki rivojlantirish e'tiborga olinmagan yoki butunlay inkor etiladi. Muayyan tushunchalarga ko'ra davlat va undagi sulolaviy davomiylig xavfsizligi har qanday shaxs xavfsizligidan muhim va ustun hisoblanishi bugungi kun an'analaridan bo'lib qolmoqda. Ayni mana shu mustaqil va kafolatli o'sish imkoniyatlarining cheklanganligi ko'plab iqtidorli salohiyat egalarining mamlakatni tark etishi yoki xorij kompaniyalari uchun mehnat qilishni afzal bilishiga sharoit yaratadi. Bu o'z navbatida har tomonlama tolerantlikni ilk o'rta asrlardan ham past darajada namoyon bo'lishiga olib kelayapdiki, buning oqibatida xalqaro terrorizm rivojlanishi avj olmoqda⁸³. Bunday holat qisqa qilib aytganda hudud mavqeyi, resurslari va

⁸² Дружиловский С.Б. О теории и практике исламского правления в странах Среднего Востока. <http://middleeast.org.ua/islam/4.htm>

⁸³ Проблема терроризма. <http://middleeast.org.ua/terorizm.htm>

boshqa sharoit, kuch va imkoniyatlaridan foydalanishni ko‘zlagan kuchlarning ayni muddaosi va ular strategiyalarining ijrosi, deyish mumkin.

Mintaqadagi davlatlarning siyosiy tizimlari ikki xil guruhga bo‘linadi. Konservativ monarxiya (Iordaniya, Marokash, Saudiya Arabiston, Bahrayn, Quvayt, Ommon, Qatar va Birlashgan Arab Amirliklari) hamda radikal millatchi tizimlar (Iraq, Eron, Shimoliy Yaman, Liviya va ayrim paytlarda Misr). Bu hududdagi davatlarda ijro hokimiysi monarxlar, qirollar va davlat rahbarlari monopoliysi ostida. Shu sababli bu rejimlarni “an’anaviy monarxiya yoki avtoritar tuzum”, deb atashimiz mumkin. Siyosiy partiyalar, jamoatchilik, nodavlat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari o‘z fikrlarini erkin ifoda etish huquqidан oshkora qonun yo‘li bilan mahrum etilgan. Bularga imkon berilgan hududlarda esa ularni boshqarish allaqachon rivojlangan xorijiy mamlakatlar siyosiy kuchlari ta’siri ostida bo‘lib, ularning bosimiga bardosh bera olmagan hukumatlarning yaqin o’n yillardagi ahvolini butun dunyo kuzatib turibdi⁸⁴. Hozirgi vaqtida butun O‘rta Sharq davlatlarida quyidagi savolga yechim topilgani yo‘q. Monarkik, monopol yoki avtoritar hokimiyatga barham berish va demokratik rivojlanishni yo‘lga qo‘yish xorijiy ta’sir doirasiga tushish bilan barobar, ularni ushlab turish esa ijtimoiy rivojlanish yo‘lidagi katta to‘siq bo‘lib, u qachondir va qandaydir kuchlar ta’sirida albatta barham topishga mahkum.

Shu bilan bir qatorda mintaqadagi davlatlar (Eron, Turkiya va Isroildan tashqari) bir shaxsga bog‘liqligi tufayli ichki siyosiy tashkilotlar va byurokratik institutlarga ega emas. Mintaqadagi rahbarlar o‘z kuch-qudratlarini ichki qo‘llab-quvvatlovchi guruhlar yordamida rivojlantiradi⁸⁵. Bu ham aslida mamlakat ichki parchalanishlarining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Bir qarashda Suriya, Iraq, Misr, Livan, Iordaniya, Jazoir, Liviya kabi mamlakatlarning barchasida mustamlakachi kuchlarga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida⁸⁶ ijtimoiy demokratik hokimiyat elementlari shakllantirildi, lekin mazkur davatlarda halihanuz rivojlanish strategiyasi qat’iy asoslanmay kelmoqda. Chunki aslida demokratik o‘zgarishlar va inqiloblarni boshlagan toifa va guruhlar mustamlakachi davatlarga xayrixoh elita va byurokratik

⁸⁴Партии и организации. <http://middleeast.org.ua/organizations.htm>

⁸⁵Каранг: Шаблон: Монархии Ближнего Востока. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

⁸⁶Шаблон: Монархии Ближнего Востока. <https://www.wikiwand.com/ru>.

sinflar sifatida paydo bo'ldi. Yaqin Sharqda zamonaviy demokratik davlat qurish asoschilari mana shu guruhlar koalitsiyasining o'yinchoqlariga aylantirildi, bunga qarshi turgan vaziyatlarda esa ayovsiz yo'q qilishga duchor qilinmoqda. Shuning uchun mintaqadagi barcha boshqaruvlarda hokimiyat ozchilik bo'lgan elitar guruh qo'lida bo'lishi ma'qul ko'rib kelinmoqda⁸⁷. Ushbu siyosiy rejimlarning asosiy xususiyati shundaki, ular siyosiy jarayonlarni davlat kuchi bilan boshqarib turadi. Ushbu holat elita va xalq orasida keskin farqni keltirib chiqaradi.

Aytish lozimki, Yaqin Sharqdagi ko'pgina mamlakatlarda hukumat elitasi hokimiyat tepasiga xalq roziligi bilan kelmagani uchun ular o'zlarini jamiyat rivojlanish tendensiyalariga xos bo'lgan siyosiy va ijtimoiy tizimlarni yaratishga mas'ul, deb his qilmaydi. Hozirgi vaqtida boshqaruvdagi asosiy tarkib rahbarlar esa mutlaqo xorijiy iqtisodiy ekspansiyaga qarshi kurash ruhiyatida, mantiqan iqtisodiy hujumga qarshi mudofaa tafakkurida etishtirilgan kadrlardan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi mazkur kurashga ijtimoiy yondashuv salohiyatidan mahrum guruhnini tashkil etadi⁸⁸. Bu holat siyosiy qonunchilikni rivojlantirish, unda jamiyat ishtirokini kengaytirish va shu asosda asta-sekin jamiyat mavqeyini har tomonlama ko'tarishni yo'nga qo'yishga to'sqinlik qilmoqda.

Boshqa bir tomondan yangi davlatlarning elitalari o'zlarini vakillik qilayotganlar bilan bir xil "siyosiy tilda" gaplashmaydilar va ularning manfaatlari yo'lida katta ijtimoiy adolatlarni amalgalashishdan ko'ra mavjud ijtimoiy tuzulmani ushlab qolish va boylik taqsimotini saqlab qolishni ma'qul ko'radilar.

Yaqin Sharq mintaqasidagi etnik va mazhablararo ziddiyatlarning yana bir muhim manbayi diniy va etnik ozchilik vakillarining mamlakatdagi ko'pchilikka ega bo'lgan boshqa guruhlar ustidan hukmronlik qilishi bo'lib qolmoqda. Misol keltiradigan bo'lsak, 2003-yilda Iroq ishg'ol qilinishiga qadar mamlakatdagi mazhablar orasida shialar ko'pchilikni tashkil qilganiga qaramay, davlat boshqaruvi sunniylar qo'lida edi. Shuningdek, Iroqqa qo'shni bo'lgan Suriyada uzoq vaqtlar boshqaruvni o'zida saqlab kelgan sunniylar harbiy to'ndaruvdan keyin hukumat tepasiga kelgan Hafiz Asad davridan beri ozchilik

⁸⁷ Монархия гарант стабильности Ближнего Востока?!
<http://thegreatermiddleeast.com/2016/09/26/monarxiya-qarant-stabilnosti-blijneqo-vostoka/>

⁸⁸ Монархия гарант стабильности Ближнего Востока?!
<http://thegreatermiddleeast.com/2016/09/26/monarxiya-qarant-stabilnosti-blijneqo-vostoka/>

vakillari bo'lgan alaviylar tomonidan boshqarilmoqda. Davlat hokimiyati elitar tarkibining bunday shakllanishi o'ta xavfli bo'lib, yaqin tarixda xorijiy siyosiy manfaatdor doiralar mazkur mamlakatlarga iqtisodiy ta'sir o'tkazishda oshkora tazyiqlarida bundan unumli foydalandilar. Shartlarga rozi bo'Imagan davlat elitalari esa go'yoki o'z xalqlari tomonidan diktatorlar sifatida bartaraf etildi va bu mamlakatlarning birortasi hozirga qadar demokratik hukumat yaratib, tinch va barqaror rivojlanish yo'liga kira olgan emas.

Natija shuki, ushbu mintaqada joylashgan davlatlarda boshqaruv xorij tanlagan elita qo'lida va bu elitar tabaqaning o'zgarishiga bo'lgan qarshilik dunyoga arab jamiyatlarining demokratlashtirish masalalariga qarshiligi sifatida tarqatilmoqda. Shu tarzda vujudga kelishi mumkin bo'lgan har qanday muxolif harakatlarning yo'li yollanma elitar qatlama vakillari tomonidan to'silmoqda va odamlarning qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish istagi jangari harakatlarga aylantirilmoqda.

Shu bilan birga mintaqaga mamlakatlarida mahalliy yoki milliy demokratik unsurlarning shakllanishiga yo'li bermaslik, aksariyat mamlakatlarning yaqin o'tmishta mustaqillikka erishgani, etnik, mazhablararo va madaniy o'xshash tuzilmalar shakllantirilishini muntazam xavf sifatida talqin etish aslida ro'y berayotgan ziddiyat va kelishmovchiliklar zamirida yotgan oqibatlardandir.

Mana shu nuqtayi nazardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvlarni bostirish maqsadida davlatlar avtoritarizm yo'lidan boradi va natijada boshqaruv tepasidagi siyosiy liderlar qonuniy asoslarga ega bo'lmoqda⁸⁹. Bu esa hududdagi jamiyatlarning bar-qaror demokratik rivojlanishiga hech qachon imkoniyat bermaydi.

4.2.3. Huquq va iqtisodiy integratsiya muammosi

Yaqin Sharq mintaqasining xavfsizlik nuqtayi nazaridan zaifligining muhim sabablaridan biri bu yerdagi davlatlarning boshqaruvni tashkil etishga tizimli yondashmasligi, kuchsiz va demokratik tamoyillardan uzoq bo'lgan, tor doira manfaatlariga xizmat qiluvchi huquqiy va iqtisodiy tizimlarga qaramligidir. Aslida juda katta imkoniyatlari mavjud Yaqin Sharqda iqtisodni izchil rivojlanishga yo'naltirishda mintaqadagi davlatlar hamjihatligini ta'minlaydigan va ularning har biri uchun iqtisodiy teng imkoniyatlar

⁸⁹Ближний Восток Перестройка). <https://alhistory.fandom.com/ru/wiki>

yaratadigan, shuningdek, hamkor tadbirkorlikka to'sqinlik qilmaydigan huquqiy mexanizmlarni yaratish va ularning uzlusiz ishlashiga ehtiyoj tug'iladi. Mantiqan olganda hozirgi Yevropa Ittifoqini mana shu mexanizm ushlab turibdi va yuksatlishini ta'minlayapdi. Boshqacha qilib aytganda, bu iqtisodiyot va qonunlarning bir-biri bilan uyg'un ishlashi va yaxlitlikka ega bo'lishini talab qiladi. Ming yillardan beri amal qilib kelayotgan feodal xarakterdag'i egalik va uni himoya qiluvchi zamonaviy ko'rinishdag'i qonunchilik tizimi, o'z-o'zidan ma'lumki zamonaviy mehnatga munosabat tamoyillariga mos kelmaydi⁹⁰. Ularni davr talablariga moslashtirishga urinishlar esa hozirgi vaqtida ekstremistik harakatlar yoki muayyan xorijiy davlat siyosiy guruhlari harakati sifatida baholanishi avj olgan. Bunday sharoitda avvalo, xavfsizlik kuchlari faoliyati va vakolatlarini tartibga solishga katta ehtiyoj mavjud, amaldagi holatlarda esa ular mintaqadagi ko'p davlatlarda o'ta tor doiradagi ishlar bilan mashg'ul bo'lib, shunchaki boshqaruva qo'riqchi kuchlari vazifasini bajarib kelmoqda.

Yaqin Sharq davlatlari iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu bir oila yoki bir necha oilalarning boshqaruvda milliarderga aylanib, aholining aksariyatini qashshoqlikda qoldirishdir. Ayniqsa, Shimoliy Afrika davlatlaridan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Zotan, ushbu mintaqada "Arab bahori"ning avj olishi allaqachon biz ayтиб o'tgan antidejomokratik tizimning muqarrar natijasi bo'ldi. Biroq ushbu parokanda iqtisodiyot, uni yaqqol namoyon etib turgan buzg'unchi madaniyat va mentalitetni o'zgartiradigan yoki boshqaradigan huquqiy tizimning yaratilishi va rivojlanishi qisqa muddat ichida amalgal oshiradigan hodisa emas⁹¹. Ta'kidlash lozimki, rivojlangan Yevropa o'z konstitutsion qonunlarini shakllantirish ibtidosida islam shariat qonunlari bazasidan unumli foydalangan, ularni o'z nomlaridan yangi dunyo va zamon demokratik xalqchil qonunlari sifatida e'lon qilib, cherkov dogmalariga qarshi qo'ygan va buning aslida qaerdan kelganligidan mutlaqo bexabar butun elitar qatlam va jamiyatning birdek qo'llab-quvvatlashiga erishgan edi. Hozir O'rta Sharq davlatlari o'z vaqtida Yevropa to'qnash kelgan xuddi mana shunday jarayonlar ichida bo'lsada, mazkur tajribani sinab ko'rishga, shu asosda hokimiyat va

⁹⁰ Ближний Восток Перестройка). <https://alhistory.fandom.com/ru/wiki>

⁹¹ Панасюк М.В. Экономика и внешнезаводническая деятельность исламских стран Ближнего Среднего Востока. Учебно-методическое пособие. -Казан: Изд. КФУ, 2012. -190 с.

boshqaruv tizimini yangilashga mutlaqo harakat qilayotgani yo‘q. Bu esa huquqsizlikning ortida turgan turli darajadagi muammo-larning hatto halokatli tus olishiga zamin hozirlab kelayapdi.

Mintaqaga mos keladigan, bu yerdagi davlatlarning asosiy xususiyatlarini o‘z ichiga olgan va to‘ldiradigan tizimni yaratish o‘nlab yillar davom etadigan, noaniqliklarni keltirib chiqarishi muqarrar haqiqatdir. Qolaversa, mintaqalarning mafkuraviy, xavfsizlik va kuch-qudrat borasida raqobatga kirishishi kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy integratsiya jarayoniga to‘sqinlik qiladi va mintaqani xavfsizlik nuqtayi nazaridan beqarorlik, noaniqlik girdobiga tortadi.

Hozirgi holatda O‘rta Sharqdagi o‘z resurslari va nisbatan kuchli iqtisodiyoti bilan jahon siyosatida ishtirok etishga qobiliyatli ayrim davlatlar o‘zlarining savdo qudratlarini oshirish va mintaqaga nisbatan tashqi siyosatda barqaror obro‘ va ta’sirga ega bo‘lish imkonii ustida kurashmoqdalar⁹². Lekin xalqaro munosabatlarda yetarlicha tarafdar va ayniqsa, o‘zaro bog‘liq hamkorlarga ega bo‘lmasdan bu yo‘lni davom ettirish ular boshiga Liviya kunlarini solishi mumkin. Iqtisodiyoti nisbatan zaif bo‘lgan mamlakatlarning esa, tashqi siyosatdagi harakatlari avvalo, mana shu yon-atroflaridagi nisbatan kuchli mintaqalarning qarshiliklari bilan chegaralanib kelmoqda va bu kelajakdagi hamkorlikda rivojlanish istiqbollarini keng jamiyat manfaatlariga zid ravishda iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlar yoki atrofdagi mamlakatlarga bog‘liq qilib qo‘yan.

Yaqin Sharq mintaqasidagi neftga boy bo‘lgan Eron, Saudiya Arabistoni va Misr, shu bilan birga iqtisodiy erkinligi ta’minlangan Turkiya va Isroildan tashqari, iqtisodiyoti zaif bo‘lgan Yaman, Iordaniya, Suriya, Omon kabi mamlakatlar tashqi investitsiyalar va yordamlarga bog‘liqligi ko‘rinib qolmoqda⁹³. Shu bois tashqi investitsiyalarga bog‘liq bo‘lib qolgan davlatlar tashqi siyosatda ularga yordam berayotgan mamlakatlar manfaatiga zid bo‘lidan siyosat olib boradilar. Natijada maqsadlardagi o‘zaro zidlik effekti yanada kuchayib borayapdi.

Zamonaviy kapitalistik bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan davlatlarning hozirgi global bozorlarda o‘z so‘zini o‘tkaza oladigan

⁹²StJohn, R. B. (2017). Tribes and states in a changing Middle East. International Affairs, 93(1), 226–227. <https://doi.org/10.1093/ia/iw023>

⁹³Cook, S. A. (2011). The Struggle for Egypt: From Nasser to Tahrir Square. Oxford: Oxford University Press. Retrieved from <http://search.ebscohost.com/login.aspx?direct=true&site=eds-live&db=edsebk&AN=395508>

asosiy xususiyati shundaki, ular iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda bozor talablaridan kelib chiqib, bozorning xususiyatiga mos tarzda harakat qiladi, oqilona va yuqori darajali foydaga asoslangan xattiharakat uslubini qo'llaydi, lekin bu harakatni o'ta tor doira manfaatlari uchun amalga oshiradi.

Bu o'rinda Yaqin Sharqdagi davlatlar iqtisodiyotining asosiy xarakteristikasi istisodiyotga oid qarorlarni qabul qiluvchi subyektlar daromadlarni va boyliklarni qayta taqsimlash va o'zaro kelishuv tamoyiliga asoslangan siyosat yuritishdan iborat allaqachon o'z davrini o'tab bo'lgan qoidalarga tayanishini ta'kidlash lozim.

Bu ikki iqtisodiy tuzilma o'rtasidagi farq juda katta. Chunki bu ikki yo'naliш tendensiyalari turli xil iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy tizimlarning shakllanishiga, rivojlanishiga, o'zgarishiga va ba'zi hollarda yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan iqtisodiyot bo'yicha harakatlarni faqat hukumat darajasida tashkil etish va boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun yetarli emasligi aniq ko'rinish turibdi. Bu borada mintaqada davlatlarida iqtisodiy integratsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish va qisqa muddatlarda uning samara berishiga erishish quruq gapdan nariga o'tmayapti.

Ushbu iqtisodiy tanglikning asosiy sababi sifatida rivojlanishni rag'batlantirish va yo'naltirish uchun institutsional tuzilmalar va mexnanzimlarining yetishmasligi va mavjudlarining korrupsiyaga aralashganini ko'rsatish mumkin. Ushbu sabablarning barchasi Yaqin Sharq mintaqasida iqtisodiy integratsiyaga eng katta to'siq bo'layotgan omillar hisoblanadi.

Birinchi jahon urushidan keyin mintaqada davlatlarining mustamlakaga aylanishi va bu hududdagi yerosti boyliklarining talon-taroj qilinishi ham mintaqadagi iqtisodiy tuzilmalarning rivojlanmaganining asosiy sabablaridandir⁹⁴. Ushbu sharoitda yaratilgan mintaqada ehtiyojlarini qondira olmaydigan moliviy va iqtisodiy tuzilmalarning tashkil etilishi va ushbu muassasalar o'rtasida ochiq aloqa tarmoqlarining yo'qligi sohaning zamonga mos tarzda taraqqiy etishiga to'sqinlik qildi.

Bu davrda G'arb davlatlari tomonidan yaratilgan sun'iy boshqaruva va institutsional tuzilmaning nomuvofiqligi, mintaqada

⁹⁴Gingeras, R. V. (DE-588)1054317097, (DE-576)304137731, aut. (2016). Fall of the sultanate: the great war and the end of the Ottoman empire, 1908-1922 / Ryan Gingeras. Retrieved from <http://search.ebscohost.com/login.aspx?direct=true&site=eds-live&db=edswao&AN=edswao.454939590>

xalqlarining asosisiy ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli boshqaruv va tizimlarning yo'liga qo'yilmagani yoki ularning qonuniy asosda amalga oshirilmagani ham asosiy kamchiliklardan bo'lib qolmoqda. Bu to'siq va muammolar umumiy ma'noda o'lkaning siyosiy va iqtisodiy salohiyati yetarli darajada emasligini ko'rsatadi.

Buning tabiiy natijasi sifatida davlatlarning iqtisodiy siyosatining asosiy vositasi bo'lgan soliq-byudjet, pul-kredit va daromat siyosati ularni rivojlanishning dastlabki shartlarini yaratadigan va uni barqaror ushlab turadigan doirada ishlab chiqishi va amalga oshirishga imkon bermaydi.

Bularning barchasiga qo'shimcha ravishda mintaqaning deyarli har bir mamlakatida xavfsizlikning zaifligi bu hududga kirib keladigan xorijiy investitsiyalar va mintaqadagi ichki iqtisodiy faoliyatning sog'lom amalga oshirilishi oldida katta to'siq bo'lib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, Yaqin Sharq davlatlarining iqtisodiy va huquqiy sohada yuzaga kelgan kamchiliklari tashqi siyosatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro hamjamiyatga qo'shilishdagi qiyinchiliklar, ichki siyosatning beqarorligi, xavfsizlik sohasidagi ikkilanishlar, mazhablararo ziddiyatlar iqtisodiy barqarorlikning o'rnatilishiga xalaqt qilmoqda.

Shuningdek, mintaqadagi xalq harakatlari, moliyaviy-iqtisodiy infratuzulmaning yetarli emasligi, ta'lim tizimidagi yetishmov-chiliklar ta'sirida olimlarning ketib qolishining ortishi, demografik holatning buzilishi oqibatida kelib chiqadigan muammolarni bartaraf eta oladigan sog'lijni saqlash tizimining yo'qligi, bir xil tovarlar va xizmatlardan iborat zaif iqtisodiy tizim vujudga kelgani, moslashuvchan ishchi kuchi va mehnat bozorining yo'qligi, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimining yo'liga qo'yilmaganini mintaqqa mamlakatlarining iqtisodiyotidagi katta to'siqlar qatoriga qo'shish mumkin.

4.3. "Arab bahori" va mintaqada xavfsizlikka tahdid soluvchi yangi muammolarning yuzaga chiqishi (Suriya misolida)

Arab dunyosida boshlangan avtoritar hokimiyatga qarshi kurashlar 2010-yilga kelib butun Shimoliy va Yaqin Sharqdagi mamlakatlarni qamrab oldi. O'sha yilning dekabrida Tunisda Muhammad Buaziz ismli meva sotuvchi chakana savdogar hokimiyatdan norozi bo'lib o'ziga o't qo'yishi natijasida "Arab

“bahori” deb nomlangan namoyishlar zanjiri boshlanib ketdi. Ushbu namoyishlar qonli tus olib, Shimoliy Afrikadagi Tunis, Misr va Liviya kabi arab davlatlarida siyosiy hokimiyatning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Xalq namoyishlari shunchalik shiddatli tusga kirdiki, natijada Tunisda 23 yil hokimiyat tepasida turgan Zaynal Obidin bin Ali chet elga qo‘chib ketishga majbur bo‘ldi. Misrning 30 yillik prezidenti Husni Muborak ham xalq namoyishidan keyin 2011-yil 11-fevral kuni o‘z iste‘fosini e‘lon qildi. Qisqa vaqt ichida xalq namoyishlari Yaqin Sharqdagi Yaman va Suriya kabi davlatlarga ham tarqaldi⁹⁵.

Aksariyat G‘arb davlatlari tomonidan bu namoyishlar mintaqada demokratiyaga qo‘yilgan qadamlar sifatida qaralgan bo‘lsada, “arab bahori” Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqda beqaror vaziyatni keltirib chiqardi. Bu muammolar qatoriga diniy, mazhablararo va etnoslar o‘rtasidagi ziddiyatlar qo‘shildi. Bu esa o‘z o‘rnida mintaqadagi siyosiy beqarorlikni mudhish ko‘rinishga olib keldi.

Aytish kerakki, Suriyada Rossiyaning O‘rta Yer dengizidagi yagona harbiy bazasi joylashgan, shuningdek, u arab davlatlari orasida Eronning yagona ittifoqchisidir. Biroq Suriya inqirozi mintaqaviy va global kuchlarning aralashuvi natijasida xalqaro darajaga ko‘tarildi, deyish mumkin. Yon qo‘shniligi sababli esa Suriyadagi siyosiy vaziyat Turkiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Shunga ko‘ra biz mazkur o‘rinda Suriya inqirozi, Asad rejimiga qarshi shakllangan qurolli muholifat kuchlari va Suriya masalasiga mintaqaviy va xalqaro kuchlarning ta’sir haqida, shuningdek, Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Turkiya, Iroq, Iordaniya, Isroiil va Livan bilan chegaradosh, O‘rta yer dengizida qirg‘oqlariga ega Suriya Yaqin Sharq mintaqasida va Arab dunyosida o‘z strategik mavqega ega. Suriya Isroiil-falastin mojarosiga geografik yaqin hududdir. Amaldagi hokimiyat vakillari Islom dinining shia mazhabiga mansub va mamlakatning 911 km quruqlik qismi Islomning sunniy mazhabiga amal qiluvchi Turkiya chegaradosh. Bu hududga rasmiy Tel-Aviv, Tehron va Anqarada katta ahamiyat qaratiladi. Suriya Turkiya va

⁹⁵Afret, Y. B. (2016), “The Social and Political Roots of the Syrian Revolution” (Mayis 17, 2016 tarihinde Daam Workers Party Web Sitesi: <http://en.daam.org.il/?p=774>

Isroil uchun xavfsizlik nuqtayi nazaridan, Eronning mintaqadagi tashqi siyosati uchun esa jug'rofiy jihatdan muhim va Livandagi barqarorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'siri o'tkazadigan aktordir.

Bashar Asad hokimiyati arab davlatlari boshlangan xalq namoyishlarini Suriyaga ham ta'sir etishini bilmas edi. U 2011-yil 31-yanvar kuni "The wall street journal" gazetasiga bergen intervyusida "Misr, Tunis va Yamanda sodir bo'lgan namoyishlar Yaqin Sharqda yangi bir davrning boshlanishiga sabab bo'ldi. Arab davlatlari hokimiyati bundan buyog'iga xalqning siyosiy va iqtisodiy talablarini qondirish uchun kerakli choralarini ko'rish kerak", - deb aytgan edi⁹⁶. Biroq namoyishlar 2011-yilning fevral oyida Suriyaning Dar'a shahrida ham boshlandi. Dar'ada mamlakat harbiylarining Asad rejimiga qarshi bo'lgan namoyishchilarni bostirish maqsadida ularga qarshi harbiy kuch ishlatalish natijasida namoyishlar Damashq, Halab va Humus shaharlariiga ham yoyilib ketdi.

Suriyadagi namoyish ishtirokchilari Asad hukumatidan siyosiy va iqtisodiy islohatlarni talab qila boshladi. Ular 1963-yildan beri Suriyada davom etib kelayotgan favqulodda rejim holatini bekor qilish ichki ishlar va sud tizimi xodimlari vakolatlarini qayta ko'rib chiqish, fuqarolar haq-huquqlariga oid yangi qonunlar qabul qilish (Suriyada fuqarolikka ega bo'Imagan etnik ozchilik vakillariga fuqarolik berish masalasi), mamlakat byudjetini barcha viloyatlar kesimida adolatlilik taqsimlash, siyosiy partiyalar faoliyatiga qo'yilgan to'siqlarni olib tashlash va Baas partiyasining vakolatlarini cheklash kabilarni o'z ichiga olgan edi.

Xalq namoyishi ishtirokchilari tomonidan qo'yilgan talablardan keyin Bashar Asad bir qancha islohatlarni amalga oshirishga majbur bo'ldi. 2011-yil 29-mart kuni amaldagi hukumat tarqatib yuborilib, Suriya qishloq xo'jaligi vaziri bo'lgan Adil Safer rahbarligida yangi hukumat tashkil etildi. Bashar Asad yangi hukumatga 1963-yildan beri davom etib kelayotgan favqulodda holat rejimini bekor qilishga ko'rsatma berdi. Shuning bilan bir qatorda mamlakatda fuqarosiz bo'lgan 300 minga yaqin kurdrlarga Suriya fuqaroligi berildi.

Asad hokimiyati muxolifat talablari bo'yicha qonunchilik bazasida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi, ammo u siyosiy islohatlarni amalga oshirishga shoshmadi. Natijada xalq

⁹⁶Azimov, H. Y. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, (4), 92-97.

namoyishlari ortib bordi. Masalan, Asad 2014-yilda prezidentlik uchun adolatli saylov o'tkazishga va'da bergenligiga qaramasdan referendum o'tkazish yo'li orqali konstitutsiyaga o'zgartirish kiritib, hokimiyatda qolishi muddatini 2028-yilga qadar uzaytirdi.

2011-yilning aprel oyiga kelib Suriyada 1963-yilda joriy qilingan favqulodda holat rejimi bekor qilindi. Ammo Suriya ichki ishlar tizimi tomonidan muxolifatchilar va namoyishchilar ayoysiz tarzda jazolanishi davom etdi. Hukumat Suriya fuqaroligi berilgan kurdлarni harbiy xizmatga jalb etish orqali ularning Suriya muxolifatiga qо'shilishining oldini olish maqsadi ko'zlangan edi. Biroq ular mamlakatning shimoli va shimoliy-sharqidagi kurdлardan iborat PKK terorchi tashkiloti (Kurdiston ishchi partiyasi) va PYD (Demokratik birlik partiyasi) bilan hamkorlik qilishni yo'lga qо'ydi. Shu sabali Suriyadagi xalq harakatlari guruhlarga bo'lingan holda maqsadlari o'zgardi. Dastavval islohat talab qilgan xalq, Asad rejimi tomonidan bosim ostida qolgach, uning hokimiyatdan ketishini talab qila boshladi. Natijada hukumat armiyasi namoyishchilarni bostirish maqsadida ularga qarshi qurolli harakat olib bordi. Bu harakat Suriya xalqi va Baas rejimi o'rtasidagi munosabatning buzilishiga olib keldi.

Asad hukumati xalqning islohat talablarini e'tiborsiz qoldirib, ularga qarshi harbiylar tomonidan kuch ishlatilishi va muxolifatga qarshi shafqatsiz munosabatda bo'lishi, mamlakatdagi ommaviy tinch namoyishlarni qurolli kurashlarga aylanishiga sabab bo'ldi. Ikki tomon o'rtasidagi qurolli qarama-qarshiliklar natijasida, 100 mingdan ziyod inson vafot etdi, bir necha million aholi doimiy yashash joyini tashlab ketishga majbur bo'ldi.

Suriyada davom etayotgan fuqarolar urushi oqibatlari bugunga kelib mintaqadagi boshqa davlatlarning malliy xavfsizligiga ham tahdid solib, transchegaraviy turli muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Suriya inqirozi mintaqaviy va global miqyosdagi siyosiy inqirozga yo'l ochishi, Yaqin Sharqda shialar va sunniylar o'rtasidagi ziddiyatning qaytadan jonlanishiga, Suriyaga qо'shni bo'lgan Turkiya uchun qochoqlar muammosi va kurd masalasining kuchayishiga zamin yaratdi.

Suriya muammosi yuqorida aytib o'tilganidek, lokal muammodan global inqirozga aylanishida unga mintaqa hamda tashqi kuchlarning munosabati albatta muhim ahamiyatha ega. Turkiya va mintaqadagi bir qator arab mamlakatlari Suriya xalqining siyosiy va iqtisodiy talablari qondirilishi va mamlakatdagi

siyosiy hokimiyatning almashishi tarafidordir. Suriyadagi inqirozga Eron boshqa bir tomondan yondashgan holda, shialikning nusayriy firqasidan bo‘lgan amaldagi Asadning hokimiyati saqlanib qolishidan manfaatdor edi. Suriyada baaschilarning hokimiyatdan ketishi Eron uchun katta xavfdir va Eronda navbatdagi rejim o‘zgarishi sodir bo‘lishiga yo‘l ochishi mumkin. Shuningdek, Tehron hukumati Asadning hokimiyatdan ketishi uning Yaqin Sharqdagi “Shia hiloli” loyihasining amalga tatbiq etilishda to‘siq bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi.

Suriyadagi siyosiy beqarorlik borasida global darajada ikki xil qarash tendensiyasi mavjud. Rossiya va Xitoy kabi davlatlar xalqaro munosabatlardagi davlatlarning Vestfalya shartnomasida keltirilgan suverenitetni ilgari surgan holda, Suriyadagi fuqarolar urushini davlatning ichki ishlari sifatida baholaydi. Unga tashqi kuchlarning aralashuvi kerak emas, deb hisoblaydi. AQSh boshchiligidagi G‘arb dunyosi davlatlarning suverenligini e’tirof etgan holda Suriyada inson huquqlari poymol qilinmoqda, deb qaraydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, boshqa arab davlatlari kabi Suriyadagi xalq namoyishlari muvaffaqiyatga erisha olmadi. Tunis va Misrda amaldagi hokimiyat ag‘darilishi bilan tugagan namoyishlar Suriyada 8 yillardiki Asad rejimini ustidan g‘alaba qilish yo‘llarini topa olmay kelmoqda. Shu o‘rinda Suriyada Asad rejimining yashab qolishi va muxolifat harakatining muvaffaqiyatsizligiga sabab bo‘lgan ba’zi hal qiluvchi omillarni aytib o‘tish joiz.

Suriya aholisi Tunis, Misr va Liviyadagi kabi gomogen emas va hokimiyat qariyb 40 yildan beri mamlakatdagi diniy ozchilikni tashkil qiluvchi nusayriylar qo‘l ostida. Suriyada namoyishlar qurolli to‘qnashuvlarga aylangach, Bashar Asad boshqalardan farqli o‘laroq muxolifatchilarga qarshi kurashishda tashqi kuchlardan yordam oldi. Bundan tashqari, Suriyadagi muxolifatchi guruuhlar ichida birlikning yo‘qligi Asad hokimiyatining saqlanib qolinishiga va inqirozning uzoq vaqt cho‘zilishiga sabab bo‘ldi. Suriyada Bashar Asad diniy mansub bo‘lgan nusayriylar mamlakat aholisining 12% ni tashkil etadi. Ular Baas rejimi o‘rnatilgan davrdan beri mamlakatdagi harbiy, sud-huquq tizimi, turli vazirlik va idoralarda katta mavqedagi lavozimlarni egallab olgan. Bu omil ham Asad rejimini osonlikcha hokimiyatdan ketishi mumkin emasligini anglatadi. Rejimi haligacha Suriya hokimiyatiga egalik qilishining asosiy omili yuqorida aytib o‘tilganidek, tashqi kuchlarning yordamidir. BMTning Xavfsizlik Kengashi tomonidan

Suriyadagi siyosiy rejimni o‘zgartirishga oid qator qarorlarga Rossiya va Xitoy birgalikda qarshilik ko‘rsatmoqda.

Suriya masalasida Rossiya hamda Xitoy doimiy ravishda o‘zgarmas pozitsiyada. 2011-yilda Rossiya Suriyaga 1 milliard AQSh dollari miqdoridagi qurol-aslaha sotgan va uni Rossiya tomoni Suriya hukumati mavjud qonuniy hokimiyatining mудоfaasi uchun muhim ekanligini bildirgan⁹⁷. Eron hukumati ham shu kunga qadar Suriyadagi amaldagi hokimiyatni har tomonдан qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Eron Suriya masalasi BMTning Xavfsizlik kengashi kun tartibiga qo‘yilishiga boshdan beri e’troz bildirib keldi. Hattoki, Eron tomoni Suriya rejim hokimiyatiga ko‘mak berish maqsadida Eron inqilobi himoyachilaridan iborat harbiy kuchlarni ham yuborganligi ma’lum.

Suriya inqirozini yaxshiroq tahlil qilish uchun u yerda faoliyat olib borayotgan muxolif va terrorchi guruhlarga to‘xtalib o‘tish lozim. Zero, hududdagi mavjud guruhlar har tomonlama u yoki bu davlatlar tomonidan ta’minlanib kelmoqda.

Ayrim tahlilchilar fikriga ko‘ra, AQShning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy manfaatlari mintaqadagi neft va gaz mahsulotlarini ishlab chiqarilishi va uning savdosi ustidan nazarat qilish hamda mintaqadagi etnik va diniy nuqtayi nazardan yolg‘izlanib qolgan Isroil xavfsizligini ta’minlashdan iborat.

Shu sababdan ham AQSh Isroil xavfsizligiga tahdid solib keladigan butun bir Suriyani xohlamaydi. 2012-yildan shu kunga qadar mintaqadagi bir nechta muxolif kuchlarga harbiy va iqtisodiy ko‘mak berib kelinmoqda.

2016-yil AQSh Iraq va Iordaniya chegarasi yaqinidagi al-Tanfda harbiy baza qurdi. Bu bazada “Megavir al-Tavra” jangarilari AQSh harbiylari tomonidan maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan. AQSh yordamida ancha kuchaygan Suriyadagi mahalliy kurdlardan iborat “Kurd xalqi mudofaa birligi” (YPG) 2012-yildan mamlakatning shimoliy-sharqiy qismlarini o‘z nazoratiga oldi. AQSh kurdlarni Suriyadagi ISHID jangarilariga qarshi qurrolantirib kelganini ma’lum qilgan.

Mintaqadagi vaziyatni o‘z nazoratida ushlab turishni istagan AQSh nafaqat kurdlardan iborat muxolif guruhlarga, balki mahalliy arablarga ham yordam berib kelmoqda.

⁹⁷ Suriye'dekimnereyi kontrolediyor? <https://www.dw.com/tr/suriyede-kim-nereyi-kontrol-ediyor/a-45364918>

AQSh ittifoqdoshlari yordami bilan Suriyada Asad hokimiyatiga qarshi bo‘lgan kurd va arablardan iborat “Suriya demokratik kuchlari” guruhini tashkil qildi. Hozirgi kunda “Suriya demokratik kuchlari” guruhi mamlakatning Furot daryosi sharqidagi hududlarini, jumladan, IShIDning poytaxti sanalgan neft va gazga boy bo‘lgan Raqqani ham o‘z nazoratida saqlab turibdi. 2016-yilda “Suriya demokratik kuchlari” guruhi Furotning g‘arbiy qismidagi Myunbichga kirishi Turkiya tomonidan katta tashvish bilan qarshilandi, chunki Turkiya tomoni “Kurd xalqi mudofaa birligi” (YPG)ni “Kurdiston ishchi partiyasi”ning (PKK) Suriyadagi bo‘linmasi sifatida qarab keladi. Myunbichning jangari kurdlar tomonidan nazoratga olinishi AQSh va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarga ham sovuqlik tushurmasdan qolmadi.

Suriyadagi jarayonlarga befarq bo‘lмаган yana bir davlat borki, u haqida alohida to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Bu Rossiya mamlakatidir. Rossiya va Suriya o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar XX century 60 yillariga borib taqaladi. 1971-yilda SSSR Suriyaning Tartus shahrida harbiy baza qurban edi. SSSRning parchalanishidan keyin uning siyosiy vorisi sifatida harbiy baza nazorati Rossiya tomoniga o‘tgan. Tartus harbiy bazasi Rossiya dengiz kuchlarining Yaqin Sharq va O‘rta Yer dengizidagi yagona bazasi hisoblanadi. Rossiya hukumati Suriyada Asad rejimining saqlanib qolishidan har taraflama manfaatdor. Shu sababli ham u Suriya inqirozi davrida to‘laligicha Asad rejimini qo‘llab kelmoqda.

Mintaqadagi Suriya inqiroziga jiddiy xavf sifatida qaraydigan davlatlardan biri Turkiya bo‘lib, Suriyada 10 yildan beri davom etayotgan inqiroz natijasi Turkiyaning milliy daxlsizligiga hamda uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta’sir etib kelmoqda. Zotan, bu ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar avval boshdan risoladagidek emasdi. Bashar Asadning otasi Hofiz Asad Turkiyadagi terrorchi tashkilot sifatida qaraladigan “Kurdiston ishchi partiyasi” (PKK) rahbari va uning a’zolariga ko‘mak berib kelganligi, bu ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarga jiddiy ta’sir qilgan edi. Uning kurdlar rahbari Abdulloh O‘jalonga (Abdulloh O‘jalon 1988-yilda Turkiya milliy xavfsizligi tomonidan maxsus operatsiya natijasida Keniyada qo‘lga olingan. Hozirda Turkiyada umrbod qamoq jazosini o‘tamoqda) siyosiy boshpana bergenligi bunga yaqqol misoldir.

Suriya inqirozi natijasida Turkiya qochqinlar oqimiga duch keldi va o‘zining sharqiy viloyatlarida suriyalik qochqinlarning katta

qismini qabul qildi. Turkiya miliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra hozirda mamlakatda suriyalik qochoqlar soni 3-4 million atrofida ekanligi aytilgan. Buncha qochoqlarni qabul qilish mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar keltirmoqda. Shuning bilan birga mahalliy turklar va qochoqlar o‘rtasida turli ziddiyatlarning ortishi va jinoyatchilik darajasining keskin ko‘payganligi Turkiya uchun katta muammoga aylandi.

Turkiya 2016-yilda “Furot qalqoni”, 2018 yilda “Zaytun navdasi” va 2019-yilda “Tinchlik bulog‘i” nomlari bilan mamlakatdagi muxolif kuchlarga yordam berish maqsadida uch marta Suriya hududlarida harbiy harakatlar olib bordi. Chegara orti harbiy harakatlari Turkiyaning milliy xavfsizligiga tahdid sifatida qarab kelingan jangari kurdлarni o‘z chegarasi yaqinidan janubga qarab uzoqlashtirishdan iborat edi. Shuning bilan bir qatorda Turkiya o‘z hududiga Suriyadan qochib o‘tgan qochoqlarni o‘z mamlakatiga qaytarish va ular uchun Turkiya—Suriya, hududi yaqinlarida xavfsiz hudud tashkil etishini iborat ekanligini ma’lum qilgan.

Turkiya Suriyadagi bir nechta harbiy guruhlarga ham o‘z ko‘magini berib kelmoqda. Jumladan, “Suriya milliy armiyasi” shulardan biridir. “Suriya milliy armiyasi” mahalliy Asad rejimiga va jangari kurdлarga qarshi bo‘lgan arab va turkman (ularni ayrim manbalarda “Bayir-bujak turkmanlar” deb ham atashadi)lardan iborat harbiy guruh. 2017-yilan beri bu guruh Turkiya yordami bilan Suriyaning shimoliy qismidagi katta hududлarni nazorat qilib kelmoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Turkiya tomoni “Zaytun navdasi” va “Tinchlik bulog‘i” harbiy harakatlarini shu guruh yordamida birgalikda amalga oshirgan.

2019-yil oktabr oyida Turkiya milliy armiyasining mamlakatning Suriya bilan chegaradosh hududlarida kurd terrorchi guruuhlarining yaqinlashganligidan xavotirga tushgan holda “Tinchlik bulog‘i” harbiy harakatlarini boshladi. Uning natijasida Rasulayn va Tel-abyod shaharlari turk va suriyalik harbiylar tomonidan qurshab olindi. Natijada, kurdlarning manfaatini himoya qilish maqsadida AQSh hukumatidan Vitse-prezident Mayk Pens boshchiligidagi hay‘at Anqarada muzokara o‘tkazdi. Muzokara natijasida kurd jangarilari yuqorida nomi keltirilgan hududlardan chiqib ketishi uchun 5 kunlik muddat berildi. Kelishuvga ko‘ra, agar “Kurd xalqi mudofaa birligi” (YPG) 120 soatlik muddat ichida chiqib ketmasa, harbiy harkat qaytadan

boshlanishi Anqara hukumati tomonidan ma'lum qilindi. Kurdlardan iborat harbiylar hududni tark etishiga AQSh hay'ati tomonidan kafolat berilganligi ham ta'kidlandi⁹⁸.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Yaqin Sharq mintaqasidagi etnik muammolarni sanab bering;
2. Mintaqqa xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy muamolar qaysilar,
3. "Arab bahori"dan keyingi davrda mintaqada yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni sanab bering.

⁹⁸Azimov, H. Y. (2021). Emergence Of New Threats To Turkey's National Security During The Syrian Crisis: "Euphrates Shield" Movement. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(01), 42-48.

V MAVZU. JANUBIY OSIYO MINTAQASIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA KASHMIR MUAMMOSINING AHAMIYATI

Reja:

- 5.1. Kashmir muammosining kelib chiqish sabablari va oqibatlari.
- 5.2. Toshkent deklaratsiyasi.
- 5.3. Hindiston Pokiston o'rtasida Kashmir masalasida diplomatik raqobat.
- 5.4. Kashmir muammosini hal etishga qaratilgan Hindiston Pokiston muloqotlari.

O'quv mashg'ulotning maqsadi: Janubiy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy muammolar va shu kunga qadar o'z yechimini topmagan Kashmir muammosi haqida ma'lumot berishdan iborat.

Tayanch tushuncha va iboralar: Hindiston va Pokiston munosabatlari, Kashmir muammosi, etnik kelishmovchiliklar, Ozod Kashmir, Jammu Kashmir.

Janubiy Osiyo va Xitoy nafaqat joylashuvi, inson resurslari, balki tabiiy resurslarga boy mintaqaligi bilan ahamiyatlidir. O'sib borayotgan ikki yirik iqtisodiyot; Xitoy va Hindiston va uchta yadroviy davlat; Mintaqada Pokiston, Xitoy va Hindiston, Rossiya yana bir yadro energetikasi davlati, Markaziy Osiyo davlatlariga yaqinligi tufayli bu mintaqaning ahamiyatini yanada oshirganligi sababli Janubiy Osiyoda katta qiziqish uyg'otmoqda. Qo'shma Shtatlar har doim Janubiy Osiyoning mintaqaviy ishlarida qatnashgan, chunki bu mintaqada o'z manfaatlari bor.

Kashmir vodiysining 1947-yilgacha targ'ib qilingan ikkita tarixi mavjud. Birinchisi, Kashmiri Pandits tomonidan aytib o'tilgani-dek, XVIII-XIX asrlarda Afg'oniston hukmronligi davrida amalga oshirilgan qotilliklar, ulardan o'n minglab odam shafqatsizlarcha o'ldirilgan yoki majburan Islom dinini qabul qildirilganligi bo'lsa. Ikkinchisi - aksariyat kashmiriy musulmonlar va ular 1846-yildan 1947-yilgacha Dogra hukmronligi ostida yuz bergen kamsitishlarga

duch kelishi edi. Ehtimol, bu ikkala tarix ham haqiqatdir. Afg'onistonliklar tomonidan hinduizmdan Islom dinini qabul qildirilgan kashmir musulmonlari Dogralar tomonidan kansitilgan. Dogra qoidasi Maharaja tomonidan boshqariladigan Jammu va Kashmir Dogra qirolligi tomonidan yangi tashkil etilgan davlatning Jammu mintaqasidan kelib chiqqan. Dogralar hindularning qo'shni irqi bo'lib, 1846-yilda Amritsar shartnomasi doirasida Kashmir vodiysiga bo'lgan huquqni ingilizlardan sotib oladi. 1800-yillarning oxirlarida cheklangan miqdordagi Kashmirliga yetib kelgan ingлиз missionerlari kambag'al, savodsiz va yetakchisiz kashmirliklarni ko'rishadi⁹⁹. Ularga kashmir xalqini o'qitish uchun bir nechta mакtab ochishga ruxsat berildi va ko'pchilik kashmirliklar ularning maktablarida tahsil olishdi. Biroq diniy musulmonlar rahbarlari zamonaviy ta'lim tizimiga yomon qarashadi va shu sababli aksariyat musulmonlar rasmiy ravishda savodsiz bo'lib qolishadi. O'sha paytda o'qigan kashmirliklar ishsiz qolib ketar, hukumat ishlariga kirishga taqiqqa duchor bo'lar, natijada chekka joylardagi unumsiz yerlarda ishlashga majbur bo'ladi. 1925-yilda amakisi taxtini egallagan yosh Maharaja Xari Singxga juda katta ishonch paydo bo'ladi. Ammo maslahatchilariga ishonganligi sababli u o'z fuqarolari bilan aloqani uzadi va ularning shikoyatlarini beparvo qoldiradi¹⁰⁰.

Kashmir uzoq o'tmishta ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Kashmir aholisi din masalasida ham juda uzoq tarixga ega. Buddizm Kashmir vodiysida miloddan avvalgi III asrda Ashoka tomonidan kiritilgan. Taxminan to'rt asr davomida buddizm rivojlanib, hijriy birinchi asrda Kanisha tomonidan yanada mustahkamlanib, milodiy VI asrda Xunlar vodiylar ustidan nazoratni qo'nga kiritdilar. Shundan so'ng Hindistondagi Ujjayn imperiyasi Vikramaditya bilan eng kuchli hukmdor sifatida Kashmir ustidan nazoratini kengaytirdi¹⁰¹. Din nuqtayi nazaridan 1941-yilda jami 4 milliondan ozroq aholidan taxminan 77% musulmonlar, 20% hindular, 1,5% sikxlar va 1% buddistlar edi. Tarixiy jihatdan Kashmirda hindular, musulmonlar, buddistlar va boshqa jamoalar

⁹⁹ Bamzai, Culture and Political History of Kashmir, Publications vt Ltd, New Delhi, 1994, p. 666.

¹⁰⁰ Priyanka Bakaya and Sumeet Bhatt I, Kashmir Conflict: A Study of What Ledto the Insurgency in Kashmir Valley & Proposed Future Solutions,2001-2005 Kashmir Herald. All Rights Reserved <http://www.kashmirherald.com/featuredarticle/kashmirquestion-prn.html>

¹⁰¹ Naghma Mangrio, Professor, Department of International Relations University of Sindh, Jamshoro, A Historical and Political Perspective of Kashmir Issue, p. 259.

nisbatan totuvlikda yashashgan. Vaqt o‘tishi bilan jamoaviy totuvlik mavjudligi mintaqada Kashmiritat deb nomlanuvchi insonparvarlik va bag‘rikenglik ruhini shakllantirdi, bu kashmirliklarning o‘ziga xos xususiyati edi.

Jammu va Kashmir Britaniya Hindistonidagi 565 ta mustamlaka hududlar orasida eng kattasi bo‘lib, aholisi bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinda turadi. Jammu va Kashmir beshta alohida mintaqasi: Jammu viloyati Kashmir vodiysi, Ponch tumani, Ladax, Baltiston va Gilgit viloyatidan iborat. Buyuk Britaniya hukumati 1947-yil avgust oyida Hindistonga mustaqillikni hadya etadi. Ammo hokimiyatni bir davlatga emas, balki Hindiston va Pokistonga topshirilishi katta mustamlakalarning siyosatiga ta’sir ko‘rsatdi. Oliy darajali doktrinadan beri davom etib kelayotgan mustamlaka davlatlar va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi munosabatlar ingliz mustamlakachilarining Hindistondan ajralib chiqishi bilan barham topishi kerak edi. Bu vaziyat mustamlaka davlatlar hukmdorlari Hindiston yoki Pokistonga qo‘shilish yoki mustaqilligini saqlab qolishga qaror qabul qilish huquqiga ega ekanligini anglatardi. Biroq Hindistondagi Britaniyaning so‘nggi noibi Lord Mountbatten Hindiston Milliy Kongressi bosimi ostida harakat qilib, mustamlaka davlatlarining hukmdorlaridan Hindiston yoki Pokistonga qo‘shilishlari kerakligini, shuningdek, hokimiyatni tinch yo‘l bilan topshirishni taklif qiladi. Ushbu tanloving ikkita asosiy omili odamlarning jamoat sodiqligi va geografik qo‘schnichilik bo‘lishi kerak edi. Haydarobod, Junagad va Kashmirdan tashqari barcha mustamlaka davlatlari 1947-yil 15-avgustgacha Hindiston yoki Pokistonga qo‘schildilar va shu kundan e’tiboran Haydarobod, Junagad va Kashmir mustaqil bo‘ladi. Biroq keyinchalik Haydarobod va Junagad Hindistonga qo‘shilishga majbur bo‘ldilar. Ammo Kashmir muommoli hudud bo‘lib qoladi, chunki bu davlat Hindistonga ham, Pokistonga ham qo‘sni edi va shuning uchun ham mafkuraviy va geologik-strategik sabablarga ko‘ra ikkala tomon ham da’vo qiladi¹⁰². 1948-yilgi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining 47-sonli qaroriga binoan Hindistonga qo‘shilishni, Pokistonga qo‘shilishni yoki mustaqil bo‘lishni xohlashini tanlash uchun BMT referendumini talab qiladi.

¹⁰² Rajat Ganguly, India, Pakistan and the Kashmir Dispute Asian Studies Institute & Centre for Strategic Studies, p. 1-2. Asian Studies Institute Victoria University of Wellington 610 von Zedlitz Building Kelburn, Wellington 04 463 5098 asi@vuw.ac.nz www.vuw.ac.nz/asianstudies.

Hindiston Kashmir masalasi faqat Hindiston va Pokiston o'rtasida ishlab chiqilishi kerak bo'lgan ikki tomonlama masala ekanligini aytib, bunday ovoz berishga chaqiriqlarga qarshilik ko'rsatdi. Hindiston uzoq vaqtadan beri Pokistonni Kashmirdagi islomiy terrorchilarni qo'llab-quvvatlashda ayblab keladi¹⁰³.

Hindiston ham Pokiston ham Kashmirni o'z hududi deb hisoblar va uning mustaqil holda qolishiga qarshi edilar hamda uni o'z tarkibiga qo'shib olish harakatida bo'ldilar. Bu borada birinchi qadamni Hindiston tashladi. Musulmon aholining isyon ko'tarishi bilan Hind qo'shinlarining Kashmirliga kelishi Kashmirdagi vaziyatni yomonlashtiradi. Bu oxir-oqibat hindlarning Maharajaga bosim o'tkazishga yo'l ochadi. Natijada Maharaja 1947-yil 26-oktabrda "*munozarali Kirish hujjatini*" imzolash orqali Hindistonga qo'shilishga rozi bo'ladi. Bu yerda Lord Mountbattenning Maharajaga uni so'rnvi qabul qilish haqida ogohlantirib yozgan maktubiga nazar tashlash juda o'rinnli bo'ladi. "Janobi Oliylari ta'kidlagan alohida holatlarda mening hukumatim Kashmir davlatining Hindiston dominioniga qo'shilishini qabul qilishga qaror qildi. Ularning siyosatiga muvofiq, qo'shilish masalasi bahsli bo'lgan har qanday davlatda, qo'shilish masalasi shu davlat xalqining xohishlariga binoan hal qilinishi kerak, bu mening hukumatimning xohishi, Kashmirda qonuniy tartib o'rnatilishi va uning zamini bosqinchilardan tozalanishi bilanoq davlatning qo'shilishi masalasi odamlarga murojaat qilish yo'li bilan hal qilinishi kerak"¹⁰⁴. Maharaja Xari Singx Jammu va Kashmir o'z kuchlarini Hindiston hukumatiga o'tkazadigan uchta mavzuni belgilab bergen Kirish hujjatini imzoladi:

1. Tashqi ishlar
2. Mudofaa
3. Aloqa vositalari.

Hindiston tomonidan Kashmirning o'z hududiga qo'shib olish uchun na konstitutsiyaviy va na axloqiy asoslarga ega edi. Hatto Maharaja Sir Xari Singxning ham qo'shilish vakolati yo'q edi. Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan 1979-yil 17-iyulda qabul qilingan Hindiston mustaqilligi to'g'risidagi qonunga binoan 1846-yil martdagisi Kashmirlni sotish to'g'risidagi akt 1947-yil 15-yil

¹⁰³ Esther Pan, INDIA-PAKISTAN: Peace Talks, February 7, 2005 <https://www.cfr.org/backgrounder/india-pakistan-peace-talks>

¹⁰⁴ Naghma Mangrio, Professor, Department of International Relations University of Sindh, Jamshoro, A Historical and Political Perspective of Kashmir Issue, p 257.

avgustda o‘z kuchini yo‘qotadi. Bundan tashqari bu qo‘shilishni na Kashmir xalqining irodasi, na davlatning geografik yaqinligi davlatning qo‘shilishini ma‘qullamadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarorlaridan tashqari, o‘sha paytdagi Hindiston Bosh vaziri janob Javaharlal Neru Kashmir aholisi va xalqaro hamjamiyat bilan kashmirliklar Birlashgan Millatlar Tashkiloti ostida erkin va adolatli plebisit orqali o‘z kelajagini hal qilishda erkin bo‘lishiga qat’iy va’da beradi¹⁰⁵.

Pokistonning da’vosi Kashmirda G‘ulom Abbos boshchiligidagi harakat hamda uning butun Jammu va Kashmir musulmonlari konferensiysi Kashmirning Pokistonga qo‘shilishini istashdi. Musulmonlar konferensiyasining fikriga shayx Muhammad Abdul-loh boshchiligidagi Butun Jammu va Kashmir milliy konferensiysi qarshi chiqadi. Milliy konferensiya dunyoviy mafkurani qo‘llab-quvvatlaydi va Hindiston bilan yaqin aloqada bo‘lgan dunyoviy, demokratik, ammo mustaqil Kashmirni yaratishni xohlaydi. Ammo Kashmirning Dogra hukmdori Maharaja Xari Singx hokimiyatni topshirish davrida Hindistonga ham, Pokistonga ham qo‘silmasdan, mustaqil Kashmir davlatining hukmdori sifatida paydo bo‘lishini istar edi¹⁰⁶.

1948-yil mart oyida Maharaja hududda vaqtinchalik hukumatni tayinladi, shayx Abdulloh bosh vazir etib tayinlandi. 1949-yil iyulda Shayx Abdulloh va uchta uchta tarafdori Hindiston Ta’sis yig‘ilishiga qo‘shilishdi, Jammu va Kashmirning alohida maqomi to‘g‘risida muzokara olib borishdi, natijada 370-modda qabul qilindi. O‘z navbatida, 370-moddaning qoidalari qanday, degan masala paydo bo‘ladi.

370-moddaga binoan Jammu va Kashmir aholisining fuqaroligi, mulkka egalik huquqi va asosiy huquqlari qonuni Hindistonning qolgan qismida yashovchilardan farq qiladi. 370-moddaga binoan, boshqa davlatlarning fuqarolari Jammu va Kashmirda mulk sotib ololmaydilar. 370-moddaga muvofiq Markaz shtatda moliyaviy favqulodda holat e‘lon qilish huquqiga ega emas. Shuni ta‘kidlash kerakki, 370-moddasi 1-qismining «v» bandida Hindiston konstitutsiyasining 1-moddasi 370-modda orqali Kashmirga taalluqli ekanligi aniq ko‘rsatilgan. 1-moddada Ittifoq

¹⁰⁵Dr. Muhammad Khan,KASHMIR DISPUTE AND THE PROSPECTS OF INDIA – PAKISTAN PEACE PROCESSLieutenant Colonel 44-89 NDU Journal 2008, Volume – II

¹⁰⁶Michael Brecher, For details of the history of Kashmir,The Struggle for Kashmir, New York: Oxford University Press, pp. 58.

davlatlari ko'rsatilgan. Demak, 370-modda Jammu va Kashmir shtatini Hindistonning ittifoqdoshi qilib ko'rsatadi. 370-moddani olib tashlash prezident buyrug'i bilan amalga oshirilishi mumkin, agar yangi qonunlar qabul qilinmasa, Jammu va Kashmirlni Hindiston mustaqil davlat qilishi mumkin bo'ladi¹⁰⁷.

Kashmir ustidan birinchi urush 1947-1948-yillarda olib borilgan. Ikkinchisi urush 1965-yilda xuddi shu masala bo'yicha bo'lib o'tdi, bu qo'shnilar o'rtasidagi o'zaro dushmanlikning namoyishi edi. Urush 6-sentabrda Hindiston Pokistonni zulmatda xalqaro chegarani kesib o'tishi bilan boshlandi. O'n yetti kun ichida ikki tomonidan minglab odamlar halok bo'ldi. Amerika Qo'shma Shtatlari va Sovet Ittifoqi Birlashgan Millatlar Ittifoqini tinch yo'l bilan hal qilishda o'z rolini o'ynashga va ularni ikki mamlakat o'rtasidagi barcha masalalarni tinchlik bilan hal qilishga majbur qildi, chunki urush global tinchlikka ta'sir qiladi). Birlashgan Millatlar Tashkilotining sa'y-harakatlari natijasida tinchlik o'rnatildi, chunki ikkala davlat ham urushni to'xtatish to'g'risida kelishib oldilar. Bundan tashqari, Sovet Ittifoqi Bosh vaziri Aleksey Kosgin ham ikki tomonni Toshkentga taklif qilib, mamlakatlarni muzokaralar stoliga o'tirishida muhim rol o'ynadi. Hindiston Bosh vaziri Lal Bahodir Shastri va Pokiston Prezidenti Ayubxon 1966-yil 4-yanvarda Toshkentda uchrashdilar. Ikkala rahbar ham 1966-yil Toshkent deklaratsiyasi deb nomlangan bitimni imzoladilar¹⁰⁸.

Toshkent deklaratsiyasi

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti ikkala tomon ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga muvofiq Hindiston va Pokiston o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish uchun barcha sa'y-harakatlarni sarf qilishga rozi bo'lishdi. Ular nizomga binoan majburan murojaat qilmaslik va nizolarini tinch yo'l bilan hal qilish majburiyatini tasdiqladilar. Ular o'z mintaqlarida va ayniqsa, Hindiston-Pokiston sub-qit'asida tinchlik manfaatlari va albatta, Hindiston va Pokiston xalqlarining manfaatlari ikki mamlakat o'rtasidagi ziddiyatning davom etishi bilan ta'minlanmagan, deb hisobladilar.

¹⁰⁷ Kelly Buchanan, Article 370 and the Removal of Jammu and Kashmir's Special Status, October 3, 2019, <https://blogs.loc.gov/law/2019/10/falqs-article-370-and-the-removal-of-jammu-and-kashmirs-special-status/>

¹⁰⁸ <https://historypak.com/tashkent-declaration-1966/>

Aynan shu asnoda Jammu va Kashmir muhokama qilindi va tomonlarning har biri o‘z pozitsiyasini bayon qildi.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti ikki mamlakatning barcha qurollangan shaxsiy tarkibi 1966-yil 25-fevraldan kechiktirmay 1965-yil 5-avgustgacha bo‘lgan vaqtida olib chiqilishi va ikkala tomon ham sulhga rioya qilishlari to‘g‘risida kelishib oldilar.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlар bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiga asoslanishi to‘g‘risida kelishib oldilar.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti har ikki tomon ham boshqa davlatga qarshi qaratilgan har qanday tashviqotlardan voz kechish va ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan targ‘ibotni rag‘batlantirish to‘g‘risida kelishib oldilar.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti Hindistoning Pokistondagi Oliy Komissari va Pokistonning Hindistondagi Oliy Komissari o‘z lavozimlariga qaytishlariga va har ikki mamlakat diplomatik vakolatxonalarining normal faoliyati tiklanishiga kelishib olindi. Ikkala hukumat ham 1961-yilgi Diplomatik aloqa to‘g‘risidagi Vena konvensiyasiga rioya qiladi.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti Hindiston va Pokiston o‘rtasida iqtisodiy va savdo aloqalarini tiklash, aloqa, shuningdek, madaniy almashinuvni qayta tiklash bo‘yicha choralarни ko‘rib chiqishga va Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi mavjud kelishuvlarni amalga oshirish choralarini ko‘rishga kelishib oldilar.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti harbiy asirlarni vataniga qaytarish bo‘yicha o‘zlarining tegishli organlariga ko‘rsatmalar berish to‘g‘risida ham kelishib oldilar.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti tomonlar qochqinlar va ko‘chirish / noqonuniy immigratsiya muammolari bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishni davom ettirishga, shuningdek, ular har ikki tomon ham odamlarning chiqib ketishining oldini oladigan shart-sharoitlarni yaratishga, keyinchalik ular mojaro bilan bog‘liq holda har ikki tomonidan qabul qilingan mol-mulk va mol-mulkni qaytarishni muhokama qilish to‘g‘risida kelishib oldilar.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti tomonlar ikkala mamlakatni bevosita qiziqtirgan masalalar bo‘yicha oliy va boshqa

darajadagi uchrashuvlarni davom ettirishga, ikkala tomon ham qanday choralar ko‘rish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun o‘z hukumatlariga hisobot beradigan qo‘shma Hindiston-Pokiston organlarini tashkil etish zarurligini angladilar.

Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidenti konstruktiv, do‘sона va oljanob xizmatlari uchun Sovet Ittifoqi rahbarlariga, Sovet hukumatiga va shaxsan SSSR Vazirlar Kengashi Raisiga chuqur minnatdorligini bildirdilar. Shuningdek, ular o‘zbekistonlik hukumat va do‘sона xalqqa ularning ulkan mehmondo‘sligi uchun samimiy tashakkur bildiradilar¹⁰⁹.

Chetdan bir-birlariga qarshi tashqi ittifoqchilarni izlash Hindiston va Pokistonning ellik yildan ortiq davom etgan eng izchil siyosati va o‘zaro munosabatlar o‘rnatishning eng muhim usullaridan biri bo‘lib kelgan. Ba’zan ittifoqchilar bunga tayyor bo‘lsalar ham odatda, ular buni istamaydilar. Pokiston o‘z qudratini Hindiston bilan muvozanatlash uchun bir necha arab davlatlari, Eron, AQSh, Xitoy va Shimoliy Koreya bilan aloqaga kirishishni maqsad qiladi. Vashington odatda bu rolda o‘zini noqulay his qilar edi. Xitoyliklar biroz cheklangan edilar va Pokiston va Xitoyni bir-biriga bog‘laydigan ma’lum bir shartnomaga mavjud emasligiga qaramay Pekin Pokistonga boshqa davlatlarga qaraganda ko‘proq harbiy yordam ko‘rsatdi. Pekin Pokistonni qo‘llab-quvvatlashni ikkita afzal tomonini ko‘radi, birinchisi, kuchliroq Pokiston Sovet Ittifoqiga qarshi turishi, ikkinchisi esa Hindiston bosimiga qarshi turishi mumkin edi. Shunga qaramay Xitoy Pokistonning Kashmirga bo‘lgan da‘volarini qo‘llab-quvvatlashni mo‘tadillash bilan birga asta-sekin Hindiston bilan ham munosabatlarini normallashtirdi. O‘z navbatida, Hindiston hukumati 1988-yildan keyin Xitoya yaqinlashish orqali Pekin-Islomobod aloqalarini zaiflashtirish imkoniyatini izladi.

Hindiston tomonidan Sovet Ittifoqi Pokiston bilan raqobatdosh bo‘lgan asosiy ittifoqchi sifatida ko‘rilgan. Sovetlar Birlashgan Millatlar Tashkilotiga veto qo‘ydi, katta miqdorda quroslasha yetkazib berdi va Nyu-Dehliga umumiylardan ham dardlik ko‘rsatdi. Biroq bu yordam Pokistonga qarshi emas, balki Xitoya qarshi qaratilgan edi. Gorbachyov hukumati Pekin bilan munosabatlarni normallashtira boshlagach, uning Hindistonni qo‘llab-quvvatlash

¹⁰⁹Tashkent declaration,
[documents.htm?dtl/5993/Tashkent+Declaration](https://mea.gov.in/bilateral-documents.htm?dtl/5993/Tashkent+Declaration)

[https://mea.gov.in/bilateral-](https://mea.gov.in/bilateral-documents.htm?dtl/5993/Tashkent+Declaration)

harakati asta-sekin sustlasha boshladi. Ushbu almashinishlar abadiy davom etishini kutish mumkin, Hindiston va Pokiston bir-biriga qarshi tashqaridan yordam izlaydilar. 10 yillar davomida hind diplomatiyasi ustunlikka xususiyati bo'lib kelgan va yaqin orada o'zgarishi ehtimoldan yiroq emas¹¹⁰.

Hindiston Pokiston Diplomatiyasi Kashmirdagi mojaroni hal qilish u yoqda tursin, unga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. 1948 va 1965-yillardagi Hindiston-Pokiston urushi va 1962-yilgi Hindiston-Xitoy urushidan so'ng Kashmirlni hal qilish bo'yicha kelishilgan harakatlar amalga oshirildi. 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kashmirlni eng qadimiy va eng jiddiy muammolardan biri sifatida BMTning qarorlari to'plamiga kiritdi. 1962-yilgi Hindiston-Xitoy urushidan so'ng, Dehli va Islomobod o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun Amerika va Angliyaning keskin, ammo samarasiz harakatlarini amalga oshirdi. 1965-yil urushning oxirida Sovet Ittifoqi mintaqaviy tinchlik o'rnatuvchi sifatida ko'rildi. Sovetlar Toshkentda umumiy tinchlik shartnomasini ilgari surishga muvaffaq bo'ldilar, hamda 1966-yilda Toshkent deklaratsiyasini imzolashga muvaffaq bo'ldi. Ammo bu 1970- 71-yillarda Sharqiy Pokiston va Bangladeshda yuz bergen fuqarolik urushning oldini ololmadi. Kashmir muammosiga katta kuch ta'sirining eng izchil xususiyati uning samarasizligi bo'ldi. Sovuq Urushning mintaqaviy homiyligidan tashqari Qo'shma Shtatlar ham, Sovet Ittifoqi ham qit'ada muhim, ko'pincha parallel va kooperativ rollarni ijro etishgan¹¹¹.

Kashmir faqatgina mintaqaviy sheriklariga tegishli bo'lganligi sababli muhim edi, ammo ikkalasi ham o'sha sheriklar tomonidan Kashmir muammosiga tortilishiga qarshilik ko'rsatdilar. Hindlar va pokistonliklar ko'pincha mintaqaviy hisob-kitoblarini Kashmirdagi pozitsiyasini tashqi tomondan qo'llab-quvvatlashga asoslangan bo'lsa-da, bu qo'llab-quvvatlash cheklangan va chegaralangan edi. Sovet Ittifoqi bir necha yil davomida Birlashgan Millatlar

¹¹⁰Stephen Philip Cohen, India, Pakistan and Kashmir, The Brookings Institution Presented at the University of Texas, December 2001 revised version forthcoming in the Journal of Strategic Studies, pp. 2-36.

¹¹¹For a brief UN history of the conflicts in Kashmir, plus information about the UN peacekeeping operations in the state see the web site of the United Nations Department of Public Information, United Nations Peacekeeping Operations: UNMOGIP (United Nations Military Observer Group in India and Pakistan), <http://www.un.org/Depts/DPKO/Missions/unmogip.htm>, (October 31, 1997).

Tashkilotida Kashmir bilan bog'liq qarorlarga avtomatik veto qo'ydi va Dehlini diplomatik qo'llab-quvvatladi.

Pokistonliklar siyosiy va harbiy qo'llab-quvvatlashda Qo'shma Shtatlarga tobora ko'proq qaram bo'lib qolishdi, ammo hech qachon Qo'shma Shtatlarni Hindistonga qarshi xavfsizlik kafolatlari berishga majbur qila olmadilar, chunki Vashington Kashmir mojarosiga tushib qolishidan qo'rqardi. Vashington ham, Moskva ham kelishmovchiliklarga vositachilik qilish yoki uni tinch yo'l bilan hal qilish uchun bir nechta harakatlarni amalga oshirdilar, ammo boshqa narsalardan ehtiyoj bo'lishdi¹¹².

2001-yil 11-sentabrdan keyingi davrda AQSh mintaqadagi faolligini asosan Afg'onistonidagi terrorizmga qarshi urush tufayli kuchaytirdi. Xitoyning ko'tarilishi AQShni Janubiy Osiyo ishlari bilan ko'proq shug'ullanishga majbur qilgan yana bir omil. AQSh 11-sentabr voqeasidan keyin terrorizmga qarshi urush olib bordi va Janubiy Osiyo xavfsizligini butunlay o'zgartirdi. Ushbu urush Pokistonning ichki xavfsizligi va Hindiston-Pokiston o'rtasidagi tinchlik jarayoniga katta ta'sir ko'rsatdi. Xavfsiz tahdidlarning paydo bo'lishi, masalan, nodavlat subyektlar orqali terrorizmning kuchayishi va diniy ekstremizm nafaqat mintaqaviy davlatlarning ichki xavfsizligiga, balki mintaqaviy tinchlik va barqarorlikka ham jiddiy tahdid solmoqda¹¹³.

Kashmir muammosini bartaraf etishga qaratilgan bir necha harakatlar amalga oshirilgan, ammo hech biri ko'zlangan natijani olib kelmadи. Bular orasida "*Chenab daryosi*" bo'ylab shtatni taqsimlashni nazarda tutgan "*Chenab formularsi*" 1960-yillarning boshlaridan beri ko'plab muzokaralar olib borilgan, ammo hindlarning kelishmovchiligi sababli kelishib bo'lmadi. Jammu va Kashmir shtatlari ustidan davlat uchun maksimal muxtoriyatga ega bo'lgan Hindiston va Pokistonning "*Kondominium*" 1960-yillarning boshlarida rivojlangan, ammo ikkala tomonning taniqli fikrlariga erisha olmagan¹¹⁴.

¹¹² Stephen Philip Cohen, India, Pakistan and Kashmir, The Brookings Institution Presented at the University of Texas, December 2001 revised version forthcoming in the Journal of Strategic Studies, pp, 2-36.

¹¹³ Sobia Jamil, Dr. Abdullahi Ayoade Ahmad, Syed Zohaib Abbas Rizvi, Nasa'I Muhammad Gwadab, An Analysis Of Regional Security Dynamics Of South Asia In Post 9/11 Period,p, 3736. IJSTR©2020 www.ijstr.org

¹¹⁴ Stephen P. Cohen, For a fuller discussion of Pakistan's approach to India, The Pakistan Army, (Karachi: Oxford University Press, 1998).

Ikki davlat o'rtasidagi muammolar 1972-yil iyul oyida Hindiston Bosh vaziri Indira Gandhi va Pokiston Prezidenti Zulfikar Ali Bhutto imzolagan tarixiy *Simla shartnomasi* bu masalani ikki tomonlama hal qilish kerakligini belgilab qo'ydi. Shartnomada mamlakatlar "o'zaro kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilishlari" va har ikki davlatga ham "vaziyatni bir tomonlama o'zgartirish"ga taqiq qo'yishdi¹¹⁵. Ushbu prinsip Hindiston va Pokiston rahbarlari o'rtasida ketma-ket kelishuvlar asosida amalga oshirildi. Ikki tomon 1999-yil fevral oyida Hindiston Bosh vaziri Atal Bihari Vajpayee va uning pokistonlik hamkasbi Navoz Sharif boshchiligidagi Lahor deklaratsiyasida kelishuvga eng yaqin bo'lgan. Ammo 1999-yil may oyida Kargilda mojararo boshlangandan keyin natijalar yomonlashdi. Ikki tomon urushdan keyin bir necha bor uchrashishdi, ammo har safar kelishuvga erisha olmadi. Bundan tashqari, jangarilik va zo'ravonlik avj olishi masalani yanada murakkablashtirdi¹¹⁶.

Kashmirliklarning qurolli kurashi oxir-oqibat Hindistoni Pokiston bilan dialog jarayoniga o'tishga majbur qildi. 1998-yilda ikkala davlat tomonidan amalga oshirilgan yadroviy portlashlarni tekshirish va keyinchalik qat'iy bayonotlar bilan almashish masalasida muzokaralar o'tkazish to'g'risida kelishib oldilar. 1999-yil fevral oyida Hindiston Bosh vaziri Pokistonga tashrif buyurdi va dialog jarayonida kelajakdagi harakat yo'nalishi sifatida kelishuvlar tuzildi. Afsuski, 1999-yilda Kargil mojarosi tufayli har ikki mamlakat rahbariyati tomonidan Lahor deklaratsiyasi shaklida namoyish etilgan diplomatik va siyosiy tashabbus jiddiy inqirozga yuz tutdi, shundan keyin 2001-yilgacha ishonchszizlik va jirkanch munosabatlardan muhiti saqlanib qoldi. 2001-yil iyul oyida shov-shuvli diplomatiya va xalqaro bosim natijasida har ikki tomonning yuqori rahbariyati o'rtasida Hindistondagi Agra sammiti paytida Kashmir bo'yicha tinchlik va bir-birlariga bo'lgan ishonchni tiklash bo'yicha muzokaralar bo'lib o'tdi. Prezident Musharaf hokimiyatning markaziga aylanib, juda moslashuvchanligini ko'rsatdi va Pokiston Kashmir aholisi uchun maqbul bo'lgan har qanday yechimni qabul qilishiga va'da berdi. Bosh vazir Atal Behari Vajpaye va Prezident

¹¹⁵Kelly Buchanan, Article 370 and the Removal of Jammu and Kashmir's Special Status, October 3, 2019, <https://blogs.loc.gov/law/2019/10/falqs-article-370-and-the-removal-of-jammu-and-kashmirs-special-status/>

¹¹⁶Majid Alam, Pakistan's Kashmir Policy Post-Article 370, July 09, 2020,<https://thediplomat.com/2020/07/pakistans-kashmir-policy-post-article-370/>

Pervaz Musharaf qo'shma bayonot loyihasi shaklida kelishishga juda yaqin edilar, ammo muzokarlar yana to'xtab qoldi¹¹⁷. Afsuski, bundan keyin Hindiston o'zining eski ritorikasini qayta boshladи va hattoki, transchegaraviy terrorizm yanada jonli ko'rinish oldi. Agra sammitining muvaffaqiyatsizligi, xalqaro xavfsizlik ssenariysini keskin o'zgartirib yuborgan 11-sentabr voqealari bilan yakunlandi.

Yadro ko'lami tufayli xalqaro hamjamiyat, xususan Qo'shma Shtatlar Hindiston va Pokistonni harbiy qarama-qarshiliklardan xalos bo'lishi va Kashmirning asosiy masalasini hal qilish uchun dialog jarayonini qayta boshlashi uchun doimiy bosim o'tkazib turdi. Chegaralardagi tinchlik qaytarilgandan so'ng, 2002-yil sentabr oyida, oldinga siljish kuzatildi, Pokiston muammoni hal qilish uchun to'rt bosqichli yondashuvni taklif qildi¹¹⁸. Birinchi bosqich nazarda tutilgan "*Kashmirni nizo sifatida tan olish*". Afsuski, 11-sentabr voqeasidan keyingi muhitda Pokiston ma'muriyati ostidagi qism kamroq bo'lgan bosqich paydo bo'ldi; Dastlab, Pokiston Hindistonni Kashmirni muammo sifatida qabul qilishga undadi. Hindiston Kashmirni nizo sifatida qabul qilishdan deyarli bosh tortdi. Ratsional yondashuvga ko'ra agar biror masala hal qilinadigan muammo sifatida qabul qilinmasa, oldinga siljish mumkin bo'lmaydi. Bu oxir-oqibat Hindiston doimiy Kashmir nizolari, g'azablangan Pokiston diplomatiyasi va xalqaro bosim natijasida Kashmir muammosini mavjudligini, uni hal etishga arziydigan masala sifatida qabul qilishga majbur bo'ladi.

Ikkinci bosqichga "*Muloqot jarayonini boshlash*" kiritilgan. Kashmir mavjudligini muammosi sifatida qabul qilganidan so'ng, keyingi mantiqiy bosqich, Pokiston muloqot jarayonini boshlashni taklif qildi. Muloqot orqali bir-birining nuqtayi nazarini bilish tabiiy edi. Pokistonga asosiy masala bo'yicha muloqot jarayonini tiklash uchun barcha mavjud kanallardan foydalangan holda ishontirish uchun Pokistonga deyarli bir yarim yil kerak bo'ldi.

Uchinchi bosqich, "*Qabul qilinmaydigan yechimlarni yo'q qilish*" uchala tomon uchun ham munozarali bo'lgan masalalarni

¹¹⁷The civilizational gap between Islamic Pakistan and (largely Hindu but formally secular) India was a theme of Girilal Jain, one of India's most brilliant journalists. In the last ten years of his life (he died in 1988) Jain wrote feelingly about Hindu-Muslim affairs and the phenomenon of Pakistan; he was, in many ways, the most successful popularizer of BJP views well before the party came to power. For an overview of his arguments see Jain, *The Hindu Phenomenon* (New Delhi: USBSPD, 1994).

¹¹⁸Lt. Gen. P. N. Kathpalia, (ret.), "Indo-Pak Relations: The Concept of National Security," Indian Defense Review, January, 1989, p. 116, 124.

bartaraf etish uchun ko'rib chiqildi. Ushbu jarayondan so'ng barcha tomonlarda faqat muzokalarlarga arziydigani variantlar qoladi va oxir-oqibat barcha tomonlar kelishgan yakuniy yechimga erishish uchun muzokaraga kirishdilar. O'tmishda bo'lgani kabi Hindiston uchun biron-bir variant qabul qilinmaydi, Kashmirning kichik hududi Hindistonga berildi. Pokiston tomonidan taklif qilingan to'rtinchni va yakuniy bosqich "g'alaba qozonish uchun vaziyatni ta'minlash" edi. Oldingi uch bosqichda o'tkazilgan dialogdan so'ng bahslashadigan barcha tomonlar ularning har biri uchun maqbul bo'lgan yakuniy qarorga kelishlari va bu ularning har biri uchun yutuqli vaziyat bo'lishi kerak edi. Rasmiy ravishda Pokiston Hindistonni muammoni hal qilish uchun mantiqiy xulosaga kelishda o'zaro ma'qul bo'lgan bir nechta variantni ko'rib chiqdi, ammo hindlarning javoblari har qanday moslashuvchanlikka qarshi avvalgidek qat'iy va chegaralangan bo'lib qoldi.

1947-2017-yillarda Hindiston va Pokiston jami 44 ta ikki tomonlama shartnomalarni imzoladilar. 1980-yillardan boshlab, Hindiston va Pokiston yangi shartnomalarni mavjud bo'lgan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar bilan bog'lashga urinmoqdalar va shu bilan zikh aloqalar tarmog'ini yaratdilar. Ichki tuzilgan shartnomani buzgan davlatlar nafaqat bitta shartnomani, balki unga aloqador boshqa barcha shartnomalarni buzmoqda. Uyalarni joylashtirish orqali davlatlar bitta shartnomani buzish xarajatlarini ko'paytiradi va shu bilan shartnomani buzish ehtimolini kamaytiradi. Hindiston va Pokiston azaliy raqiblar bo'lsa-da, ular imzolagan ko'plab shartnomalarga rioya qilishda davom etmoqdalar. Hozirda Hindiston va Pokiston vaqtincha (zaif) hamkorlik va institutsional (kuchli) hamkorlik o'rtaсидаги о'tish bosqichida. Ular 2011-yilda zo'rg'a birinchi ostonasidan o'tib, "*hamkorlikdagи raqiblar*"ga aylanish arafasida ekanliklarini ko'rsatmoqdalar, ya'ni ular zo'ravon to'qnashuvlarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaydigan nizolarni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish darajasida hamkorlikni institutsionalizatsiya qilgan barqaror raqiblardir¹¹⁹.

So'nggi o'n yillikda Pokistonning Kashmir siyosati reaksiyon xarakteriga ega bo'lib, asosan Hindistonning subkontinentdagi harakatlariga javob berdi. Ushbu xususiyat Kashmir uchun

¹¹⁹ Christopher Finnigan, India and Pakistan: How treaties prevent the rivalry from devolving into war, June 10th, 2019,<https://blogs.lse.ac.uk/southasia/2019/06/10/india-and-pakistan-how-treaties-prevent-the-rivalry-from-devolving-into-war/>

jangarilarining yetakchisi Burhon Vanini 2016-yilda hind askarlari tomonidan o'ldirilganidan keyin sodir bo'lgan shiddatli norozilik namoyishlari paytida kuzatilgan. Vanining o'limidan so'ng zo'rvonlik namoyishlari avj oldi; 90 ta tinch aholi hayotdan ko'z yumdi, 2300 dan ortiq kishi jarohat oldi. Pokistonning o'sha paytdagi Bosh vaziri Navoz Sharif jangarilar yetakchisi bilan birdamligini ko'rsatib, Burhon Vanini "shahid" deb atadi va Kashmir aholisi bilan birdamlik izhor etish uchun 19-iyul Pokistonda "**Qora kun**" sifatida nishonlanishini aytdi¹²⁰.

2019-yil 14-fevralda Hindistonning Markaziy zaxira politsiya kuchlarini (CRPF) olib ketayotgan transport vositalari karvoniga Pulvamada xudkush hujumchi hujum qilib, 40 nafar CRPF askarini o'ldirdi. Jaysh-e-Muhammad, Pokistonda joylashgan terroristik guruh. Hindiston ushbu hujum uchun Pokistonni aybdor, deb bildi. Biroq Pokiston ushbu hujumga aloqadorligini rad etdi.

Darhol ikki mamlakat o'rtasida ziddiyatlar avj oldi. Hujumga javoban Hindiston qiruvchi samolyotlari chegarani kesib o'tib, Pokistonning Balakot shahridagi Jaish-e-Muhammad nomli bazalarini bombardimon qildi. Pokiston bunga javoban Hindistonga havo hujumi uyuشتirdi, ammo qurbanlar bo'lmagan. Itlar urushi paytida hind qiruvchi samolyoti urib tushirildi va Pokistonga qo'ngan uchuvchi qo'lga olindi. Dunyoning chekkasidagi ikki xalq urush yoqasida edi. Biroq, muzokaralardan so'ng ziddiyatlar yumshatildi va uchuvchi Hindistonga qaytarildi¹²¹. Pulvama so'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi eng jiddiy mojaroning avj olishiga olib keldi. Hindiston Pokistonning suverenitetini buzib, 2019-yil 26-fevralda Pokiston havo hududiga kirib, LOC yaqinidagi bo'sh joyga bomba tashlab, Jaish-e-Muhammad o'quv lageriga hujum, deb da'vo qildi. Pokiston hindlarning da'volarini rad etdi va 2019-yil 27-fevralda hind samolyotlari yana Pokiston havo maydoniga kirib keldi va bu safar Pokiston Hindistonning ikkita qiruvchi samolyotini urib tushirdi. 2019-yil 5-avgustda Hindiston Kashmirning konstitutsiyaviy maqomini bekor qildi va 370 va 35A moddalarini bekor qilish orqali avvalgi kelishuvlarini buzdi¹²².

¹²⁰ Majid Alam, Pakistan's Kashmir Policy Post-Article 370, July 09, 2020, <https://thediplomat.com/2020/07/pakistans-kashmir-policy-post-article-370/>

¹²¹ K. Venkataraman (5 August 2019), "How the status of Jammu and Kashmir is being changed", The Hindu

¹²² Sobia Jamil, Dr. Abdullahi Ayoade Ahmad, Syed Zohaib Abbas Rizvi, Nasa'i Muhammad Gwadab, An Analysis Of Regional Security Dynamics Of South Asia In Post 9/11 Period,p, 3736. IJSTR©2020 www.ijstr.org

Shubha yo'qki, Hindiston va Pokiston o'rta sidagi samimiy munosabatlardan nafaqat tegishli mamlakatlarning, balki butun mintaqaning xavfsizlik holatini yaxshilaydi. ASEAN, ARF va Yevropa Ittifoqi kabi boshqa mintaqaviy davlatlar bilan taqqoslaganda SAARC o'z mintaqaviy davlatlarining ikki tomonlama muammolarini hal qilishda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olmadi. Terrorizm va ekstremizm xavfiga qarshi kurashish uchun mintaqaviy davlatlar o'zaro manfaatlarga asoslangan keng qamrovli strategiyani ishlab chiqishda hamkorlik qilishlari kerak.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Janubiy Osiyo mintaqasidagi mavjud asosiy muammolar nimalardan iborat?
2. Kashmir mojarosining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat va nima uchun hanuz o'z yechimini topmay kelmoqda?
3. BMTning Kashmir muammoсини бартароф этишдаги роли qanday?
4. Hindiston va Pokiston o'rta sidagi munosabatlarning bugungi holati haqida nimalarni bilasiz?

VI MAVZU. OSIYO TINCH OKEANI MINTAQASIDA XAVFSIZLIK MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Reja:

- 6.1. Mintaqaviy xavfsizlik dialogini kengaytirishga urinishlar.
- 6.2. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi muammolar.
- 6.3. Mintaqaviy munosabatlarning Xavfsizlikni ta'minlashda tutgan roli.
- 6.4. AQSh va Xitoy o'rtasidagi Savdo urushining kelib chiqish sabablari hamda uning OTOM xavfsizligiga ta'siri.

O'quv mashg'ulotning maqsadi: Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga umumiy sharh berish va mintaqada yuzaga kelgan xavfsizlikka tahdid soluvchu omillar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Tayanch tushuncha va iboralar: hududiy muammolar, etnik nizolar, terrorizm va ekstremizm, odam savdosi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy Osiyo, Avstraliya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya, Shimoliy Koreya, AQSh va Kanadani o'z ichiga oladi. Ulkan hudud, zamonaviy iqtisodiy qudrat, resurslar bazasi bu mintaqani butun dunyo bilan bog'lovchi qulay dengiz yo'llari hamda ulkan salohyatga ega hudud hisoblanadi.

6.1. Mintaqaviy xavfsizlik dialogini kengaytirishga urinishlar

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida xavfsizlik muhitini yanada barqarorlashtirishda ikki tomonlama, submintaqaviy va mintaqaviy asosda xavfsizlik bo'yicha dialogni yanada rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday forumlarni targ'ib qilish Yaponiya va AQSh o'rtasida yaqin hamkorlikni talab qiladi. Bunday mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha hamkorlikning bиринчи namunasi 1994-yilda tashkillashtirilgan ASEAN mintaqaviy forumi ("ARF") hisoblanadi. ARFnинг Bruneyda ikkinchi uchrashuvi o'tkazildi va u yerda "muloqot" dan "aniq hamkorlikka" o'tish choralarini ko'rishga kelishib olindi. O'z navbatida, Yaponiya Indoneziya bilan birgalikda Tokioda hukumatlar o'rtasidagi

muloqotga raislik qildi. Keyingi uchrashuv Jakartada vazirlar darajasida o'tkazishga kelishib olindi. Shu munosabat bilan APECning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi siyosiy barqarorlikda tutgan roli katta ahamiyatga ega bo'la boshladi.

1989-yilda boshlangan dastkabki forumlar iqtisodiy hamkorlik masalalariga bag'ishilgan edi, ammo ARF esa siyosiy va xavfsizlik masalalari ko'tarilishi kerak bo'lgan forum bo'ldi. Biroq iqtisodiy forum sifatida APEC xavfsizlik uchun poydevor sifatida iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga va shu sohada hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirishga intiladi. Shuningdek, bu mintaqqa rahbarlari uchun fikr almashishga norasmiy forum sifatida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda yaponlar ham, amerikaliklar ham APECning ushbu o'zaro bog'liq sohalardagi ta'siriga qiziqish bildirishiga va rag'batlantirishiga katta umid bog'lagan¹²³.

Masalan, terrorizmga qarshi kurashda 2002-yilning 14-may kunida Vashingtonda AQSh hukumati bilan "Terrorizmga qarshi birgalikda harakat" to'g'risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi, mintaqadagi mojaroli hududlarga ham boshqa mintaqalardagi mojaroli hududlarga ham BMT doirasida tinchlikparvar kuchlarining kiritilishi kabi bir qancha ishlarini aytish mumkin. Jumladan, Malayziya va AQSh hukumatlari o'rtasida imzolangan deklaratsiyaga binoan "Malayziya va AQSh hukumatlari Osiyo-Tinch okeani hududida har qanday bo'luvchi terroristik xurujlar, terroristik tashkilotlarga qarshi, mintaqada istiqomat qiluvchi aholining tinchligini va BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-soni Rezolyusiyasiga asosan har qanday terroristik aktlarni moliyalashtirishni oldini olish va bartaraf etishni... maqsad qilib, ushbu deklaratsiyani imzolaydilar". Bundan tashqari mintaqadagi terrorizmga qarshi kurashni ta'minlash maqsadida ASEAN doirasida 2001-yilning 5-noyabrida Bandarseri Begavan shahrida "**Terrorizmga qarshi kurashda birgalikda harakat**" to'g'risida qabul qilingan ASEAN deklaratsiyasi, "**Terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik**" to'g'risidagi ASEAN Yevropa Ittifoqi vazirlarining 2003-yilning 27-yanvarida Brussel shahrida bo'lgan uchrashuvida imzolangan qo'shma deklaratsiya, Xitoy Xalq Respublikasi bilan imzolangan "**Noan'anaviy xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorlik**" to'g'risidagi memorandumni va shu kabi boshqa bir qancha

¹²³Kunihiro Saito, The Security Situation in East Asia and the Pacific and Japan's Role & Japan-U.S. Joint Declaration on Security, Saito/Fordham International Law Journal). <http://ir.lawnet.fordham.edu/ilj>

imzolangan hujjatlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Yana bir bu yo'ldagi muhim qadamlardan biri, 2002-yilning noyabr oyida Malayziyada Malayziya Tashqi Ishlar Vazirligi tomonidan tashkil etilgan Janubiy -Sharqiy Osiyo Terrorizmga Qarshi Kurashda Regional Markaz (SEARCCT)ni alohida ayтиб o'tish lozim. Ushbu markaz o'z faoliyatini rasmiy ravishda 2003-yilning 1-iyulida Kuala Lumpurda boshladi va uning rahbari 2004-yilning 27-avgustidan Dato Hussin Nayan sanaladi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida haligacha o'z yechimini topmagan muammolar saqlanib kelmoqda. Ushbu muammolar mintaqaning xavfsizlik borasidagi harakatlariga to'sqinlik qilib kelmoqda. Bular quydagilardir:

- ✓ bir millatning bo'linib ketishi;
- ✓ hududiy nizolar;
- ✓ yetakchi davlarning o'z siyosiy maqsadlari yo'lida mintaqada yirik miqdordagi harbiylarning saqlab turushi;
- ✓ koreys yarim orolida 1,6 million askar 38-parallelning har ikki tomonida bir-biriga qarshi turishda davom etayotganligi;
- ✓ tayvan va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar juda keskinlashishi.

Mutaxassislar tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ittifoqchilarining xavfsizlik muammolarini qat'yan hal qilishga tayyor va qodir bo'ladi degan taxmin ilgari surilmoqda. 2008-yildagi turg'unlik tufayli yuzaga kelgan moliyaviy bosim uni mudofaa byudjetini qisqartirishga majbur qilgan edi. 2011-yildan beri Amerika Qo'shma Shtatlar kelgusi o'n yil ichida mudofaani qisqartirishni e'lon qildi (mudofaaning yillik byudjeti 600 milliard dollarni tashkil etadi). Vaqt o'tishi bilan Amerika ittifoqchilari va hamkorlari AQShning mintaqadagi aktivlarining kamayishi o'rnini qoplashlari zaruriyatini olishini talab etdi. Bundan tashqari Amerikaning ittifoqchilari Xitoyning harbiy xarajatlari va faolligi oshgan sharoitda buni qilishlari kerak. Xitoy qariyb yigirma yillik ikki raqamli o'sish tendensiyasini davom ettirib, 2014-yilda mudofaa xarajatlari uchun umumiy budgetdan 12,2 foiz mablag' ajratdi. AQShning xarajatlar miqdorini qisqarishi bilan bir qatorda, bu ko'pchilikda AQSh va Xitoy o'rtasidagi kuchlar muvozanati o'zgarib ketadimi-yo'qmi, degan savol paydo bo'ldi. Bundan tashqari, 2010-yildan beri Xitoy harbiy kuchlari ancha faol harakatlana boshladi va bu 2011-yilda Filippin bilan ziddiyatlarni kuchayishiga olib keldi. Skarboro Shoal va 2012-2013-

yillarda Senkaku / Diaoyu orollari bo'yicha Yaponiya bilan ham ziddiyatlar kelib chiqdi. 2013-yil iyul oyida Xitoy va Rossiya Yaponiyaga yaqin qo'shma dengiz mashg'ulotlarini o'tkazdilar, bu so'nggi yillarda qirg'oq qo'riqlash qobiliyatini sezilarli darajada kuchaytirdi. Shu bilan birga Xitoy ko'plab manfaatdor mamlakatlardan uchun eng kuchli savdo sherik hisoblanadi. 2009-yilda olib borilgan tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, mintaqada so'ralgan aksariyat jamoatchilik yaqin kelajakda Xitoyni eng muhim mintaqaviy kuch bo'lishini tahmin qilsalarda, ular Qo'shma Shtatlarga ko'proq ishonch bildirishadi. AQShning mintaqadagi roli kamayib borayotgani, Xitoyning mintaqada ta'siri ortayotgani haqidagi ma'lumotlar ikki davlat o'rtaсидаги siyosiy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazdi¹²⁴.

So'nggi o'n yil ichida bir qator yirik mintaqaviy kuchlarda ham rahbariyat o'zgarishi yuz berdi. Xususan, 2012-yil noyabr oyida Xitoy hukumatida o'zgarish yuz berdi. Si Tszinpin 2013-yil mart oyida Xalq Kongressida ish boshladi. Ammo u qanday tashqi siyosat olib borishi hali ham savol ostida edi. 2012-yil dekabr oyida Sindzo Abe Yaponianing bosh vaziri etib qayta saylanadi. 2013-yil fevral oyida Pak Kin Xe Janubiy Koreyaning prezidenti bo'ldi va Shimoliy Koreyaga nisbatan keskin siyosat yurutdi. Shuningdek, 2013-yil sentabr oyida Avstraliya yangi rahbar Toni Ebbotni sayladi. Shunday qilib, mintaqaning to'rtta yirik kuchlari yetakchilar almashtirishni boshdan kechirdilar¹²⁵.

Xalqaro xavfsizlik dinamikasini o'zgartirish

Xalqaro strategik muhitning tabiatini ham o'zgarib bormoqda. AQSh Milliy razvedka kengashining "Global tendensiyalari 2030" hisoboti va Yevropa Ittifoqining Xavfsizlikni o'rganish instituti hisobotida ta'kidlanganidek, global o'zaro bog'liqlikning kuchayishi kuzatiladi, demak, hozirgi paytda shaxslar ilgari bo'lmagan darajada kuchga ega, nodavlat aktorlar esa misli ko'rilmagan darajada strategik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mintaqada tahdidlar hanuzgacha mavjud bo'lib, kiber xavfsizlik, transmilliy terrorizm, oziq-ovqat va suv tanqisligi kabi paydo bo'layotgan muammolar

¹²⁴Desmond Ball, Security Trends In The Asia-Pacific Region: An Emerging Complex Arms Race, National Library of Australia, 2003, pp. 1-42.

¹²⁵Ron Huisken, **The Architecture of Security in the Asia-Pacific**, National Library of Australia Cataloguing-in-Publication entry Title: The architecture of security in the Asia-Pacific / editor Ron Huisken. This edition © 2009 ANU E Press p. 135-145

ko‘plab Osiyo mamlakatlarining xavfsizlik kun tartibidagi dolzarb masalalarga aylanib bormoqda. Ushbu dinamikalar eksponent sifatida murakkablashishi mumkin. Yangi texnologiyalar ko‘proq aktorlarga imkoniyat yaratadi. Aloqalar, voqealar avj olishidan oldin davlatlarning tezroq javob berishlarini talab qiladi¹²⁶.

OTOM (Osiyo Tinch okeani mintaqasi)da xavfsizlikni ta‘minlashda mintaqaviy nizolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yaponianing Rossiya bilan jiddiy muammolarga ega ekanligi, jumladan, Rossianing radioaktiv chiqindilarni okeanga tashlashi va Shimoliy Hududlarda yapon baliqchilarini o‘qqa tutish hamon yuz bermoqda. Yaponiya hududiy masalani hal qilish va rus-yapon munosabatlарини to‘liq normallashtirish Osiyo tinch mintaqasida tinchlik va barqarorlik uchun juda muhimdir. Shu maqsadda Yaponiya Rossiyadan mintaqaning “tarixiy og‘irliklar”ni o‘z holiga qaytarishda konstruktiv xissa qo‘shishini kutmoqda.

O‘z navbatida, Xitoy ochiq siyosatni rivojlantirmoqda. Iqtisodiy rivojlanishga siyosiy ahamiyat berib, Xitoyning o‘zi “barqaror xalqaro muhit” zarurligini aniq anglagan holda siyosat olib bermoqda. Milliy mudofaa hududida garchi ularning asosiy yo‘nalishidagi uskunalarining ko‘p qismi eskirgan bo‘lsa ham va havo kuchlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha asosiy sa‘y-harakatlari faqat to‘xtab qolsa ham ular yadro qurollarini modernizatsiya qilish uchun yadro sinovlarini davom ettirmoqdalar. Xitoy bu sa‘y-harakatlarni milliy o‘zini-o‘zi himoya qilish nuqtayi nazaridan tushuntirar ekan, ularning mudofaa siyosati va dasturlarida shaffoflik yuzasidan ma’qul keladi. O‘tgan yili Xitoy Spratley orollari bo‘yicha hududiy nizoning asosiy ishtirokchisi bo‘lgan edi. Xitoyning yaqinda Tayvan atrofida o‘tkazilgan harbiy mashg‘ulotlari Xitoy qo‘shnilarida katta tashvish tug‘dirayotganini ta‘kidlaydi¹²⁷.

¹²⁶Xenia Dormandy, Rory Kinane, Asia-Pacific Security A Changing Role for the United States, Chatham House Report April 2014 www.chathamhouse.org Charity Registration No. 208223 © The Royal Institute of International Affairs, 2014 Chatham House, the Royal Institute of International Affairs, does not express opinions of its own. The opinions expressed in this publication are the responsibility of the authors.

¹²⁷Kunihiko Saito, The Security Situation in East Asia and the Pacific and Japan’s Role & Japan-U.S. Joint Declaration on Security, *SaitoFordham International Law Journal*,). <http://ir.lawnet.fordham.edu/ilj>

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi chegara mojarolari hali-hanuz davom etmoqda. 2013-yil aprel oyida uyuşhtirilgan provokatsiyaga javoban Hindiston 50 ming askardan iborat yangi armiya bo'linmasini tashkil qildi. Xitoyning iqtisodiy o'sishi Hindiston bilan ziddiyatga ko'proq ta'sir qiladi. Ularning iqtisodiyoti bir-biriga kuchli savdo munosabatlari bilan bog'langan (2012/13-moliyaviy yilda 66,7 milliard dollarga baholangan), ammo Hindistonda ular o'rtasidagi savdo defitsiti borasida xavotirlar kuchaymoqda. Hindistonning boshqa muhim mintaqaviy tahdidi Pokistondan kelib chiqadi. Kashmirda to'g'ridan to'g'ri davlatlararo mojaro emas, balki Nazorat chizig'ini kesib o'tgan terrorchi guruhlarning roli haqida uning xavotiri tobora ortib bormoqda. 2013-yilda Navoz Sharif Pokiston bosh vaziri bo'lganidan beri munosabatlar juda yaxshilandi, chunki u buni o'zining dastlabki maqsadlaridan biri sifatida ta'kidlagan edi. Biroq Hindistonda bo'lib o'tadigan saylovlar bilan yangi rahbariyat ushbu muammoga qanday yondashishi noma'lum. So'nggi yillarda Hindiston Amerika Qo'shma Shtatlar va boshqa bir qator Osiyo-Tinch okeani davlatlari, shu jumladan, Avstraliya va Yaponiya bilan yaqinroq uch tomonlama aloqalarda ancha faol ishtirok etib kelmoqda. Ushbu muloqotlar strategik muhokamada kuchli, ammo aniq hamkorlikda kamroq; axborot almashinuvi yoki harbiy tayyorgarlik kabi sohalarda hamkorlikni rivojlantirish uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjud.

Hindiston uchun ASEAN bilan hamkorlikni va savdo-sotiqni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar saqlanib qolmoqda. U 2022-yilga kelib guruh bilan savdoni hozirgi 80 milliard dollardan 200 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan¹²⁸.

2008-yildan keyin xalqaro hamjamiyat global moliyaviy inqirozdan chiqib ketishga urinayotgan bir qator davlatlar bilan yana bir bor keskin o'zgaruvchanlik davrini boshdan kechirdi. Global moliyaviy inqiroz garchi Yevropaning ayrim mamlakatlariga nisbatan kamroq ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ham ma'lum darajada beqarorlikni namoyon etmoqda. Savdo mamlakati sifatida OTOM mintaqasidagi Avstraliya ham bu o'zgarishlardan xoli bo'lmadi. Inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat shundaki, Osiyo-Tinch okeanidagi xavfsizlik muhitiga uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning iqtisodiy barqarorligi ta'sir qiladi.

¹²⁸ Rajeshni Naidu-Ghelani, 'Top 10 Countries for Chinese Investments', CNBC, 24 May 2012, p.6. <http://www.cnbc.com/id/47512207/>

AQSh va XXR savdo urushining asosiy sabablari

Xitoyning XXI asr boshlaridan e'tiboran jahon savdosidagi ulushining AQShnikiga nisbatan oshib borishi dunyo geosiyosiy manzarasini o'zgartirib, Ikkilik guruhining paydo bo'lishiga olib keldi ("Group of Two" yoki oddiygina G2).

2015-yilda XXR tovarlar eksporti bo'yicha xalqaro savdoda dominantga aylandi. Xitoyning YAIM ning umumiy miqdori 14092 million AQSh dollari (bu raqam dunyo yalpi ichki mahsulotining 16,1%ini tashkil qilib, AQSh 20 412 million dollari bilan – ikkinchi o'rinni egallagan)ga yetdi. Biroq bu raqam boshlang'ich bo'lib, XXRning AQShdan ustun jihatni juda katta ishchi potensialiga ega ekanligidir. XXRda agar 2002-yilda o'rtta tabaqaga mansub 80 mln kishi bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 700 mln nafarni tashkil etdi – bu raqam butun XXR aholisining deyarli yarmi ish bilan band bo'lishi hamda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanishi va bu bilan yalpi milliy mahsulot hajmini sezilarli darajada ko'taradi deganidir. Bundan tashqari XXR jahondagi eng katta ekport ulushiga ega davlat bo'lib, uning umumiy eksportdan keladigan yillik daromadi AQShnikiga qaraganda deyarli bir yarim barobarga ko'pdir¹²⁹. XXR tahlilchilarning ta'kidlashiga ko'ra, XXR 2014-yildayoq AQShni iqtisodiy qudrati bo'yicha quvib o'tgan va ham arzon tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda markazga aylanib, ham eksportga yo'nalgan iqtisodiyotni barpo qilishda davom etmoqda. Garchi XXR ishlab chiqarish mahsulotlari miqdori jihatidan birinchilikka chiqib olgan bo'lsa ham bir qator muhim iqtisodiy sohalar – birja, kredit, energiya ishlab chiqarishi va tovar bozorlarida AQSh yetakchilikni egallab turibdi. Aynan mana shu holat savdo urushidagi muhim jihatlardan biri bo'lib, bu urushga olib kelgan sabablardan biri hamdir. Biroq tahlilchilar har ikki davlatning iqtisodiy qudrati ma'lum bir muvozanatga egami, yo'qmi – bu haqida aniq bir xulosa berish borasida yakuniy to'xtamga kelishmagan. Negaki, bir tarafдан moddiy ishlab chiqarish qudrati va juda katta miqdordagi xalqaro tovarlar aylanmasi, boshqa tomondan bu mahsulotlar va ularning harakatini boshqarish kuchi teng emas.

AQShning jahon savdosidagi dominant maqomi Xitoyning yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish kompaniyalari bazasidagi

¹²⁹Statistics Times, List of Countries by GDP (PPP) [online], Available at: <http://statisticstimes.com/economy/countries-by-gdp-ppp.php> (2018)

iqtisodiy rivojlanishi va eksport miqdori ortib borgani sari XXR foydasiga o'zgarib bordi. Xitoy tovarlarining AQSh bozorlarini faollik bilan egallab borishi amerikalik amaldorlar tomonidan turli xil konsepsiyalarning ilgari surilishiga olib kelgan. Ulardan biri xitoyliklar tomonidan Amerika kompaniyalari va ishlab chiqaruvchilarining turli sohalarda – kompyuter texnologiyalari, to'qimachilik, elektronika, avtomobil ishlab chiqarish va hokazo – qilingan ixtiro va yangiliklar o'g'irlanishi hamda bu bilan mualliflik huquqlarining qo'pol ravishda buzilishidir. Bir vaqtning o'zida ham AQShda, ham Xitoyda paydo bo'lgan yangiliklarning o'xhashligi (masalan, sensorli telefon va netbuklar, qayriladigan elektronika vositalari, smartwatchlar kabi) ular uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayni vaqtida, Donald Tramp AQSh prezidentligiga saylangach, "Amerikani qayta buyuklashtirish" ("make America great again") siyosatini boshladi. Bu siyosat, faqat AQSh milliy manfaatlarini nazarda tutib, iqtisod sohasida xalqaro kelishuv va shartnomalarning buzilishiga olib keldi. AQShning proteksionizm siyosati jahon savdosida milliy egoizmni o'zida aks ettirib, hattoki iqtisodiy terrorizm kayfiyatini shakllantirdi. Xuddi mana shu nuqta savdo urushiga olib kelgan muhim faktorlardan biridir. Amerika yana ilgarigidek jahonda lider maqomini tiklash maqsadida savdo qilish erkinligi konsepsiyasiga amal qilishni to'xtatdi – bu global iqtisodiyotda deglobalizatsiya jarayonini boshlab, AQShning proteksionistik siyosatiga alohida hamkorlik birlashmalarisiz qarshi turishning imkoniy yo'qligi sababli mintaqaviy iqtisodiy megabirlashmalarni shakllantirdi¹³⁰.

Tabiiyki, dunyoda kuchli savdo potensialiga ega bo'lib olgan Xitoyning javob siyosatiga sabab bo'lgan.

Global iqtisod tarixdan ma'lumki, savdo urushlarida g'olib bo'lmaydi. Har ikki taraf ham yo'qotishga uchraydi. Ammo AQSh savdo mojarolarini hal etishda muzokalararni yutishda uzoq yillik tajribaga ega bo'lib, zarur vaqtida raqobatchilariga ta'sir o'tkazish orqali ularni chekinishga maibur qilishni ham chora sifatida qo'llaydi. Shunday vaziyatda, Xitoy kelishuvchanlik siyosatiga moyilligini bildirib, Amerika bilan o'rtasidagi iqtisodiy imbalansni kamaytirish maqsadida savdoni 200 mlrd. AQSh dollariga qisqartirib, o'z bozorlarini AQSh kompaniyalari uchun nisbatan liberallashtirdi. Biroq AQSh tomonidan qo'llanayotgan ta'qiq va

¹³⁰ George Friedman, The Geopolitical Logic of the US-China Trade War, 2019.: p, 44.

sanksiyalar XXR industrial siyosatiga kuchli ta'sir o'tkazib, "XXRda tayyorlangan 2025" "Made in China 2025" rejasini xavf ostiga qo'yib qo'ydi. "XXRda 2025" rejasni XXRni 10 ta yuqori texnologik rivojlangan sanoatni (robotlar, sun'iy ong va hokazo) bunyod etish orqali jahonda liderlik maqomini mustahkamlashiga qaratilgan. AQSh esa shu vaqtgacha Xitoyning bu rejaga ko'ra qo'lga kiritgan birinchi muvaffaqiyatlarini Amerika texnologiyalaridan foydalanish natijasi, deb hisoblaydi va yangiliklarning Xitoy sanoatiga kirishini cheklash siyosatini qo'llashga urinishi mumkin¹³¹.

Tahlilchilardan biri Rafi Shayx AQSh va XXR o'rtasidagi savdo urushini tadqiq qilib turib, bu urushda uchta asosiy mag'lubni belgilaydi: har ikki taraf va dunyo savdosini pasayishga uchraydi, bu xalqaro iqtisodiy o'sishda umumiy tushish, demakdir. Shuningdek, bu kelishmovchiliklarning urushga aylanib ketishidagi muhim "faktor"lardan biri hisoblanmish Prezident Tramp olib borayotgan siyosat juda kuchli himoyalangan XXR bozorlarining ochilishiga olib keladi (ya'ni, qaysidir ma'noda urush shu vaqtgacha boshqa urushlarda bo'lganidek, Amerika foydasiga hal bo'ladi), degan qarashlarni ilgari suruvchi tadqiqotchilar ham yo'q emas.

Bu ikki davlat o'rtasidagi savdo urushi rasman 2018-yil 23-mart kuni Donald Tramp tomonidan "XXRning iqtisodiy agressiyasiga qarshi Prezident memorandumi"ning qabul qilinishi va po'lat va alyuminiyga tariflar belgilangan sanadan boshlangan, deb belgilanadi¹³². Vaholanki, yuqorida ko'rib chiqilgan bir qator vaziyatlar tufayli ikki o'rtadagi savdo-tijoriy munosabatlarni salbiy ko'rinish olishni boshlagan edi. Jumladan, 2017-yilda Jahon Savdo tashkiloti (WTO) XXR iqtisodiga bozor iqtisodiyoti statusini berdi va bu AQShning noroziligiga sabab bo'lgan edi¹³³. Negaki, bu qaror AQShning XXR kompaniyalariga qarshi proteksionistik siyosatni qo'llashga doir bo'lgan imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi. Umuman olib qaralganda, bu masalaning mafkuraviy tomoni bilan ham qaysidir darajada bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan jihat hamdir. XXRning bozor iqtisodiga ega davlat ekanligi

¹³¹L. Chunding, H. Chuantian, L. Chuangwei, Economic Impacts of the Possible China-US Trade War. Emerging Markets Finance and Trade, New York, 2018. P.34.

¹³²As the China–United States trade dispute shows signs of ending, we look at five more commercial conflicts that have shaped the modern world. <https://www.thebusinessyear.com/5-more-trade-wars-in-world-history/focus>

¹³³L. Chunding, H. Chuantian, L. Chuangwei, Economic Impacts of the Possible China-US Trade War. Emerging Markets Finance and Trade, New York, 2018. P. 37.

xitoy tovarlarining boshqa kapitalistik davlatlar tovarlari bilan ayni maqomni berib, xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlaydi va erkin aylanishiga sharoit yaratadi. AQShning e'tirozi G20dagi jiddiy qarama-qarshilikka olib kelgan birinchi qadam bo'ldi. Trampning bu qarorga qarshiligi Milliy xavfsizlik strategiyasi (2017-yil, dekabrida qabul qilingan)da ham o'z aksini topib, unga ko'ra AQSh texnologiyalarida xitoy investitsiyalarining joriy etilishi cheklandi, eksport nazorati kuchaytirildi hamda XXRga yuborilishi taqiqlangan ikki marta foydalilanidigan [dual-use] tovarlar ro'yxati kengaytirildi. AQSh kompaniyalarini biznes aloqalarini olib borishi ta'qiqlangan korporatsiyalar ro'yxati, ular orasida, shu jumladan, Amerikaning Eronga qo'yan sanksiyalarini buzishda ayblangan ZTE korporatsiyasi bor – “*Yagona ro'yxat*” The Entity List tuzildi. AQShning proteksionizm ruhidagi siyosati hattoki milliy korporatsiyalarni ham xalqaro iqtisodiy aloqalar borasida yuqoridagi kabi cheklashlarga duchor qilgan.

Yigirmatalik davlatlar guruhi (*Group 20* yoki *G20*)¹³⁴ning 2019-yilning 28 – 29-iyun kunlari Yaponiyaning Osaka shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi o'n to'rtinchchi yig'ilishida tomonlar bir-biri bilan kelishuvga erishish o'rniqa bojxona tariflarini oshirish kabilar bilan tahdid yo'liga o'tishni ma'qul ko'rishgan. AQSh XXRni foyda olishga qaratilgan valyutani manipulatsiya qilish va bojxona tarifflari ta'sirini qisman neytrallashtirishda ayblagan edi. G20 sammit natijalarini pisand qilmagan holda XXRdan AQShga kirib keladigan 125 mlrd. dollar qiymatidagi import tovarlarga yangi boj tariflari ro'yxatini e'lon qildi. XXR ham bunga javoban AQSh neft xomashyofiga 5 %lik tarif hamda boshqa 75 mlrd. dollar qiymatidagi tovarlariga bojxona to'lovlarini o'rnatdi¹³⁵. Biroq har ikki davlatdagi biznes vakillari hukumatlarning kelishmovchilik siyosati tufayli ko'proq xarajatga duchor bo'layotgani oydinlashib bordi, oxir-oqibatda har ikki taraf ro'yxatdagi ba'zi tovarlarni istisno qilishga majbur bo'lishdi.

Savdo urushi jadallik bilan rivojlanar ekan, bundan nafaqat davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlар yangi oqimga tushdi, balki

¹³⁴Yigirmatalik davlatlari yoki G20 19 davlat (Argentina, Avstraliya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Yaponiya, Meksika, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Afrika, Janubiy Koreya, Turkiya, Buyuk Britaniya, AQSh)+Yevropa Ittifoqi birligidan iborat iqtisodiy va tijoriy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan.

¹³⁵G20 Osaka Summit 2019

https://www.mofa.go.jp/policy/economy/g20_summit/osaka19/en/summit/

mamlakatlarning ichki iqtisodiy hayotida band bo‘lgan barcha biznesmenlar, tadbirkorlar hamda bankirlarning holatiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir ko‘p hollarda salbiy xarakter kasb etib, milliy iqtisodlarni himoya qilib, rivojlantirishdan ko‘ra ko‘proq ularda xalqaro sog‘lom raqobatbardoshlik ruhini zaiflashtirishga olib keldi. Bu bir tarafdan, eng yangi ixtiro va yangiliklarni erkin almashib, bir-birining tajribasidan foydalanish imkoniyatining cheklangani faktori bilan bog‘liq bo‘lib, yuqorida keltirilganidek, yangiliklarni “o‘g‘ir-lash”da ayplash kabি holatlar sodir bo‘lmoqda. Boshqa tarafдан esa, iqtisodga siyosiy yondashuv kuchayib borib, iqtisodiy ustun sohalarda terror, bir-birini qo‘rqtish, harbiy sohani kuchaytirish orqali ustunlikka erishishga urinish holatlari ko‘proq uchray boshladи. Masalan, ZTE va Huawei korporatsiyalarining raqobatbardoshligi sanksiyalar ta’sirida sezilarli darajada tushib, Xitoyning yuqori texnologiyalar sanoatida rivolanishini qiyinlashtirdi. Sanksiyalar ostida turgan bo‘lishiga qaramay XXR raqamli texnologiyalar sohasida rivojlanish rejasidan voz kechmoqchi emas, aksincha, Xitoy ilmiy kadrlar yetishtirish borasida ham ba’zi muvaffaqiyatga erishib, AQSh yordamisiz ham yuqori texnologiyali sanoatni barpo etish dasturini faol olib bormoqda. Xitoy yo‘l qurilishi, havo transporti, xavfsizlik kabи bir qator sohalarda Amerika ta’sirining kamayishiga erishib, milliy potensialini ham kuchaytirib oldi.

Bu urushdagи yana bir o‘ziga xos jihat, AQShning protek-sionizm harakati faqatgina XXRga qarshi qaratilgan bo‘lmay, kelajakdagи o‘z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ichki va tashqi yo‘nalganligidir. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobat-chilarga cheklolvar qo‘yish asosida qo‘llab-quvvatlash AQShning o‘zidagi umumiyl iste’molni kamaytiradi, shuning bilan birga bojxona to‘lovleri oshirilgan po‘lat va aluminiy kabи mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasini oshishiga olib keladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qo‘srimcha ravishda AQShning ayni vaqtdagi hisobi davriy ravishda passiv balansda saqlab turildi, bu ham ichki faktorlardan biridir. XXR bilan o‘zaro savdo AQShdagи mavjud o‘sib borayotgan defitsitni kuchaytirib, unga ta’sir ko‘rsatayotgan muhim faktorlardan biridir¹³⁶.

¹³⁶Ron Huisken, The Regional Security Outlook 2020:A prolonged US-China two-step has left us questioning interdependence, COUNCIL FOR SECURITY COOPERATIONIN THE ASIA PACIFIC(CSCAP),

Established in 1993, the Council for Security Cooperation in the Asia Pacific (CSCAP) is the premier Track Two organisation in the Asia Pacific region and counterpart to the Track

Umuman olganda AQSh va XXR o‘rtasidagi savdo urushini keltirib chiqargan omillar bilan bir qatorda uning borishini rag‘batlantiradigan bir qator sabablar mavjud. (1) Savdo urushi ikki tomonlama savdo muvozanati defitsitini qisqartirishi taxmin qilinib, amerikalik mehnat resurslarini Amerikaning o‘ziga qaytarishi lozim edi. Savdo balansi defitsiti 2017-yilda AQSh uchun 796 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, XXR uchun yuqoridagi qiymatning deyarli yarmi (47 %i) – 376 mlrd. dollarni tashkil qildi xolos. AQSh XXRni o‘zining bir qator muammolarida ayplashiga qaramay aynan savdo balansi defitsiti ular ichida eng asosiysi hisoblanadi. Bu muammo o‘n yillar davomida rivojlanib borayotgan doimiy o‘suvchi xususiyatga ega jarayondir, trend faqatgina 2019-yilda eng quyi darajada tushdi. AQSh Xitoy bilan savdo aloqalarini adolatli, deb hisoblamaydi.

Amerika XXRdan asosan tayyor tovarlarni import qilsa, xitoyliklar esa, aksincha, Amerikaga bog‘liq bo‘lgan tovarlarni import qiladi, ya’ni faqatgina o‘ziga zarur bo‘lgan mahsulot va texnologiyalarni, elektronik chiplarni olib keladi. XXRning AQSh mahsulotlariga qaramligi bir tomonlama bo‘lib, bu qaramlik xitoylik olimlar va mutaxassislarining tajribasi oshib borishi bilan pasayib bormoqda, amerikalik ishlab chiqaruvchilarda esa vaqt o‘tishi bilan muammolar paydo bo‘la borishi yuqori ehtimol ostidadir.

XXRning chetga chiqaradigan butun eksport tovarlarining 19%i Amerikada import qilinsa, Amerika eksportining bor-yo‘g‘i 8,3 % XXR bozorlariga yo‘nalgaridir. 2018-yilda hukumatning proteksionistik siyosati natijasida AQShdan XXR eksport miqdori 21%ga qisqardi, ammo xitoyliklar tomonidan AQShga eksport miqdori 12 %ga qisqardi, xolos.

Savdo urushi XXRning yuqori texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlari oshishini qisqartirishi kutilgan. AQSh XXRning yuqori texnologiyalar, elektronika va innovatsion ixtiolar sohasida texnologiyalar transferi hamda mahalliy kompaniyalar kapitalining

One processes dealing with security issues, namely, the ASEAN Regional Forum (ARF), the East Asia Summit (EAS) and the ASEAN Defence Ministers Plus Forum. It provides an informal mechanism for scholars, officials and others in their private capacities to discuss political and security issues and challenges facing the region. It provides policy recommendations to various intergovernmental bodies, convenes regional and international meetings and establishes linkages with institutions and organisations in other parts of the world to exchange information, insights and experiences in the area of regional political-security cooperation.

erkin harakati hamda amerika kompaniyalari bilan vaqtinchalik hamkor shirkatlar tuzish faoliyatidan mammun emas. Yana boshqa bir ta'sirli mavzu Xitoy hukumat investitsiyalari xalqaro bozorlarda noteng raqobatni keltirib chiqardi, degan qarashning mavjudligidir. Xitoyning zamonaviy mahsulotlar, robotlar, litiyli batareyalar, aloqa vositalari va hokazolar ishlab chiqarish borasidagi strategik rejasini amalga oshirishdagi muvaffaqiyati AQShni xavotirga solib qo'yan. Bu jarayonga xalaqit berish maqsadida AQSh XXRdan keltiriladigan elektronika vositalari, telekommunikatsiya va aloqa uskunalariga bojxona tariflarini 25 %ga oshirdi¹³⁷.

Savdo urushi XXR harbiy qudratining oshishiga to'sqinlik qilishi lozim edi. AQSh Hindi-Xitoydagи hamda Tinch okeani regionidagi avvalgi harbiy-strategik qudratini yo'qotishni tabiiyki, istamaydi – buning uchun esa XXRga harbiy sohada o'sib ketishiga to'sqinlik qilishni o'ta muhim va kechiktirib bo'lmas vazifa, deb hisoblaydi. Natijada, AQSh milliy xavfsizlik sektorida o'zining ustunligini ta'minlash hamda Xitoyning Amerikada ishlab chiqarilgan ikki marta foydalilanadigan tovarlardan foydalananishini cheklash borasida chora-tadbirlar ko'rmoqda.

Savdo urushi federal budjet defitsitini qisqartirishga yordam berishi ko'zda tutilgan. AQSh o'zining budjetidagi defitsitni bartaraf qilish maqsadida XXRdan import qilinadigan tovarlarga bojxona tariflarini oshirishi zarur. Buning sababini yuqorida ko'rdik: juda katta qiymatdagi tovarlar juda katta qiymatdagi soliqlarga tortilishi hamda bu tushgan daromadlar defitsitni pasaytirish uchun yetaricha miqdordagi mablag'lar demakdir. 2017-yil dekabr oyidagi soliqlarni qisqartirish tufayli AQSh federal hukumati budjeti defitsiti qisman o'sishda davom etib 21 trillion dollarni tashkil qildi. Umumiy raqamlarga ko'ra esa AQShda budjet defitsiti YAIMning 4 foizini tashkil qiladi, va kelgusida ham o'sishda davom etishi prognoz qilinadi. Bu holatga qarama-qarshi o'laroq, XXRda budjet taqsilligi AQShnikichalik jiddiy emas, xitoy budjeti savdo urushidan zarar ko'rgan sanoat tarmoqlariga subsidiyalar ajratish uchun yetarli mablag'ga ega.

Yuqorida ko'rib o'tilgan to'rt omil savdo urushi "bardavomligi"ni ta'minlash bilan bir qatorda har ikki davlat joylashgan regionlardagi umumiy iqtisodiy holat va rivojlanish templariga ham

¹³⁷A. Carnegie, Trump's Trade War Escalates [online], Available at: <https://www.foreignaffairs.com/articles/2018-06-25/trumps-trade-war-escalates> (2018)

o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Har ikki tomon dunyoda kuchli yigirmatalik guruhi a’zos bo‘lish bilan birga, murakkab ko‘p tomonlama xalqaro aloqalarga ega. Savdo urushining jiddiy ko‘rinish olib, mamlakatlar chegarasidan chiqib ketib, mintaqaviy ko‘rinish kasb etishi, muammolar mashtabini kengaytirib yuboradi hamda ba’zi tahlilchilar prognoz qilganidek Ikkinch “sovuq urush” kelajakda uchinchi “issiq urush”ga ham olib kelishi mumkin. Shu boisdan ham xalqaro hamjamiyat, ayniqsa, G20, BMT hamda ShHT kabi ta’sir doirasi kuchli tashkilotlar, albatta, bu o‘ziga xos urushni bartaraf etishda tashabbus ko‘rsatishlari lozim, deb hisoblaymiz¹³⁸.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. OTOM dagi asosiy muammolar qaysilar va nima sababdan ushbu muammolar haligacha mavjud?
2. OTOM mintaqasida hali o‘z yechimini topmagan qanday muammolarni bilasiz?
3. Yaponianing OTOM xavfsizligini taminlashda roli qanday?
4. Amerika va Xitoy o‘rtasida savdo urushining boshlanishiga nimalar sabab bo‘ldi?

¹³⁸ G20 Osaka Summit 2019

https://www.mofa.go.jp/policy/economy/g20_summit/osaka19/en/summit/

XULOSA

Qo'llanmadan o'rin egallagan masalalar ko'lamidan ko'rinish turibdiki, siyosiy tahlil o'zining predmet sohasi va boshqa xususiyatlari bilan alohida maxsus tatbiqiy soha hisoblanadi. Shuning bilan birga barcha tatbiqiy sohalarning yagona tadqiqot asosi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shunday qilib, agarda keng ma'noda olib qaraydigan bo'lsak ushbu so'z birikmasi siyosatning barcha ilmiy tadqiqotlari ma'nolari uchun qo'llanilishi mumkin bo'lsa, tor ma'noda xalqaro xavfsizlik aniq muammolarni o'rganishda subyektivlik va erkinlikka asosiy to'siq bo'luvchi talablarni aniqlash, to'g'ri yechimlarni izlash va texnologik vosita va usullarni topish bilan shug'ulanadigan maxsus tatbiqiy soha sifatida ko'rib chiqiladi.

Xalqaro xavfsizlikning siyosiy vogeliklarni tatqiq etishning maxsus bosqichi sifatidagi xususiyatlari bir qator sabab va vaziyatlar yordamida aniqlanadi. Amaliy bilimlarning bir ko'rinishi sifatida, u avvalambor subyekt oldida turgan muayyan muammoni ta'riflash va o'rganishga yo'naltirilgan.

Shunday qilib, nazariy siyosatshunoslik predmet belgisiga asosan, biror bir siyosiy makon sohasi va bir turdag'i hodisalarning mantiqiy farazini ifodalab shakllanadi. Oldinda turgan vazifalarni bajarishda u muayyan hodisalarning xususiyat va belgilari, ularning qurilayotgan obyektlarni o'ziga xos maxsus chegara, tarqalish masstablari va boshqa ideal tuzilgan soha belgilari mayjud qandaydir ijtimoiy birdamlikka birlashtirish imkoniyatini beradigan o'zaro aloqalarini mantiqiy aniqlash yo'li bilan o'zining bilimlar binosini tiklaydi. Bunga qarama-qarshi sifatida siyosiy tahlil aniq muayyan muammoni, ya'ni siyosiy maydonidagi turli sohalarga tegishli bo'lgan va aniq, belgilanmagan manba, ilova va shunga o'xshash belgilarga ega vogelikning elementlarini tadqiq etishga qaratilgan.

Tatbiqiy bilimlarda qo'llaniladigan siyosiy hodisalarni tadqiq etishning usul va metodlari real siyosiy jarayonlarni, turli subyekt-larning harakatini va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganishga qaratilgan *siyosiy fanning* maxsus tarmog'ini shakllantiradi. Shunga

ko'ra butun tatbiqiy siyosatshunoslik sohasi, jamoatchilik fikrini qozonishga intiladigan, texnik ta'minot, turli bilim ko'nikma va ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar siyosiy faoliyatining turli xislatlari va chegaralarini ta'riflaydi. Bu soha xalqning siyosiy xohishi-irodasini (lider va partiyalarning reytinglari shaklidagi), ularning inqiroz yoki boshqa hollardagi hukumatning xatti-harakatiga munosabatlarini va boshqa holatlarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Shu bois fanga oid nazariy va amaliy bilimlar oqilona siyosat yuritish, haqqoniy siyosiy qaror qabul qilish va mayjud muam-molarga to'g'ri yechim topish, davlat idoralari bilan fuqarolar muloqotini tashkil etish, ijtimoiy-siyosiy islohotlar sifatini oshirish, siyosiy kuchlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish va shu orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayon-larning uyg'un kechishini ta'minlash, siyosat subyektlar faoliyatining mahsulдорligini oshirish hokimiyat vakillari bilan fuqarolarning muloqotini samarali tashkil etish uchun ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga to'g'ri ta'sir ko'rsatish va ularni samarali boshqarishni o'rganish talab etiladi. Shunga ko'ra jahon siyosati yo'nalishida tahsil olayotgan kadrlarning kelgusidagi amaliy faoliyati davomida siyosiy bilimlarni qo'llay bilishi O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilishning asosiy shartlaridan biriga aylanmog'i lozim.

GLOSSARY

Aktor — ko‘p ma’noli atama. Siyosatshunoslikda: aktor (lot. *actor* — arbob) — siyosat subyekti, shuningdek, aktor — dunyoda kechayotgan jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jahon siyosatining ishtirokchisi. Sotsiologiyada: aktor — amal-dagi subyekt (individual yoki jamoaviy); individ, ijtimoiy guruh, tashkilot, institut, boshqalarga qaratilgan harakatlarni amalga oshiruvchi insonlar uyushmasi. Masalan, davlat siyosat maydonidagi asosiy aktor va jamiyatdagi yetakchi aktor hisoblanadi.

Aqliy markazlar — turli mamlakatlarda xalqaro munosabatlarga oid muammolarni o‘rganuvchi ilmiy-tahliliy markazlar.

Avanssena — sahna to‘rburchagining old qismi, siyosiy atama sifatida xalqaro jarayonlarning qizg‘in muammolarini o‘zida mujas-samlashtirgan masalalar.

Algoritm — ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qo‘llanadigan dastur, ya’ni amaliy vositalar yig‘indisi.

Barqaror tizim — muayyan tizimning o‘z tarkibini o‘zgartir-masdan turib barqaror amal qilish salohiyati. Bunday salohiyat vaqt davomida o‘zgarmas bo‘lishi lozim.

Bipolyar tizim — ikkita buyuk davlat yoki ikkita ijtimoiy-siyosiy tizimning xalqaro munosabatlardagi ustuvorligiga asoslangan xalqaro tizim.

Bretton-Vudd tizimi — (ingl. *Bretton Woods system*) — pul muomalasi va savdo hisob-kitoblarini yuritishning xalqaro tizimi. 1944 yil 1-22-iyulda Bretton-Vudda (AQSh) bo‘lib o‘tgan konfe-rensiyada o‘rnatilgan.

Gaaga xalqaro sudi va tribunalı — Jinoiy ishlar bo‘yicha xalqaro sud, jinoiy ishlar bo‘yicha birinchi xalqaro huquqiy organ. Genotsid, harbiy jinoyatlar, insoniylikka qarshi jinoyatlar, shuning-dek, harbiy aggressiya bilan bog‘liq jinoyatlarni ko‘rish uchun tuzilgan. 1998-yili qabul qilingan Rim statuti asosida tashkil etilgan.

Gegeomonlik — muayyan davlatning dunyoda o‘z hukmronligini o‘rnatishga qaratilgan siyosati, boshqa mamlakatlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilishga intilish.

Gipoteza – ilmiy taxmin yoki faraz; aksiomadan farqli ravishda uni isbotlash talab etiladi.

Globalizatsiya – umumdunyo miqyosidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiyalashuv va unifikatsiyalashuv jarayonlari.

Gumanitar huquq – inson huquqlari – urush qurbanlarini himoya qilish, shuningdek, urushni olib borish metodlari va vositalarini cheklashga qaratilgan xalqaro huquqiy normalar va prinsiplar majmuasi.

Demokratlashuv to‘lqinlari – siyosiy fanlardagi konsepsiya bo‘lib, uning mohiyatini demokratlashuv jarayonlari to‘lqinsimon tarzda kechadi degan tushuncha tashkil etadi. S.Xantington tomonidan shakllantirilgan demokratlashuv jarayoni konsepsiyasiga muvofiq, hozirgacha demokratlashuvning uchta to‘lqini – 1820-1926-yillar, 1943-1962-yillar va 1974-1971-yillar – kuzatilgan. Shuningdek, demokratlashuvdan chekinishlar ham sodir bo‘lgan.

Diplomat – xalqaro huquqqa muvofiq muayyan davlatning manfaatlарини himoya qiladigan yoki xalqaro tashkilotning vakolatlari bilan ta’minlangan rasmiy shaxs. Diplomatning asosiy funksiyalari o‘z davlati va uning fuqarolari manfaatlарини ifoda etish va himoya qilish, shuningdek, ma’lumotlarni jamlash va davlatlararo munsabatlарни o’rnatish va rivojlanadirishdir.

Diskretlik (lot. *discretus* – ajratilgan, uzilgan) – davomiylik yoki uzlucksizlikka qarama-qarshi sanaladigan xususiyat, ya’niuzuqlik.

“Yevropa konserti” – Napoleon urushlaridan keyin shakllangan xalqaro munosabatlarning Vena tizimi. Metternix raisligida 1814-1815-yillarda bo‘lib o’tgan Vena kongressida huquqiy nuqtayi nazardan mustahkamlab qo‘ylgan bo‘lib, mazkur kongressda Usmoniyalar davlatidan tashqari Yevropaning barcha mamlakatlari vakillari ishtirok etgan.

Informatsion jamiyat – ko‘pchilik a’zolari ma’lumotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishslash va realizatsiya qilish bilan shug‘ullanadigan jamiyat.

Informatsion resurslar – informatsion tizimlarda joylashtirilgan hujjatlar va ularning jamlanmalari. Informatsion resurslar ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning turlaridan biri bo‘lib, ular ishlab chiqarishning faktori sifatida xizmat qiladi.

Irenologiya – yunoncha *eipynh* – tinchlik masalalarini o’rganishga ixtisoslashgan ilmiy yo‘nalish.

Kiberborliq – istiorali (metafora) abstraksiya bo‘lib, u virtual voqelikdan iborat kompyuter texnologiyalaridagi “ikkinchi dunyo”. U ham kompyuterlar “ichida”, ham kompyuter tizimlari “ichida” mujassam.

Konfessiya – (lot. confessio – diniy e’tiqod) – muayyan diniy ta’limot doirasidagi diniy e’tiqodning xususiyati, shuningdek, tegishli diniy e’tiqodga mansub kishilar uyushmasi.

Konflikt – manfaatlar, maqsadlar, qarashlar bilan bog‘liq ijtimoiy hamkorlik jarayonida paydo bo‘ladigan ziddiyatlarni hal qilishning eng keskin ko‘rinishi. Odatda, u ijtimoiy hamkorlikning turli taraflari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ko‘rinishida namoyon bo‘lib, ko‘pincha, qabul qilingan tartib-qoidalar doirasidan chiqib ketadigan salbiy emotsiyalarni yuzaga chiqaradi.

Konsepsiya – muayyan masalaga oid bir-biri bilan bog‘langan hamda o‘zaro mujassam qarashlar majmui; muayyan voqealarni tushunish va talqin etishning aniq yo‘li; muayyan voqealarni yoritishda qo‘llanadigan asosiy yondashuv; dunyo, tabiat va jamiyatdagi jarayonlarga nisbatan yondashuvning muayyan tizimi.

Korrelyat – solishtirma tushuncha bo‘lib, uning mazmuni boshqa biron-bir tushuncha bilan solishtirish orqali aniqlashtiriladi. Masalan, masohat (tekislik) tushunchasi olinadigan bo‘lsa, uning ustki va ostki qismlari korrelyatlar hisoblanadi. Shuningdek, korrelyat bu bir-biri bilan bog‘liq juftlik yoki o‘zaro bog‘liq zanjirning bo‘g‘ini, ya’ni bitta unsuridir. Masalan, agar Eshmat ishdan bo‘shatilsa, unda vakansiya paydo bo‘ladi (o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan solishtirma). Shunga ko‘ra, korrelyatsiya (o‘rta asrlar lotinchasi. correlatio – o‘zaro nisbat, o‘zaro solishtirish, o‘zaro bog‘liqlik) gapning ikki yoki undan ko‘proq qismlarini o‘zaro solishtirishni anglatadi.

Kuchlar nisbati – xalqaro munosabatlarda umumdunyo ko‘lamidagi ta’sir kuchlari markazlari – polyuslarining joylashuvini anglatadi. Kuchlar nisbati turli konfiguratsiyalarda namoyon bo‘lishi mumkin (bipolyar, uch polyusli, multipolyar va h.).

Manfaat – ko‘p ma’noli tushuncha bo‘lib, xalqaro munosabatlar kontekstida muayyan mamlakatning umummilliy ahamiyatga molik hamda xalqaro munosabatlar bilan bog‘liq milliy manfaatlarini ifodalash uchun qo‘llanadi.

Metod — biron vogelikni nazariy tadqiq etish (o'rganish) yoki amalda ijro etish yo'li, o'rganilayotgan predmetning ichki mohiyati idrok etish uslubi.

Metodika — muayyan fanni o'qitish yoki amalga oshirishni o'rgatish metodlarining (yo'llarining) yig'indisi, odadta, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish yo'lini ifodalaydigan tayyor "retsept", algoritm yoki protseduralar yig'indisi.

Metodologiya — umuman ilmiy metod yoki muayyan fanlarga oid metodlar haqidagi ta'limot, muayyan predmetni ilmiy o'rganishning yo'llari, vositalari va strategiyalari haqidagi ta'limot.

Milliy davlat (nation-state) — davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy shakli bo'lib, u tegishli hududda istiqomat qiluvchi millatning o'z-o'zini boshqarish shaklini anglatadi va uning xohish-irodasini ifodalaydi.

Nazariya — yunon tilidan: ko'rib chiqish, tadqiq etish — muayyan g'oyalar va prinsiplarni umumlashtiruvchi ta'limot.

Nohukumat xalqaro tashkilot (ingl.: *Non-governmental international organization*) — muayyan hududga bog'lanmagan xalqaro tashkilotlarning bir turi. U uchta talabga javob berishi taqozo etiladi: birinchisi, ularning tarkibi va maqsadlari xalqaro tabiatga ega; ikkinchisi, ularning ta'sischilari jismoniy shaxs statusiga ega; va, uchinchisi, ular faoliyatining ixtiyoriyligi. Shuningdek, bunday tashkilotlarning muhim belgilardan biri ularning notijorat tabiatga egaligidir.

Oltin standarti — xalqaro hisob-kitoblarning tizimi bo'lib, uning asosini oltin narxi bilan belgilanadigan birlik tashkil etadi.

Ochiq jamiyat — jamiyatning demokratik shakli, bugungi dunyoda mavjud bo'lgan qator jamiyatlar (asosan, G'arb jamiyatları) va antik davrda amal qilgan ba'zi jamiyatlarning sifati. Odadta, bu tushuncha yopiq yoki an'anaviy jamiyat, shuningdek, totalitar tuzumlar sharoitidagi jamiyatlarning zidi sifatida qo'llanadi. Ochiq jamiyat konsepsiysi ilk bor faylasuf Anri Bergson tomonidan ishlab chiqilgan.

Paradigma — muayyan konsepsiylar yoki tafakkur shablonlarining aniq majmuasi bo'lib, jumladan, tadqiqotning nazariy qismi, metodlari, postulatlari va mezonlarini qamrab oladi.

Paritet — (lot. *paritas* "tenglik") — ikki yoki undan ko'p taraflarning o'zaro munosabatlidagi muayyan mezonlarning o'zaro nisbati. Kuchlarning nisbiy muvozanati, maqsadlarning

o‘zaro mutanosibligi, to‘lov vositalarning ekvivalentligi, huquq va majburiyatlarning tengligi va boshqa ma’nolarni anglatishi mumkin.

Polemologiya — yunoncha *polemos* — urush va konfliktlarni o‘rganishga ixtisoslashgan ilmiy yo‘nalish.

Postbipolyar bosqich — xalqaro munosabatlarning ikki qutbli davridan keyingi holati, xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichi.

Postmodern — zamonaliv ijtimoiy nazariyaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, industrial jamiyatlar asoslarining yemirilishi ibtidosidan boshlangan yakunlanmagan tarixiy davr.

Prognоз — obyektning istiqboldagi holati va uning sodir bo‘lishi alternativ muddatlar haqidagi ilmiy asoslangan fikrmulohaza. Tor ma’noda tadqiqot obyektining istiqboldagi ehtimoliy holati.

Referendum — umummilliy ahamiyatga molik masalalar bo‘yicha tegishli qarorni qabul qilish uchun o‘tkaziladigan umummilliy ovoz berish jarayoni.

Retsessiya — (lot. chekinish, ortga tisarilish) — iqtisodiyotda, jumladan, makroiqtisodiyotda ishlab chiqarishning mo‘tadil darajalarda ortga chekinishi yoki iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishi.

Resurslar — maqsadli tartibda foydalilaniladigan barcha narsalar.

Rim statuti — ingl. Rome Statute of the International Criminal Court — Jinoiy ishlar bo‘yicha xalqaro sud, 1998-yil 17-iyulda Rimda bo‘lib o‘tgan diplomatik konferensiyada qabul qilingan va 2002-yil 1-iyuldan kuchga kirgan.

Siyosiy institut — siyosiy tizimning komponentlaridan biri. Institut ham rasmiy, ham norasmiy bo‘lishi mumkin. Rasmiy institutlar o‘z reglamentlari asosida faoliyat ko‘rsatadi. Norasmiy institutlar esa shaxsiy aloqalar va umumiyl manfaatlar asosida amal qiladi.

Siyosiy fanlar — siyosatning turli qirralarini o‘rganuvchi fanlar majmuasi.

Sovuq urush — siyosiy fanlarga oid atama bo‘lib, 1946-yildan 1980-yillardagi SSSR va AQSh boshchiligidagi dunyo davlatlarining global miqyosdagi geosiyosiy, harbiy, iqtisodiy va mafkuraviy qarama-qarshiligi jarayonini anglatadi.

Status-kvo — so‘zma-so‘z: oldingi holatni tiklash, ya’ni xalqaro munosabatlardagi muayyan huquqiy yoki siyosiy holatga qaytish

Suverenitet – (fran. Souveraineté) – oliv hokimiyat, ustuvorlik, hukmronlik – davlatning tashqi ishlardagi mustaqilligi va davlat hokimiyatining ichki ishlardagi ustuvorligini anglatadi.

Uchinchi dunyo – XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan termin bo‘lib, undan sovuq urushda ishtirok etmagan davlatlar guruhini belgilash uchun foydalanilgan.

Umumilmiy paradigmalar (yunoncha. παράδειγμα, «misol, model, namuna») – ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etiladigan va uni birlashtirib turadigan fundamental ilmiy ko’rsatmalar, tasavvurlar va atamalarning yig‘indisi.

Xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlat hayotiy manfaatlarining ichki va tashqi xatarlardan himoyalanganlik holati.

Xalqaro munosabatlarni o‘rganishning idealistik bosqichi – progressiv nazariyalar yetakchilik qilgan 1920-1930-yillar.

Xalqaro munosabatlarni o‘rganishning realistik bosqichi – konservativ nazariyalar yetakchi bo‘lgan 1930-1940-yillar.

Xalqaro munosabatlarni o‘rganishning bixeivaoristik bosqichi – xulq-atvorga asoslangan ijtimoiy-ilmiy nazariyalar yetakchi bo‘lgan 1950-1960-yillar.

Xalqaro huquq – xorijiy elementlar va normativ aktlar ishtirokidagi huquqiy munosabatlarni anglatib, ushbu subyektlar orasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro munosabatlarning Vestfaliya modeli – xalqaro munosabatlarning Yevropada yaratilgan Vestfaliya bitimiga asoslangan tizimi bo‘lib, 1648-yilda yakunlangan O‘ttiz yillik urushning natijalarini rasmiylashtirgan. Vestfaliya modeli xalqaro munosabatlardagi maqomini allaqachon yo‘qtgan bo‘lsada, uning ayrim tamoyillari o‘z kuchini hozirgacha saqlab qolgan.

Xalqaro tashkilot – tegishli shartnomalar asosida ta’sis etilgan davlatlararo yoki nodavlat tabiatli uyushmalar (masalan, BMT, YeXHT, Hyuman rayts voch va h.)

Ekspansiya – alohida davlat, xalq, madaniyat yoki biologik turning mavjudligi yoki ta’sir hududining kengayishi jarayoni.

Empirika – sezish organlari, jumladan kuzatuv yoki eksperiment orqali hosil qilingan empirik ma’lumotlar.

Yangicha siyosiy tafakkur – Mixail Gorbachev tomonidan so‘biq Sovet Ittifoqini isloh etish doirasida olg‘a surilgan doktrinaning nomi.

Qurollanish poygasi – ikki yoki undan ko‘p buyuk davlatlarining qurolli kuchlar sohasidagi siyosiy qarama-qarshiligi. Bunday

qarama-qarshilik jarayonida uning ishtirokchilari tomonidan ko‘plab qurol-asliha ishlab chiqariladi. Bundan ko‘zlangan maqsad raqib davlat bilan paritetga erishish yoki undan o‘zib ketishdir.

Qo‘silmaslik harakati – 1961-yil Belgrad konferensiyasida tuzilgan 120 davlatning harbiy bloklarda ishtirok etmaslik tamoyili asosida boshlangan xalqaro harakat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
5. Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарқ, 2005
6. Фойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбалари. – Т.: Ўзбекистон, 2013.
7. Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. (ўкув қўлланма). – Т., 2000.
8. Муҳаммадсиддиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув қўлланмана. – Т.: ТошДШИ, 2013.
9. Ахременко А. С. Политический анализ и прогнозирование. – М.: Гардарики, 2006.
10. Жумаев Р.З. Стратегик таҳлил асослари. – Т. Академия. 2007.
11. Каримова В.А., Зайнутдинова М.Б., Назирова Э.Ш., Садыкова Ш.Ш. Тизимли таҳлил асослари. – Т.: Шарқ, 2014.
12. Туронок С.Г. Политический анализ и прогнозирование. – М.: Юрайт, 2016

13.Хрусталев М. А. Методология прикладного политического анализа: Учеб. пособие. – М.: МГИМО, 2010.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Almond G., Powell B. Comparative Politics Today. – N.Y., 1996.
2. Daxl R. Modern Political Analysis. 6th ed. – London : Pearson, 2002.
3. Dunn W. N. Public Policy Analysis: An Introduction. 5th ed. – Boston, MA : Pearson, 2012.
4. Gupta D. Analyzing Public Policy. Concepts, Tools, and Techniques. – Washington, D.C. : CQ Press, 2001.
5. Manheim J., Rich R. Empirical Political Analysis: Research Methods in Political in Political Science. – N.Y., 1991.
6. Pal L. Public Policy Analisys: An Introduction. Scarborough, 1992.
7. Patton C. V., Sawicki D. S., Clark J. J. Basic methods of policy analysis and planning. – N.J. ; Upper Saddle River : Pearson, 2013.
8. Weimer D. L., Vining A. R. Policy analysis: Concepts and Practice / 5th ed. – Boston, MA : Longman, 2011.
9. Ахременко А. Политический анализ и прогнозирование. – М.: Гардарики, 2006.
- 10.Боришполец К. Методы политических исследований. – М.: Аспект Пресс, 2005.
- 11.Валинский С.И., Калюжный Д.В., Недосекина И.С. Введение в хронотронику. Путь к оптимальному развитию. – М., 2009.
- 12.Дегтярев А. А. Прикладной политический анализ. – М. : МГИМО (У) МИД РФ, 2010.
- 13.Зудин А. Основы политического анализа. – М.: ГУ ВШЭ, 2011.
- 14.Клементевич Т. Процесс принятия политических решений // Элементы теории политики. – Р., 1991.
- 15.Куприн В.С.Математические методы и модели в социологии. – М.: Наука, 2009.

16. Ларичев О. И. Теория и методы принятия решений, а также Хроника событий в Волшебных странах. – М., 2000.
17. Павловский Ю.Н. Имитационные системы и модели. – М., 1990.
18. Пугачев В. П., Соловьев А. И. Введение в политологию: учебное пособие для студентов вузов / 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2004.
19. Сидельников, Ю. В. Теория и организация экспертного прогнозирования. – М., 1990.
20. Силов В. Б. Принятие стратегических решений в нечеткой обстановке в макроэкономике, политике, социологии, менеджменте, экологии, медицине. – М., 1995.
21. Симонов К.В. Политический анализ. – М.: Логос, 2010.
22. Ядов, В. А., Семенова В.В. Стратегия социологического исследования: Описание, объяснение, понимание социальной реальности. – М.: Добросвет, 2000. – 596 с.

D.I.MADAMINOVA, H.Y.AZIMOV

XALQARO XAVFSIZLIK

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: Bashorat Azamova

Dizayner: Oygul Foilova

Sahifalovchi: Umid Raxmatov

**Nashr. lits. № AA 0016. 19.08.2019 y.
«EFFECT-D» nashriyoti**

100000, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 16-A uy.
email: info@effectnashr.uz

01.11.2021 da nashrga ruxsat etildi.

Format 60x84 1/16. Shartli b.t. 8,5. Hisob. b.t. 7,75.
Times New Roman garniturası. 30 nusxa. 61-buyurtma.